ISSN 3030 - 3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

www.mgjxu.uz

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY



- konstitutsiya, inson huquqlari va milliy qonunchilik
- jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi
- harbiy sohadagi islohotlar
- ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb nazariy-amaliy masalalari
- ta’lim-tarbiya jarayoni
- iqtisodiyot: nazariya va amaliyot
- texnika va texnologiyalar taraqqiyoti
- xorijiy tajriba
- yosh olimlar minbari

2025, №1

@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120

t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti

jamoatxavfsizligi_universiteti

JAMOAT XAVFSIZLIGI
ilmiy amaliy jurnali

TAHRIR KENGASHI:

ISLAMOV
Baxtiyor Djaxangirovich

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

DJURAYEV
Rustam Mirzayevich

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni, general-mayor, dotsent, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

ABJANOV
Baurjan Sadikovich

Qozog‘iston Respublikasi Milliy gvardiyasi Bosh qo‘mondoni o‘rinbosari, general-mayor, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

XAKIMOV
Raxim Rasuljonovich

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SAIDOV
Akmal Xolmatovich

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Inson huquqlari Milliy markazi direktori

MAMAYUSUPOV
Sarvar Dexkanovich

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosari, polkovnik, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bosh muharrir:
RUSTAMBAYEV
Mirzayusup Xakimovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, polkovnik, yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

MIRAKULOV
Miravzal Mirodilovich

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi sho‘ba mudiri, podpolkovnik, yuridik fanlar doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

Turg‘unov Oybek Karimovich
Mamasiddiqov Muzaffarjon Musajonovich
Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
Abdurayimov Sobirjon Sayipjonovich
Zokirov Botirjon Pulatxujayevich
Selimanova Svetlana Mixaylovna
Mirazov Davron Miragzamovich
Akramova Shaxnoza Abrorovna
Kuldashev Ikrombek Xamidullayevich
Xoliqulov Umid Shodiyevich
Usmonov Muxammadi Baxriddinovich
Djaydakbayev Murat Turg‘unovich
Axmedov Jamoliddin Davronovich
Narkulova Indira Rustam qizi
Alimova Go‘zal Alisherovna
Bulicheva Margarita Faritovna
Kamolov Abdullo Abdurazzokovich
Xaqnazarov Xudoyberdi Dilmurodovich
Shirinova Nargiza Djabbarovna
va boshqalar

Bosh muharrir:
RUSTAMBAYEV
MIRZAYUSUP XAKIMOVICH
Mas’ul muharrir:
ZULFIQOROV
Sherzod Xurramovich
Mas’ul kotib:
KAMOLOV
Abdullo Abdurazzokovich
Muharrir:
Murakayeva Zuxra Ilgizarovna
Dizaynerlar:
Kamolov Abdullo Abdurazzokovich
Korrektor:
Qurbonov Bahrom
Tahririyat manzili:
Toshkent viloyati, Chorsu qo‘rg‘oni
Tel: **(71) 230-32-71**
Faks: **(71) 230-32-50**
E-mile: **jxu@umail.uz**
web-site: **mgjxu.uz**

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA

Сормонкулов А.Р., Карабаев С.Ш.
Современное состояние системы обеспечения политической стабильности — 03

Rustambayev M.X.
Jinoyat protsessida idoraviy-protsessual nazorat istiqbollari — 09

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK

Usmonov M.B.
Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy muammolari — 14

Davletov O‘.M.
Fuqarolik sud ishlarini yuritishni jadallashtirishda advokatning roli: nazariy va amaliy masalalar — 18

Имиров С.К.
Историко-педагогический и методологический анализ формировния правовой культуры в контексте военного образования — 21

Yarashev B.Ch.
Konstitutsiya mehnatga oid huquqlarni himoya qilishning kafolatidir — 27

Анарбаев Э.А.
Основные теоретические подходы к правовой сущности концессии и ее историческое становление — 30

Ismoilova K.U.
Jinoyat bilan bog‘liq mavzularni yoritishda jurnalist etikasining dolzarb masalalari — 37

Adashov X.X.
Garov obyekti sifatida tovar belgilarining fuqarolik-huquqiy maqomi masalalari — 41

Maxtumova Y.B.
Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasining huquqiy asoslari — 49

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI

Рустамбаев М.Х., Селиманова С.М., Миразов Д.М., Иканов А.А.
Сущность, направления и особенности применения технологии профайлинга при обеспечении общественной безопасности — 59

Xo‘jamberdiyev F.K.
Huquqiy davlatda jamoat xavfsizligi tushunchasi va uning tamoyillari bo‘yicha qiyosiy tahlil — 64

Iminov A.A.
Ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta’minlashga doir nazariy qarashlar — 68

Islombekov B.I.
Xorijiy davlatlar metropolitenlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari — 73

Mitanov Z.N., Nosirov Sh.B.
Scientific and practical aspect of the practice of «maintaining a safe road index» — 77

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR

Шекарбеков С.А., Махмудов Р.М.
Теоретические аспекты формирования профессиональной компетентности будущих офицеров в решении служебных задач — 81

Ikmatullayev G‘.Z.
Ijtimoiy muhit harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga psixologik moslashuvchanligida dinamik omili sifatida — 86

Mirzajonov G‘.T.
Jadidlarning harbiy islohotlarga doir takliflarining huquqiy hujjatlarda aks etishi — 91

MUNDARIJA

Карабаев С.Ш.
Современные проблемы по противодействию протестным акциям — 98

IV. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI

Mirzayev G.R., Nuriddinov E.Z.
O‘zbekistoning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida yangi davrning boshlanishi masalalar — 102

Alimova G.A., Kazakov A.A.
Sibir daryolari oqimining bir qismini markaziy osiyoga ko‘chirishning tarixiy va retrospektiv tahlili “Sibir daryolarining burilishi” — 112

Sultonov A.A.
An’anadan taraqqiyot sari: O‘zbekistonda shaxsiy immunitetning yangi ta’rifi — 116

Akramova Sh.A., Shirayeva E.R.
Harbiy xizmatchilar mediamadaniyatini shakllantirishda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining zaruriyati — 122

Xomidov E.O.
Oliy ta’lim tashkilotlarida tadbirkorlik faoliyatining zarurati — 128

Sattarov A.A.
Yoshlarni internet orqali tarqatilayotgan diniy sektalarning buzg‘unchi g‘oyalaridan asrashning ma’naviy-axloqiy shakllari — 132

V. TA’LIM-TARBIYA JARAYONI

Shirinova Na.D.
Ingliz tili darslarida harbiy oliy ta’lim muassasalari kursantlarining og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish — 138

Shirinova Ni.D.
Predmetlik va belgi-xususiyat ma’nolarining farqlanishida interparallel graduonimik munosabatlar — 141

Матчанов Р.А.
Компклексный анализ технической подготовки спортсменов рукопашного боя с учетом их индивидуальных особенностей — 132

Abdullayev A.I.
Kurash usullarini takomillashtirish uslubiyoti — 148

Эгамбердиева Г.М.
Своеобразие героев повести Андрея Дмитриева «призрак театра» — 151

VI. IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT

Елизаров М.Г.
Экономико-теоретические вопросы оценки военно-рекреационной привлекательности территорий — 155

VII. TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI

Gulyamov N.Sh., Aslanov N.R.
Motosiklni boshqarishda ehtimoliy xavflarni kamaytirish — 160

Achilov F.B., Bozorov A.A., Abdullayev D.A.
Qo‘riqlashning videokuzatuv vositalari videotasvirlaridagi shovqinlarni baholash jarayonini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida takomillashtirish — 164

Parsiyev S.S., Raxmatov I.Yu.
Ma’lumotlarni uzatuvchi va qabul qiluvchi aloqa tugunlarini optimal joylashtirish usuli — 168

Файзибаев Ш.С., Касимов О.Т.
Оценка остаточного ресурса и прочности главный рам магистральных тепловозов на железных дорогах Узбекистана — 171

Jumaniyazova Sh.K.
AQSH milliy xavfsizlik strategiyasiga sun’iy intellektning ta’siri — 176

Xamitxonov B.S.
Zirhli transportyor haydovchilarini tayyorlashda trenajori simulyatorlardan foydalanishning afzalliklari milliy hamda xorijiy tajriba — 182

VIII. XORIJIY TAJRIBA

Shadmanov E.Sh., Anarkulov A.D.
Mintaqalarni rivojlantirishning xorij tajribasi — 189

HUQUQIY DAVLATDA JAMOAT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI VA UNING TAMOYILLARI BO‘YICHA QIYOSIY TAHLIL

Xo‘jamberdiyev Farrux Komilovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Anottatsiya. Maqolada huquqiy davlat sharoitida jamoat xavfsizligi tushunchasi va uning tamoyillari bo‘yicha qiyosiy tahlil amalga oshirilgan. Turli huquqshunos va siyosatshunos olimlarning xavfsizlik masalasiga oid yondashuvlari tahlil qilinib, ularning huquqiy davlat konsepsiyasi doirasidagi o‘rni ochib berilgan. Max Weber, John Locke, Hans Kelsen, Carl Schmitt, Samuel Huntington kabi olimlarning qarashlari asosida davlatning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi roli baholangan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida jamoat xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha huquqiy va institutsional takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Huquqiy davlat, jamoat xavfsizligi, huquqiy tamoyillar, xavfsizlik siyosati, davlat vakolatlari, qonun ustuvorligi, favqulodda holatlar, demokratik institutlar, inson huquqlari, institutsional islohotlar, xavfsizlik strategiyasi, Milliy gvardiya, xalqaro hamkorlik, kiberxavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash.

Huquqiy davlatda jamoat xavfsizligini ta’minlash qonun ustuvorligi va davlatning funksional samaradorligi o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Xavfsizlikning huquqiy negizlari turli huquqshunos va siyosatshunos olimlar tomonidan har xil talqin qilingan bo‘lib, ushbu yondashuvlar xavfsizlik choralarining qanday shakllanishi va ularning inson huquqlari bilan qanday uyg‘unlashishi borasida turlicha nuqtai nazarlarni aks ettiradi.

Huquqiy davlatning asosiy tamoyili sifatida **Hans Kelsen[1]** jamoat xavfsizligini ta’minlashda **mutlaq qonuniylik** prinsipiga urg‘u beradi. Uning nazariyasiga ko‘ra, davlat tomonidan amalga oshiriladigan har qanday xavfsizlik choralari qat’iy huquqiy normalar asosida bo‘lishi shart va qonun ustuvorligi xavfsizlikni ta’minlashning yagona asosiy kafolatidir. **John Locke[2]** esa davlatning mavjudligi o‘z-o‘zidan **fuqarolarning hayoti, erkinligi va mulkini himoya qilish majburiyatini o‘z ichiga olishini** ta’kidlaydi. Uning fikricha, xavfsizlik ijtimoiy shartnomadan kelib chiqadi va davlat fuqarolarining huquqlarini himoya qilish uchun tashkil etiladi.

Biroq, faqat qonuniylik tamoyiliga asoslanish jamoat xavfsizligini ta’minlashda yetarli emas. **Montesquieu[3]** davlatning haddan tashqari vakolatga ega bo‘lishi xavfini oldini olish uchun **hokimiyatni bo‘lish tamoyili** asosida harakat qilish kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, davlat xavfsizlikni ta’minlash vakolatiga ega bo‘lishi lozim, biroq bunday vakolatlar boshqa siyosiy institutlar tomonidan muvozanatlashtirilishi kerak. Bunday yondashuv, ayniqsa, demokratik boshqaruv tizimida davlatning ortiqcha nazorat mexanizmlarini ishlab chiqishining oldini olish uchun zarur hisoblanadi.

Huquqiy tamoyillarning ustuvor bo‘lishi jamoat xavfsizligini kafolatlashda muhim omil bo‘lsa-da, davlat ba’zan favqulodda holatlarda tezkor chora-tadbirlar ko‘rishi zarur bo‘ladi. **V.A. Chetverikov[4]** fikricha, xavfsizlik siyosati **favqulodda vaziyatlarda davlatga kengroq vakolatlar berish imkoniyatini yaratishi kerak**. Unga ko‘ra, xavfsizlikni ta’minlash maqsadida ba’zi huquqiy cheklovlar joriy qilinishi mumkin, lekin ular vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lishi va demokratik tizimga zarar yetkazmasligi shart.

Shunga o‘xshash yondashuv **Carl Schmitt[5]** tomonidan ham ilgari surilgan bo‘lib, u favqulodda holatlar nazariyasi asosida **“suveren davlat – bu favqulodda holatlarni belgilash vakolatiga ega bo‘lgan davlatdir”**, degan fikrni ilgari surgan. Uning fikricha, xavfsizlikni ta’minlash uchun davlatning odatiy huquqiy normalardan vaqtinchalik chekinishi qonuniy deb hisoblanishi mumkin. **Samuel Huntington[6]** ham xavfsizlikni demokratiya va fuqarolik huquqlaridan ustun qo‘yish mumkin bo‘lgan holatlar mavjudligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, xavfsizlik davlat barqarorligini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib, ba’zi hollarda davlat xavfsizlikni ta’minlash uchun avtoritar choralarga murojaat qilishi mumkin.

Biroq, **Ronald Dworkin[7]** va **Joseph Raz[8]** bu yondashuvlarga tanqidiy yondashib, **qonun ustuvorligiga asoslanmagan xavfsizlik cho-**

ISSN 3030-3230

ralari avtoritar boshqaruv shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Dworkinning fikricha, xavfsizlik siyosati **inson huquqlari bilan muvozanatlangan bo‘lishi kerak**, aks holda huquqiy davlat tamoyillari zaiflashadi. Raz esa davlatning huquqiy tizimi **fuqarolarga o‘z hayotlari ustidan nazorat o‘rnatish imkoniyatini berishi kerak**, deb hisoblaydi, ya’ni xavfsizlik fuqarolarning huquqiy himoyasi bilan uyg‘unlashishi lozim.

Davlatning jamoat xavfsizligi tizimidagi roli bo‘yicha **Max Weber[9]** tomonidan ilgari surilgan **“davlat – qonuniy zo‘ravonlik monopoliyasiga ega yagona institutdir”** degan nazariya alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, davlat jamoat xavfsizligini ta’minlashda asosiy kuch sifatida qaralishi kerak va xavfsizlik tizimining samaradorligi davlat institutlarining mustahkamligiga bog‘liq. Ushbu yondashuvga ko‘ra, **davlat o‘zining ichki barqarorligini saqlab qolish uchun huquqni muhofaza qilish organlarini mustahkamlashi va xavfsizlik idoralarining salohiyatini oshirishi lozim**.

Biroq, **Michel Foucault[10]** xavfsizlikning institutsional jihatiga tanqidiy yondashib, **davlatning xavfsizlik mexanizmlarini haddan tashqari kuchaytirishi jamiyat ustidan ortiqcha nazoratni keltirib chiqarishi mumkinligini** ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, xavfsizlik tizimlari fuqarolar erkinligini cheklovchi vositaga aylanishi mumkin. Shu bois, xavfsizlik va davlat nazorati o‘rtasidagi muvozanatni saqlash huquqiy davlat uchun eng muhim vazifalardan biridir.

O‘zbekiston sharoitida **huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan xavfsizlik tizimini shakllantirish muhim**, lekin ayni vaqtda davlat xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha yetarli vakolatlarga ega bo‘lishi lozim.

Max Weber va John Locke modellaridan foydalanish mumkin, chunki ular xavfsizlikni ta’minlashda davlat rolini mustahkamlaydi, lekin shu bilan birga huquqiy asoslar va fuqarolarning huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

Carl Schmitt va Samuel Huntington modellaridan ekstremal holatlarda foydalanish mumkin, lekin ular xavfsizlik siyosatining doimiy tamoyiliga aylanishi inson huquqlari va demokratiya prinsiplariga zarar yetkazishi mumkin.

Hans Kelsen, Ronald Dworkin va Joseph Raz modellaridan foydalangan holda xavfsizlik siyosatini huquqiy davlat tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish lozim, bu esa fuqarolarning huquqlarini saqlagan holda davlat xavfsizlik siyosatini mustahkamlash imkonini beradi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda xavfsizlik siyosati **qonun ustuvorligiga asoslangan bo‘lishi, lekin xavfsizlik tahdidlariga tezkor va moslashuvchan yondashuv orqali javob berish mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak**.

Bunda O‘zbekiston Respublikasida xavfsizlik siyosati huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan holda tashkil etilishi lozim. Shu bilan birga, zamonaviy xavfsizlik tahdidlari – transmilliy jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm, kiberxavfsizlik muammolari va ichki ijtimoiy beqarorlik kabi xavflarga qarshi **tezkor va moslashuvchan javob berish mexanizmlarini shakllantirish** muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joiz, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlikni ta’minlash borasida samarali huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni joriy etish uchun **institutsional islohotlar, huquqiy baza takomillashtirilishi va texnologik innovatsiyalarga e’tibor qaratilishi lozim**.

Huquqiy davlat sharoitida xavfsizlik siyosatini amalga oshirish uchun qonunchilikning **doimiy ravishda yangilanib borilishi, normativ-huquqiy hujjatlar xalqaro standartlarga moslashtirilishi va favqulodda holatlarda qonuniy me’yorlar aniq belgilab qo‘yilishi** talab etiladi. Shu jihatdan, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, xavfsizlik bo‘yicha alohida kodeks ishlab chiqish. Bu orqali jamoat xavfsizligi, milliy xavfsizlik, kiberxavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va favqulodda vaziyatlarni qamrab oluvchi yagona huquqiy tizim yaratish.

Ikkinchidan, favqulodda va harbiy holatlar uchun aniq huquqiy tartib o‘rnatish. Xolbuki, davlatning favqulodda holat e’lon qilish vakolati va uning doirasi konstitutsiyaviy kafolatlar bilan muvozanatlangan bo‘lishi lozim (Carl Schmitt modeli nazariyasi asosida).

Uchinchidan, jamoat xavfsizligi bo‘yicha qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish. Bunda O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar (BMT, YXHT, INTERPOL) bilan xavfsizlik sohasida normativ-huquqiy hamkorligi yanada kuchaytirilishi lozim.

Zamonaviy huquqni muhofaza qilish organlari samarali xavfsizlik siyosatini olib borish uchun aniq vakolatlarga, idoralararo hamkorlikning yuqori darajada tashkil etilishiga va xavfsizlik tizimining institutsional jihatdan mustahkamlanishiga tayanishi lozim. Xavfsizlik siyosati huquqiy, siyosiy va iqtisodiy jihatlarni qamrab olishi bilan birga, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilishi kerak.

Samarali xavfsizlik siyosatini amalga oshirish

uchun quyidagilar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining **Milliy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish lozim.** Bunda O‘zbekiston Respublikasining **Milliy xavfsizlik strategiyasi** uzoq muddatli xavfsizlik choralarini belgilab beruvchi hujjat sifatida muntazam yangilanib borilishi hamda o‘zida ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan tezkor harakatlarni mujassam etishi lozim.

Fikrimizcha, Milliy xavfsizlik strategiyasini takomillashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

- ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan tezkor javob berish tizimini shakllantirish;
- davlat boshqaruvining barcha darajalarida xavfsizlik siyosatini uyg‘unlashtirish;
- innovatsion texnologiyalar va ilg‘or yondashuvlardan foydalanish.

Ikkinchidan, jamoat **xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar o‘rtasida muvofiqlashtirishni amalga oshirish**. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun **yagona axborot almashish tizimi** va operativ rejalashtirish mexanizmlarini joriy etish zarur.

Uchinchidan, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish. Xavfsizlik siyosatini samarali yuritish uchun fuqarolar jamiyati, mahalla institutlari va ommaviy axborot vositalari (OAV) faol ishtirok etishi lozim. Xavfsizlikni ta’minlash faqat huquqni muhofaza qilish organlarining vazifasi bo‘lib qolmay, balki fuqarolar ham ushbu jarayonda ishtirok etishlari zarur.

Fikrimizcha, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mahalla institutlarini faollashtirish: mahalla faollarining huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilishini kengaytirish, profilaktika inspektorlarining rolini kuchaytirish;
- fuqarolarni xabardor qilish va huquqiy madaniyatni oshirish: xavfsizlik bo‘yicha seminarlar, ommaviy tadbirlar va targ‘ibot kampaniyalarini tashkil etish orqali fuqarolarning huquqiy bilimini oshirish;
- ommaviy axborot vositalari orqali xavfsizlik masalalarini yoritish: jinoyatchilik, huquqbuzarlik va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus teleko‘rsatuvlar, ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibot materiallari va davlat idoralarining rasmiy hisobotlarini e’lon qilish.

Zamonaviy xavfsizlik muammolari murakkablashib borayotgan sharoitda har qanday davlat, jumladan O‘zbekiston Respublikasi ham, jamoat xavfsizligiga tahdidlarga nisbatan samarali va tezkor choralar ko‘rish tizimini ishlab chiqishi lozim. Huquqiy davlat tamoyillariga rioya qilgan holda jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun davlat institutlarining tezkor harakat qilish salohiyatini oshirish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash har qanday huquqiy davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, zamonaviy tahdidlarga samarali va tizimli ravishda javob qaytarish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Bugungi kunda terrorizm, ekstremizm, jinoyatchilik va boshqa xavfsizlik tahdidlari xalqaro va milliy miqyosda jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligiga tahdidlarni oldindan aniqlash, profilaktik chora-tadbirlar ko‘rish va tezkor javob berish maqsadida Tezkor harakat qilish markazlarini tashkil etish muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida belgilashi lozim.

Mazkur markazlarning faoliyati huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, xalqaro tajriba, zamonaviy texnologiyalar va huquqni muhofaza qilish idoralari o‘rtasidagi samarali hamkorlikni o‘z ichiga olishi kerak. Bu borada Milliy antiterror markazi va Hududiy tezkor xavfsizlik markazlari tashkil etilishi jamoat xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoat xavfsizligiga qarshi tahdidlarni samarali boshqarish uchun oldindan aniqlash tizimining mavjudligi muhim hisoblanadi. Zamonaviy xavfsizlik siyosati profilaktika va proaktiv chora-tadbirlarga asoslanishi lozim, ya’ni xavfli holatlar yuzaga kelishidan oldin ularni aniqlash va zarur choralarni amalga oshirish talab etiladi.

Bunda zamonaviy texnologiyalar va axborot tahlili tizimlaridan foydalanish asosiy o‘rin tutadi. Xususan, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) tahlili – texnologiyalar yordamida potensial xavfli shaxslar va guruhlarning harakatlarini tahlil qilish, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi radikallashish tendensiyalarini aniqlash imkonini bersa, jinoiy tendensiyalar va xavfsizlikka doir tahdidlarning geografik tahlili – jamoat xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlash uchun kriminalistik xaritalash texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi.

Shu bois, O‘zbekiston sharoitida **hududiy tezkor xavfsizlik markazlari** orqali xavfsizlik muammolarini mahalliy darajada monitoring qilish va joylardagi xavfsizlik masalalariga moslashuvchan yondashuv ishlab chiqish zarur.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В статье проведен сравнительный анализ концепции общественной безопасности в правовом государстве и ее принципов. Рассмотрены подходы различных юристов и политологов к вопросам безопасности, раскрыта их роль в контексте концепции правового государства. На основе взглядов таких ученых, как Макс Вебер, Джон Локк, Ханс Кельзен, Карл Шмитт, Сэмюэл Хантингтон, оценивается роль государства в обеспечении общественной безопасности. Также предлагаются правовые и институциональные меры по совершенствованию механизмов обеспечения общественной безопасности в Узбекистане.

Ключвые слова: Правовое государство, общественная безопасность, правовые принципы, политика безопасности, государственные полномочия, верховенство закона, чрезвычайные ситуации, демократические институты, права человека, институциональные реформы, стратегия безопасности, Национальная гвардия, международное сотрудничество, кибербезопасность, борьба с терроризмом.

Annotation. The article provides a comparative analysis of the concept of public security in a legal state and its principles. The approaches of various legal scholars and political scientists to security issues are examined, highlighting their significance within the framework of the legal state concept. Based on the views of scholars such as Max Weber, John Locke, Hans Kelsen, Carl Schmitt, and Samuel Huntington, the role of the state in ensuring public security is assessed. Additionally, legal and institutional proposals for improving public security mechanisms in Uzbekistan are presented.

Key words: Legal state, public security, legal principles, security policy, state authority, rule of law, emergency situations, democratic institutions, human rights, institutional reforms, security strategy, National Guard, international cooperation, cybersecurity, counterterrorism.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kelsen, H. (1945). General Theory of Law and State. Harvard University Press.
2. Locke, J. (1689). Two Treatises of Government. Cambridge University Press. // https://oll.libertyfund.org/titles/locke-the-works-of-john-locke-vol-4-economic-writings-and-two-treatises-of-government
3. Thomas L. Pangle. Montesquieu's Philosophy of Liberalism (A Commentary on The Spirit of the Laws) // https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/M/bo5951020.html
4. Chetverikov, V. A. (2008). Правовые основы общественной безопасности. Москва: Юристъ.
5. Schmitt, C. (2006). Political Theology: Four Chapters on the Concept of Sovereignty. University of Chicago Press. https:// https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/P/bo3649910.html#anchor-table-of-contents
6. Huntington, S. P. (1996). The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. Simon & Schuster. https://www.simonandschuster.com/books/The-Clash-of-Civilizations-and-the-Remaking-of-World-Order/Samuel-P-Huntington/9781451628975
7. Dworkin, R. (1988). Law's Empire. Harvard University Press. https://www.hup.harvard.edu/catalog.php?isbn=9780674518364
8. Raz, J. (2009). The Authority of Law: Essays on Law and Morality. Oxford University Press. https://global.oup.com/academic/product/the-authority-of-law-9780199573578?q=The%20Authority%20of%20Law:%20Essays%20on%20Law%20and%20Morality.&cc=uz&lang=en
9. Weber, M. (1919). Geistige arbeit als beruf, vier vortrage vor dem freistrudentischen bund. Munchen und Leipzig, Duncker & Humblot. https://archive.org/details/geistigearbeital00webe
10. Foucault, M. (1995). Discipline and Punish: The Birth of the Prison. Pantheon Books. https://www.penguinrandomhouse.com/books/55026/discipline-and-punish-by-michel-foucault-and-alan-sheridan/

OMMAVIY TADBIRLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

Iminov Abdujabbor Abduraxmon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi katta ofitseri, mustaqil izlanuvchi

Anottatsiya. Maqolada ommaviy tadbir xavfsizligini ta'minlashga doir so'ngi yillarda olib borilgan ilmiy nazariy qarashlar, ularning tahlili, mamlakatimizda ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha takliflar yoritildi.
Kalit so'zlar: ommaviy tadbir, xavfsizlik, boshqarish.

Bugungi kunda yurtimizda huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ko'plab ijobiy natijalarga erishishimizga qaramasdan bir qator o'z yechimini kutib turgan vazifalarimiz kamaygani yo'q, aksincha, zamon talabi bilan ularning ko'lami va miqyosi tobora kengayib bormoqda.

O'zbekistonda aholi soni yil sayin ko'payib borayotgani, iqtisodiy jozibadorligi oshib borayotganligi, mamlakatimizda xalqaro darajadagi sport tadbirlari, turli xil musiqa festivallari, iqtisodiy yarmarkalarning tashkil etish ko'payib borayotganligi ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya va Ichki ishlar bo'linmalarning oldiga xavfsizlik masalalarini hal etish uchun bir qator vazifalarni yuklaydi.

Dunyoning turli hududlarida yuz berayotgan noxush hodisalar, jumladan, qonli to'qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar, terrorizm, radikalizm, narkotrafikning tobora avj olayotgani tinchlik va barqarorlikka qanday tahdid tug'dirayotganligi hech birimizga sir emas.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu masalaga alohida to'xtalib: "Afsuski, oxirgi 15-20-yil davomida jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalariga noto'g'ri yondashuv tufayli bu muhim masala e'tiborimizdan chetda qolib keldi. Jumladan, Xavfsizlik kengashi ham bunga yetarlicha e'tibor bermaganini ochiq aytish kerak. ... Jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash bo'yicha o'quv mashqlari deyarli o'tkazilmagan" [1] - degan edilar.

Bugungi kunda ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda turlicha yondashuv va qarashlar mavjud bo'lib, ularni bir nechta guruhlarga tizimlashtirish mumkin.

Birinchi guruh olimlar qarashlarida ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish vaqtida ommaviy tadbirlar o'tkazish hududiga tashrif buyuruvchi olomonning harakatlarini boshqarish hamda ularni kuzatib borish xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali usuli sifatida qaraladi.

Koreyalik olimlar ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta'minlash uchun eng muhim omil "olomonni boshqarish" deb ta'kidlab, "olomonning boshqarilmasligi favqulodda tirbandlik va siqilishlarni paydo qilishi, bu esa tirbandlik va yuqori zichlik odamlarning tartibsiz harakatlanishiga, insonlarning halok bo'lishiga sabab bo'ladi" [2] deya qayd etganlar.

Haqiqatda, 2022-yil 29-oktabrda Koreyaning Seul shahrida bo'lib o'tgan "Itaevon falokati"da kritik zichlik sababli 300 nafardan ortiq inson halok bo'lishiga sabab bo'lgan.

Fikrimizcha, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda olomon zichligi muhim ahamiyat kasb etib, travmatologiya, psixologiya, sotsiologiya, muhandislik, informatika va dizayn kabi soha mutaxassislari olomonni boshqarishga kompleks yondashuvlarni ishlab chiqishi lozim.

Indoneziyalik olim C. Supriyantoning fikricha, ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda olomonni boshqarish eng samarali usul bo'lib, bunda quyidagi choralaridan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi. Jumladan, 1) kirish eshiklarini tartibga solish, 2) xavfsizlikni yaxshilash, 3) xavfsizlikni ta'minlovchi va tadbirni tashkillashtirib o'tkazuvchi qo'mitalar yig'ilishi, 4) obyektlarning tayyorligini baholash, 5) ma'lumotlarni tahlil qilish va 6) aniq ma'lumot berish, 7) futbol tadbirlari paytida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda odamlarni tarqatish va evakuatsiya qilish, 8) favqulodda vaziyatlar haqida xabardor qilish va 9) chiqish joylariga tarqalish jarayonini muvofiqlashtirish lozimligini qayd etadi [3]. Biz ushbu fikrlarga qo'shilamiz. Inson xulq-atvori, madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini kuzatish orqali olomonni nazorat qilish strategiyalari nafaqat samarali, balki turli hodisalar uchun ham moslashtirilishi mumkin.

J. Hunter esa ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlash uchun olomonni aqlli boshqarish strategiyasini 2 ta yo'nalishda nazariy asoslab,

ISSN 3030-3230

1) ommani boshqarish, – tashrif buyuruvchilar sonini, ommaviy tadbir o‘tkaziladigan hududni, tashrif buruvchilar harakatlanadigan yo‘laklar, unga qo‘yiladigan sun’iy to‘siqlar, yozuvli belgilar hamda yer belgilariga, olomoni favqulodda vaziyatlarni boshqarishga e’tibor qaratilishini, 2) olomonni nazorat qilishda esa ishtirokchilar uchun maxsus kirish va chiqish yo‘laklarini belgilash, yo‘nalishlar uchun aniq belgilarni o‘rnatishga, potensial tirbandlik kelib chiqishini oldini olishga e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlab o‘tadi [4].

AQShning “Xyuston universiteti” olimlari esa ommaviy tadbirlar vaqtida olomonni boshqarish orqali xavfsizlikni ta’minlashni ilgari surib [5], ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va o‘tkazish vaqtida olomonni boshqarish hamda xavfsiz olomonni yaratish har qanday tadbirni rejalashtirish jarayonining zarur va ajralmas qismidir. O‘tkazilayotgan tadbirlar vaqtida olomon xavfsizligini ta’minlash mamlakatlar xavfsizligini ta’minlash bo‘linmalarining qobiliyatini ham ifoda etadi. Ularning fikricha olomonni boshqarish va olomonni nazorat qilish - bu bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, ammo farqli tushunchalardir. Birinchisi, olomonni harakatlantirish, ishga jalb qilish va oqilona yo‘naltirishni o‘z ichiga oladi, ikkinchisi esa, olomon (yoki uning ayrim qismlari) tartibsiz yoki xavfli tarzda harakatlana boshlaganda amalga oshiriladigan choralarni o‘z ichiga oladi. Olomonni boshqarish jarayonlari tadbirni rejalashtirish, xodimlarni tayyorlash, ssenariylar yaratish va ma’lumotlarni to‘plashni o‘z ichiga oladi. Olomonni nazorat qilish texnikalari esa, muvaffaqiyatli uskunalar va ishchi kuchini yo‘naltirish uchun kerak bo‘ladigan holat modellari va qarorlar qabul qilish jarayonlarini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Boshqa bir guruh olimlar qarashlarida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish uchun tadbirni puxta rejalashtirish va tashkillashtirish tadbir xavfsizligini ta’minlashning garovi hisoblanadi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, parad oldidan tadbirni samarali rejalashtirishda maydonda tadbirni nazorat qilish uchun 1) statik ma’lumotlar ya’ni tayinlangan xodimlar soni, xavfsizlik va yaxshi ko‘rinish uchun tomoshabinlarni oldindan belgilangan stendlarga taqsimlash ko‘rsatkichlarini, 2) dinamik ya’ni mobil qurilmalardan real vaqt rejimida yuborilgan ma’lumotlarni jumladan maydondagi xodimlarni samarali taqsimlash, tomoshabinlarni samarali taqsimlash (menejerlarga tomoshabinlar soni to‘g‘risida ma’lumot beriladi va ko‘p sonli odamlarni norozilik bildirmasdan boshqa joyga ko‘chirishning maqsadga muvofiqligi darajasi ko‘rib chiqiladi) va karnaval paradida tomoshabinlar uchun yoqimsiz bo‘lgan guruh tezroq yoki sekinroq sur’atga ega bo‘lganida, guruhga yaqinlashganda yoki old tomonda turganda yuzaga keladigan tirbandlik va tiqilib qolish holatlarining oldini olish choralari ko‘rib chiqiladi [6]. Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib karnaval vaqtidagi guruhlarning harakat tezligi boshqariladi. Bu esa karnaval vaqtida olomonni boshqarishning o‘ziga xos usuli hisoblanadi.

T. Prenzlerning fikricha esa ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun tadbirlar davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘ngilsiz hodisalarga samarali xavfsizlik strategiyalarini puxta rejalashtirish va tashkil etish, xavflarni har tomonlama baholash, xavfsizlik skriningini yo‘lga qo‘yish, xavfsizlik xodimlari tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldini olish va keskinlikni kamaytirish hamda xavfsiz hududlarni yaratish orqali erishiladi. Bunda tadbir tashkilotchilari, politsiya va xususiy xavfsizlikni ta’minlovchi tashkilotlar o‘rtasidagi rasmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muvaffaqiyatli xavfsizlikni yaratishning asosi hisoblanadi [7].

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida video kuzatuv vositalari orqali olingan tasvirlarga ishlov beradigan, uni tahlil qiladigan dasturiy ta’minotlardan foydalangan holda xavfsizlikni ta’minlashga oid qarashlar hisoblanadi.

AQSh olimlari fikricha, ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va o‘tkazish vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun asosiy e’tiborni kompyuter texnologiyalari va video kuzatuv vositalaridan olingan tasvirlarni real vaqtda tahlil qilish va ushbu olingan tasvirlarga qarab olamon sonini tahlil qiladigan texnologiyalardan keng foydalanish lozimligini qayd etadi [8]. Insonni samarali boshqarish yig‘inlar kutilmagan hodisalar yoki ayanchli asoratlarning oldini olish, xavfsizlikni ta’minlash uchun faol choralarni talab qiladi va bu texnologiya yaxshi muvofiqlashtirilgan muhitdir.

Ularning qarashlari bo‘yicha olomonni kuzatish tizimlari 2 ga bo‘linadi:

– kompyuter vizyon (video tasvirlarni ko‘rish va kuzatish) tizimi. Bu tizimdan foydalanishda bevosita inson omili yani operator qatnashadi va video kuzatuv vositalari yordamida olingan tasvirlarni tahlil qiladi;

– ko‘rishga asoslangan bo‘lmagan texnologiyalarni o‘z ichiga olgan tizim. Bu tizim maxsus sensor ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan hududlarga o‘rnatilgan maxsus datchiklardan

kelgan ma'lumotlarni so'nggi texnologiyalarga asoslangan chuqur tahlil taqdim etish, ma'lumotlarni sun'iy intellekt (SI) algoritmlari va modellarini avtomatlashtirilgan tizimlarga ajratib, ularni tahrirlaydi hamda bo'lishi mumkin bo'lgan havf-xatarlarni oldindan bashorat qiladi.

Ushbu ikki olimning ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida olomon xavfsizligini ta'minlashga oid qarashlarini xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha innovatsion yechim bo'lishi bilan birga bu tizimlarning o'ziga yarasha kamchiliklar ham mavjud. Xavfsizlikni ta'minlovchi bo'linmalar ushbu tizimlardan foydalanishda ushbu afzallik va kamchiliklarni hisobga olgan holda foydalanishlari maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Hindistonlik J.M. Grant, P.J. Flynnlar esa ommaviy tadbirlar vaqtida olomon xavfsizligini ta'minlash uchun uni tahlil qilish kerakligini ta'kidlaydi. Ular olomon tahlilini ikkita keng sinfga, olomon xatti-harakatlarini tahlil qilish va olomonni hisoblashga bo'lganlar. Bular bir nechta kichik bo'limlarni o'z ichiga oladi. Olomon xatti-harakatlarini tahlil qilish to'rtta kichik bo'limga ega: g'ayritabiiy xatti-harakatlar tahlili, dominant [9] harakatni ajratish, olomonni tahlil qilish va kuzatish, guruh xatti-harakatlarini tahlil qilish. Ular dastlab individual sahnalarning xatti-harakatlarini aniqlashga e'tibor qaratganlar. Keyinchalik, ular olomon ichidagi guruh xatti-harakatlarini, olomonning harakatini hamda g'ayritabiiy hodisani aniqlashni tasvirlashadi. Boshqa tomondan, olomonni hisoblash oltita kichik bo'limni o'z ichiga oladi: zichlik xaritasi, qo'shma aniqlash va hisoblash, chiziqlarni hisoblash, tuzilish darajasidagi tahlil, obyekt darajasidagi tahlil va piksel darajasidagi tahlil. U birinchi navbatda individual sahnalarning xatti-harakatlarini aniqlashga qaratilgan. Keyinchalik, u olomon ichidagi guruh xatti-harakatlarini, olomonning harakatini va g'ayritabiiy hodisani aniqlashni tasvirlaydi. Boshqa tomondan, olomonni hisoblash oltita kichik bo'limni o'z ichiga oladi: zichlik xaritasi, qo'shma aniqlash va hisoblash, chiziqlarni hisoblash, tekstura darajasidagi tahlil, obyekt darajasidagi tahlil va piksel darajasidagi tahlil [10].

M. Bendali-Braham, J. Weber, G. Forestier, L. Idoumghar, P-A. Mullerlar esa ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta'minlash uchun kompyuter texnologiyalari va video kuzatuv vositalaridan olingan ma'lumotlar orqali olomonni tahlil qilish muhimligini ta'kidlab, olomonni tahlil qilish uchun yangi taksonomiyani taklif qilishadi. U ikkita tarmoqni, olomon xatti-harakatlarini tahlil qilish va olomon statistikasi [11] ni o'z ichiga oladi. Olomon statistikasi hozirda sahnadagi odamlar sonini aniqlaydi. U ikkita kichik tarmoqni, olomonni hisoblash va zichlikni baholashni o'z ichiga oladi. Olomon sahna tahlili olomonning xatti-harakatlarini aniqlash, harakatni kuzatish va bashorat qilish hamda olomon sahnasida inson xatti-harakatlarini tahlil qilish uchun guruh xatti-harakatlarini aniqlashga bo'linadi. Bundan tashqari, olomon faoliyati va harakat naqshlari video sahnalarida va olomon statistikasi uni ko'rish chizig'ini aniqlaganda tasvirlangan [12].

Xitoylik T.Li, H.Chang, M.Wang, B.Ni, R.Hong, S.Yanlar esa olomon dinamikasi konsepsiyasi nuqtai nazaridan olomon xatti-harakatlarini tahlil qilib, ko'rib chiqilgan tadqiqotlarni uchta sinfga ajratdilar: anomaliyalarni aniqlash, harakat namunasini segmentatsiyalash va xatti-harakatni aniqlashni qamrab oladi. Olomon anomaliyalarini aniqlash ikkita bo'limga, global anomaliyalarni aniqlash va mahalliy anomaliyalarni aniqlashga bo'lingan, ya'ni anomaliya qayerda sodir bo'ladi? Sahna anomaliya holatini o'z ichiga oladimi yoki yo'qmi? Olomon harakat namunasi segmentatsiyasi olomon sahnalari hududlaridagi harakat naqshlarini tahlil qiladi. Harakatlar klasteri yoki segment prinsipi asosida bir nechta usullar taklif qilingan. Masalan, oqimga asoslangan segmentatsiya, o'xshashlikka asoslangan klasterlash va ehtimollik modeliga asoslangan klasterlash [13].

G. Tripathi, K. Singh, D.K. Vishwakarmalar esa kompyuter dasturlari konvolyutsion neyron tarmoq(KNT)larga [14] e'tibor qaratib, olomon xatti-harakatlarini tahlil qilishni ilgari suradi [15].

Bir guruh qarashlarda ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida tadbir o'tkaziladigan hududga kirish-chiqish nuqtalarini tahlil va nazorat qilish orqali xavfsizlikni ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Sharma B., Mc Closkey va mualliflar jamoasining fikricha ommaviy tadbirlar vaqtida olomon xavfsizligini ta'minlash uchun eng asosiy e'tiborni ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan hududlardagi kirish-chiqish yo'laklariga qaratish lozim. Chunki "kirish va chiqish nuqtalari cheklangan tor ko'chalarda to'plangan ko'p sonli ishtirokchilar halokatli kombinatsiyani yaratadi. Odamlarning tuzoqqa tushib qolganligi, siqilganligi, harakatlana olmasligi yoki nafas ololmasligi vahimani kuchaytirib, olomonni tezda nazoratdan chiqib ketishiga olib keladi" [16]. Bu esa ommaviy tadbirlar vaqtida olomon

ISSN 3030-3230

o‘rtasida tartibsizliklar keltirib chiqaradi. Ularning fikricha, ommaviy tadbirlarni rejalashtirish va tashkillashtirish vaqtida tashrif buyuruvchilarning soniga yo‘lning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini mutanosibligini hisobga olish va tashrif buyuruvchilarning soniga aniqliklar kiritib olish, olomonning siqilib qolishi natijasida tartibsizliklar kelib chiqishining oldini olishning asosiy omili hisoblanadi.

Xitoylik olimlar olomon oqimini bashorat qilish uchun takomillashtirilgan yondashuvlarni taklif qildilar. Ularning maqsadlari shahar hududlarida kiruvchi va chiquvchi odamlar sonini hisoblash bo‘lgan. Yondashuvlar soddalashtirilgan chuqur fazoviy-vaqt qoldiq tarmog‘iga ega bo‘lgan fazoviy-zamoniy diqqat mexanizmiga asoslanadi. Birinchisi, olomon oqimining fazoviy bog‘liqligi haqida ma’lumot oladi va ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan hududlarni topadi. Ikkinchisi mashg‘ulot vaqtini qisqartiradi va shunga o‘xshash yondashuvlarga nisbatan eng yaxshi prognoz ko‘rsatkichlarini beradi [17].

Ommaviy tadbirlar vaqtida sun’iy intellektdan olingan ma’lumotlardan foydalangan holda xavfsizlikni ta’minlashga oid qarashlar ham mavjuddir.

Hindistonlik olim S. A. Rahane ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida xavfsizlikni ta’minlashda sun’iy intellektdan foydalanishni ilgari suradi. Uning fikricha hozirda video kuzatuv vositalari orqali olingan tasvirlardagi an’anaviy kuzatuv tizimlari ko‘pincha juda katta hajmdagi jonli ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bu esa ko‘ngilsiz hodisalarining oldini olish yoki yumshatish imkoniyatlarini cheklaydi. Hozirda ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun bunday dasturiy ta’minotlar yaratilgan. Ushbu dasturiy ta’minotlar ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun turli masalalarni hal qilish uchun mo‘ljallangan sun’iy intellekt yordamida olomonni kuzatish tizimini ishlab chiqish lozim [18].

Fikrimizcha ham, video tasmalarini tezkor tahlil qilish va real vaqtda ogohlantirishlarni taqdim etish orqali cheklovlar yengib o‘tiladi. Ilg‘or texnologiyalardan foydalanish kompyuterni ko‘rish va ma’lumotlarni o‘rganish algoritmlari, tizim noodatiy olomon xatti-harakatlarini aniqlay oladi, potentsial tahdidlarni aniqlash va real vaqtda vaziyatdan xabardor bo‘lishni ta’minlaydi. Tezlikni oshirish orqali va tahdidni aniqlashning aniqligi va sun’iy intellekt asosidagi yechim jamoat xavfsizligini kuchaytiradi hamda xavfsizlikni ta’minlovchi bo‘linmalarga yordam beradi. Shahar xavfsizligi va keng ko‘lamli tadbirlarni boshqarishning murakkabligi, olomonning ko‘payishi va ko‘tarilishi tufayli xavf-xatar ham mos ravishda o‘sdi. An’anaviy kuzatuv tizimlari hamma joyda mavjud bo‘lsa-da, ma’lumotlarni qayta ishlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, sabab, zamonaviy kuzatuv tarmoqlari tomonidan yaratilgan jonli ma’lumotlarning ulkan hajmi. Bu esa tizimlar ko‘pincha ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish qobiliyati, potentsial tahdidlarni aniqlash va ularga zudlik bilan javob berishni qiyinlashtiradi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun SI bilan ishlaydigan ilg‘or dasturiy ta’minotga ehtiyoj bor. Olomonning xatti- harakatlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, muammolarni aniqlash va tezkorlikni ta’minlashga qodir kuzatuv tizimi esa tahdidlar haqida ogohlantirishlar beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, ommaviy tadbirlarni xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi jarayonlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- tadbir rejalashtirilgandan to o‘tkazilib yakunlanguniga qadar bo‘lgan jarayonlarni o‘zida mujassamlashtiradigan yangi bir metodika ishlab chiqish;

- ushbu metodikaga asosan ommaviy tadbirga tashrif buyuruvchilarni boshqarish va nazorat qilishni yo‘lga qo‘yish;

- ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlovchi bo‘linmalardan tuziladigan kichik guruhlarni belgilab olish va ularni tadbirni o‘tkazishga bajaradigan vazifalaridan kelib chiqib tayyorlash.

Kelgusida yuqorida aytib o‘tilgan tadbirlar amalga oshirilsa bu ommaviy tadbirlar vaqtida xavfsizlikni ta’minlash uchun kompleks chora tadbir bo‘ladi.

Аннотация. В статье рассматриваются научно-теоретические взгляды на обеспечение безопасности массовых мероприятий за последние годы, их анализ, а также предложения по обеспечению безопасности при проведении массовых мероприятий в нашей стране.

Ключевые слова: массовых мероприятие, безопасность, управление.

Annotation. The article covers the scientific theoretical views on ensuring the safety of public events in recent years, their analysis, and proposals for ensuring safety during public events in our country.

Key words: public event, safety, management.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi.11.01.2018. https://president.uz/oz/lists/view/1419
2. A.H. Chang, J. Wang, A. Anandjiwala, E.B. Xsu. //A Crowd Disaster Study: The Itaewon Seoul Crush. // https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/
3. C. Supriyanto., Crowd Management Strategies Employed During A Football Match: A Case study. https://doi.org/
4. J. Hunter. Effective Crowd Management Tips for Safe and Successful Events. https://www.cvent.com/
5. J.L. Abbott, M.W. Geddie. // Event and venue manvenue man a gement: minimizing liability through effective crowd management techniques. //https://www.researchgate.net/publication/233695231
6. Z. Koukopoulos , D. Koukopoulos, J.J. Jung. Real-time crowd management for cultural heritage events: A case study on carnival parades. First published online June 21, 2018, Volume 10, Issue 3. https://doi.org/10.3233/AIS-180485
7. Tim Prenzler. Safe Events: Festivals, Sports, Protests. Chapter First Online: 24 July 2024. pp 109–126
8. M. Ameen, R. Stone. Advancements in crowd-monitoring system: a comprehensive analysis of systematic approaches and automation algorithms: state-of-the-art. International Journal of Network Security & Its Applications (IJNSA) Vol.15, No.3, May 2023 DOI: 10.5121/ijnsa.2023.15307 pag. 95-104.
9. Dominant — (fiziologiyada) har qanday tashqi va ichki ta’sirga organizmlarning muvaqqat javob reaksiyasini belgilovchi, o‘zaro bog‘langan nerv markazlarining ustuvor sistemasi. Dominant xatti-harakatlarni yo‘naltiruvchi sifatida bir qancha murakkab psixik hodisalarning fiziologik asosi hisoblanadi. https://uz.wikipedia.org/Dominant nima?
10. J.M. Grant, P.J. Flynn (2017) Crowd scene understanding from video: a survey. ACM Trans Multimed Comput Commun Appl 13(2):1–23
11. Statistika (lot. ctatus — boylik, davlat) — 1) turli hodisalar va jarayonlarni miqdoriy hisoblash, ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish yo‘li bilan ijtimoiy hayotning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadigan ijtimoiy fanlar tarmog‘i. https://uz.wikipedia.org/ Statistika nima?
12. M. Bendali-Braham, J. Weber, G. Forestier, L. Idoumghar, P-A. Muller (2021) Recent trends in crowd analysis: a review. Mach Learn Appl 4:100023
13. T. Li, H. Chang, M. Wang, B. Ni, R. Hong, S. Yan. (2014) Crowded scene analysis: a survey. IEEE Trans Circuits Syst Video Technol 25(3):367–386
14. Konvolyutsion neyron tarmoqlari - bu kirish ma’lumotlaridan xususiyatlarni ajratib olishga qodir bo’lgan konvolyutsion qatlamlar yordamida ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun ishlatiladigan neyron tarmoqlarning bir turi. https://www.google.com/. Konvolyutsion neyron tarmoqlar nima?
15. G. Tripathi, K. Singh, D.K. Vishwakarma. (2019) Convolutional neural networks for crowd behaviour analysis: a survey. Vis Comput 35(5):753–776
16. A. Sharma, B. Mc. Closkey and others. Global mass gathering events and deaths due to crowd surge, stampedes, crush and physical injuries – Lessons from the Seoul Halloween and other disasters. // https://pdf.sciencedirectassets.com/
17. G. Dai, X. Hu, Y. Ge, Z. Ning, Y. Liu. (2021) Attention based simplifed deep residual network for citywide crowd fows prediction. Front Comput Sci 15(2):1–12
18. S. A. Rahane. AI-Driven Crowd Surveillance for Real-Time Threat Detection in Urban Security. Volume 12 Issue 5 @ September - October 2024 IJIRMPS | ISSN: 2349-7300. Pag 456-461

ISSN 3030-3230

XORIJIY DAVLATLAR METROPOLITENLARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Islombekov Bexzodbek Islombekovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Anottatsiya. Maqolada dunyoning rivojlangan davlatlari metropolitenlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning mamlakat ichki imkoniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va an'anaviy rivojlanish usullari, ma'muriy tuzilishidan kelib chiquvchi tajribalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: politsiya, "Vijipirat" rejasi loyihasi, konstebel, "Aum Sinrikyo", videokuzatuv vositalari, sun'iy intellekt, metallodetektorlar.

Harbiy faoliyatni tashkil etishning samaradorligi hamda davomiyligini ta’minlovchi muhim jihatlardan biri harbiy shaxsining psixologik moslashuvchanlik xususiyati hisoblanadi. Zero, harbiy faoliyatga moslashuvchanlikning o‘ziga xosligi murakkab bo‘lib, o‘lim xavfi yuqori hamda kuchli, mustahkam jangovar shaylikni talab etadi. Ma’lumki, psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda “adaptatsiya” (lot. adaptare – “moslashish”) – obyektni tashqi muhit o‘zgarishlari ta’sirida o‘zining yaxlitligini saqlab qolish qobiliyati” [1] deb, tushuntiriladi. Ayrim manbalarda esa, “adaptatsiya” organizmning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish jarayonidir [17] deb, izohlanadi. Aslida, “adaptatsiya” psixologiyaga fiziologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlar doirasida talqin etilgan ilmiy-eksperimental natijalar asosida kirib kelgan.

“Adaptatsiya” ya’ni, moslashish psixofiziologiyaga oid manbalarda “stress”ni o‘rganishga qaratilgan psixologik hamda fiziologik eksperimenitlarning predmeti bo‘lib hisoblangan. Shuningdek, shaxs psixologiyasiga oid ayrim tadqiqotlarda odamni ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi stress bardoshlilikning sinonimi sifatida ham talqin etiladi. Jumladan, “dinamik adaptatsiya”da tashqi stimullar (qo‘zg‘atuvchilar) ta’sirida yangi motivlarni shakllanishi hamda reaksiya (ichki qo‘zg‘alish)ni yuzaga kelishi shaxs xarakter xususiyatlarida o‘zgarishlarni namoyon etishi aniqlangan [2]. Psixologik moslashuvchanlik fiziologik adaptatsiyani osonlashtirib, tashqi muhitda psixologik komfortni yuzaga keltirishning mexanizmi sifatida ishtirok etadi va bu harbiy xizmatchi xizmat faoliyati samaradorligini ta’minlaydi. Harbiy xizmat faoliyatidagi “dinamik adaptatsiya” esa, harbiy xizmatchilarning psixologik moslashuvchanlik darajasini obyektiv baholash, psixik barqarorlikni ta’minlash, motivlarni shakllanishiga hamda shaxslararo munosabatlarda ijobiy emotsional komfort kabi qator psixologik muammolarni yechishning harakatdagi, o‘sib, o‘zgarib turuvchi omili hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Harbiy xizmatchi shaxsida psixologik moslashuvchanlik muammosi doirasida butun dunyoda bugungi kunda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilib, bu masala o‘ta muhim ekanligini kuzatilmoqda. Jumladan, xorijiy tadqiqotlarda harbiy xizmatchilarni rotatsiya bilan bog‘liq tashqi muhitga moslashish jarayoni tadqiq etilganda aynan xizmat faoliyati bilan bog‘liq rotatsiya davrida harbiy xizmatchilarda psixik salomatlik bilan bog‘liq ayrim muammolar yuzaga chiqib, ularda agressiv va ichki kuchli norozilikni yuzaga kelishini va bu harbiy shaxsidagi individual-psixologik xususiyatlarni dinamik shaklda o‘zgarishini ko‘rsatadi. Olingan tadqiqotlarning tavsiflovchi statistik ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘pchilik harbiy xizmatchilar yangi muhitga moslashishda xizmatdan bo‘sh vaqtini o‘zi qiziqqan mashg‘ulot turi bilan shug‘ullanib, zo‘riqishlarni yengishga harakat qiladi. Ayrim harbiy xizmatchilar esa, bunday og‘ir vaziyatda marixuanna chekish, ta’qiqlangan giyohvand moddalarni iste’mol qilish, kashandalik va spirtli ichimliklarga mukkasidan ketish natijasida “gallyusinatsiyalar”ni boshdan kechirishi natijasida suitsidga urinishlarni keltirib chiqaradi. Sport bilan shug‘ullanish orqali “moslashuvchanlik

ISSN 3030-3230

immuniteti"ni o'zida rivojlantirgan harbiy xizmatchilarda depressiya va stressga berilish darajasi o'ta past bo'lib, nosog'lom fikrlarga berilmaslik, psixik barqarorlikning yuqori ekanligi kuzatilgan. Og'ir vaziyatlarda tushkunlikni kuchli namoyon bo'lishi ikkinchi guruh harbiy xizmatchilarida "addiktiv xulq" shakllanishiga hamda uning darajalari vaziyatga ko'ra turlicha tus olishi mumkinligi bilan xavflilik darajasini saqlab qolgan [3].

Demak, bugun dunyoda sodir bo'layotgan harbiy harakatlarni o'rganish harbiy xizmatchilarning psixologik moslashuvchanlik muammosiga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Harbiy xizmatchilarning psixologik moslashuvchanlik darajasi va unga ta'sir etadigan tashqi omillar turlicha bo'lishi mumkin. Xususan, bular ijtimoiy-psixologik, ekologik, atrof-muhit ta'siri, jamoadagi emotsional komfort, ijtimoiy ta'minot, komandir(boshliq)larning boshqaruv usullari, taqsimotdagi adolat ya'ni, obyektiv hamda subyektiv darajadagi me'yor hamda mezonlarni kiritishimiz mumkin. Harbiy shaxsining psixofiziologik moslashuvchanlik xususiyati tashqi omillar – stimullarni qanday qabul qilish va natijada yuzaga keladigan reaksiyalarni oraliq ya'ni, latent davriga bog'liq bo'ladi. Stimul va reaksiya oralig'idagi "oraliq ko'nikma" harbiy shaxsida har qanday kayfiyatdagi motiv shakllanishiga, xulq-atvor o'zgarishlari, kasbiy deformatsiya va psixologik bosimga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xususan, g'arbda olib borilgan tadqiqotlarda kasbiy moslashuvchanlikni o'rganishda, noodatiy iqlimga ega mintaqalarda harbiy xizmatchilar tomonidan olib borilgan yer usti operatsiyalarida maqsadga yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlik bosqichma-bosqich iqlimga moslashtirishni taqozo etganligi kuzatilgan[4]. Bunda 1990 yildan beri oltita global iqlim tadqiqotini o'tkazgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim bo'yicha IPCC tashkiloti hisobotlariga ko'ra,

1. Oxirgi o'n yil so'nggi 125 ming yil ichida eng issiq yil bo'lganligi;

2. Atmosferaga chiqarilgan issiqxona gazlari XIX asrga nisbatan o'rtacha haroratni 1,5 ° C ga ko'tarishi mumkinligi, hozirgacha esa 1,1 ° C ga oshganligi;

3. Global isishni davom etishi qurg'oqchilik va suv toshqini, sovuq va issiq o'rtasida yanada jiddiy "burilish" bilan kechishi kuzatilganligi asosiy sabab hisoblanadi[18].

Harbiy xizmatchilarning noqulay va noodatiy iqlim sharoitlariga moslashish muammosini tarixiy o'rganilishi, nafaqat harbiy xizmatchilar uchun balki, aholining keng qatlamiga ham tatbiq etilishi mumkin bo'lgan mexanizm va strategiyalarni anglash imkonini beradi [5]. Aynan, harbiy xizmatchilarning iqlimga «moslashuvchanlik konsepsiyasi» britaniyalik taniqli harbiy-dengiz ofitseri va tadqiqotchi J.Lind tomonidan yaratilgan bo'lib, mazkur tadqiqotda harbiy xizmatchilarning alohida guruh sifatida issiq haroratli iqlimga moslashuvchanligi to'g'risida olingan natijalar aholining boshqa qatlamlari qatori, harbiy xizmatchilar faoliyati uchun ham foydali hisoblangan[6]. Harbiy xizmatchilarning anomal issiq iqlim sharoitlariga moslashuvchanligini yetarli daraja emasligi fiziologik jarayonlarda issiq urishi natijasida turli kasalliklarni yuzaga kelishi, hattoki inson o'limiga olib kelishi kuzatilgan [7].

RTO Humans ma'lumotlariga ko'ra esa, "2009-2013 yillarda Yaqin Sharqqa harbiy harakatlarga jalb etilgan Britaniya harbiy xizmatchilari orasida issiq urishi bilan bog'liq holatlar asosan issiq havo vaqtida jismoniy yuklamani berilishi oqibatida kelib chiqqanligi aniqlangan. 2003-yilda Iroqda jangovar harakatlarga jalb etilgan Britaniya harbiy xizmatchilari dastlabki 6 oy davomida issiq urishi bilan bog'liq 849 ta holat qayd etilgan. Ularning 766 nafari gospitalga yuborilib, 161 nafari aviatsiya orqali Birlashgan Qirollikka qaytarib yuborilgan"[8].

Harbiy xizmatchilarning issiq iqlimga moslashuvchanligi bilan bog'liq o'lim holatlari haqidagi ma'lumotlar, 1947-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining kontinental qismiga yangi qabul qilingan askarlar o'rtasida qayd etilgan bo'lib, issiq urishi oqibatlari tahlil etilganda 157 ta o'lim holatining 80 foizida saf tayyorgarligi, qorovullik xizmati, qisqa masofali marsh vaqtida, 14 foizi esa, og'ir jismoniy yuklamalar oqibatida vafot etganligi aniqlangan [9]. 2011-2013 yillarda Afg'onistonda ham AQSH harbiylari orasida issiq urishi bilan shifoxonaga murojaat etganlar yuqumli kasalliklar bilan kasallanganlardan keyingi o'rinni tashkil etgan[10].

Havoni anomal isib borishi global darajada muammolarni keltirib chiqarishi bilan birga harbiy xizmat faoliyatida issiq iqlim sharoitiga moslashuvchanlik xavfni boshqarishning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u ikkita asosiy maqsadga xizmat qiladi:

Birinchisi, issiq urishi bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish;

Ikkinchisi, jismoniy mehnatga layoqatni va aqliy faoliyatni oshirish [11].

Ko‘plab tadqiqotlarning tahlillariga ko‘ra:

1. Alkogol;
2. Dori vositalari (jumladan, psixotrop, giyohvandlik);
3. Tutqanoq kasalliklari, ich ketishi;
4. Uyqu yetishmasligi;
5. Quyoshdan kuyish;
6. Semizlik;
7. Suvsizlanish;
8. Ichki omillar, tana harorati va atrof-muhitning namlik darajasi issiq urishiga potensial xavf omili hisoblanadi [12].

Aynan harbiy xizmat faoliyatida issiq urishi bilan bog‘liq xavf guruhiga:

1) zaxiradagilar;
2) 30 yoshdan oshganlar;
3) past darajadagi jismoniy tayyorgarlikda;
4) iqlimga moslashuvchanlik yetarli bo‘lmaganda;
5) terida turli chandiqlar bo‘lganda [13].

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, jismoniy yuklama bilan bog‘liq bo‘lgan uzoq muddatli stresslarga qarshi adaptatsiya organizmni tog‘-cho‘l hududiga joylashish yoki issiq iqlimga yengil ya’ni, ish qobiliyatini saqlagan holda tez moslashadi [14]. Bu G.Selye psixofiziologik eksperimentlarida o‘z tasdig‘ini topgan “adaptatsiya sindromi”ni yuzaga keltiradi. V.A.Koritkovning “professional adaptatsiya” tushunchasini izohlab, aynan harbiy shaxsi kasbida amaliy, nazariy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish orqali kasbiy faoliyatni o‘zlashtirish, shaxsga o‘z funksional vazifalarini yetarlicha yuqori sifat darajasida bajarishga imkon beradigan yetarli miqdordagi va sifatli bilimlarni olish jarayonidir” [15]. Professional adaptatsiya aynan harbiy xizmat jarayonida harbiy xizmatchining professional faoliyatga moslashish davrini o‘z ichiga oladi.

Harbiy xizmatga moslashuvchanlikning psixologik faolligiga ta’sir etadigan bir nechta omillar o‘rganilib, A.A.Rean tomonidan moslashuvchanlikning turlari sifatida taklif etiladi. Uning fikricha, moslashuvchanlik “aktiv – passiv” yoki “faol-nofaol” mezonlari bilan farqlanmaydi va har qanday moslashish jarayoni psixikaning faol namoyon bo‘lishi deb hisoblaydi [16].

Fikrimizcha, professional moslashuvchanlik jarayonini ikki xil “obyektiv va subyektiv” yondashuv asosida tushuntirish maqsadga muvofiq.

a) obyektiv (tashqi):

harbiy xizmat qiyinchiliklari;

uydan, oiladan va ko‘nikkan muhitdan uzoqlashish;

xizmatdagi omadsizlik ayniqsa, xizmatdoshlar o‘rtasidagi nizolar;

qo‘pol va hurmatsiz munosabat;

me’yoridan ortiq talabchanlik, adolatsizlik;

buyruq ohangidagi ko‘rsatmalar berish va o‘z ustunligini ro‘kach qilish.

b) subyektiv (harbiy xizmatchining o‘ziga xos, individual):

bilimning yetarli emasligi;

milliy o‘ziga xoslik, boshqa millatga behurmatlik;

oilali va farzandli ekanligi;

qarovga muhtoj ota-onasining borligi;

harbiy xizmatga kech chaqiruv;

notinch, noto‘liq oilalarda yoki mehribonlik uyida tarbiyalanganlik;

axloqiy buzuqlik;

jismoniy zaiflik;

sog‘lig‘idagi muammolar;

beqaror psixika va boshqalar.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, harbiy shaxsidagi individual-psixologik xususiyatlarining o‘zgarishi, kasbiy adaptatsiya va xizmat faoliyatidagi rotatsiyada psixik salomatlik hamda iqlim o‘zgarishlari orqali tashqi muhitga moslashuvchanlik immunitetini rivojlantirish mumkin bo‘lar ekan. Kasbiy deformatsiyalarning yuzaga kelishi natijasida “surunkali charchoq”, “xizmatdan so‘nish”, “emotsional portlash” kabi psixoemotsional holatlar harbiy shaxsining psixologik moslashuvchanlikka jismoniy tayyorgarligi, o‘zini o‘zi psixik boshqarishni tashkil etish ko‘nikmalarining shakllanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Harbiy xizmatda psixologik moslashuvchanlik tashqi va ichki omillar ta’sirida dinamik xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy muhit asosiy ta’sir obyekti sifatida xizmat qilishi ko‘proq kuzatilishi mumkin.

Harbiy xizmatchi shaxsida rotatsiya bilan bog‘liq kasbiy deformatsiyalarni, emotsional so‘nishni passivlashtirish muammosi psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish va joriy etishning zaruratini yuzaga keltiradi. Harbiy xizmatchidagi psixologik bosim, emotsional so‘nishda psixik o‘zini o‘zi boshqarishni intraspektiv amalga oshirishni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Zero, shaxsdagi tashqi muhit bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatdagi deformatsiyalar o‘zini o‘zi tushunish, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi ichki tahlil qilishning psixologik mezonlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ISSN 3030-3230

Аннотация. В данной статье с научной и практической точки зрения анализируется проявление социальной среды как динамического фактора психологической адаптированности военнослужащих к служебной деятельности. Изучены научные исследования, посвященные проблеме психологической гибкости личности военнослужащего.

Ключевые слова: личность военнослужащего, динамичность адаптации, эмоциональный стресс, акцентуатция характера, суицидальное поведение, аддиктивное поведение, галлюцинация, профессиональное выгорание, профессиональное деформация, эмоциональный взрыв.

Abstract. This article analyzes the manifestation of the social environment as a dynamic factor in the psychological adaptation of military personnel to service activities from a scientific and practical point of view. Scientific research devoted to the problem of psychological flexibility of a military personnel's personality is studied.

Keywords: military personnel, adaptation, stress, character, suicide, addictive behavior, hallucination, professional burnout, deformation, emotional outburst.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Головин С.Ю. Словарь практического психолога. Минск.: ХАРВЕСТ. 1998. – С. 14.
2. Психология. Словарь/Под.ред. А.В.Петровского, М.Г.Ярошевского. М.: 1990. – 174 с.
3. Jessica Kelley Morgan 1, Laurel Hourani 1, Stephen Tueller 1Health-Related Coping Behaviors and Mental Health in Military Personnel PMID: 28290934 DOI: 10.7205/MILMED-D-16-00165 2017 Association of Military Surgeons of the U.S. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28290934/
4. Мировой MJ, Стенд TC (2008). Ирак: экологический вызов сухопутным войскам Ее Величества. Клин. Мед. 8 399–403. 10.7861/clinmedicine.8-4-399; Кокс А.Т., Лентен Дж., Уайт С., Бернс Д.С., Парсонс И., О'Ши М. и др. (2016a). Двухлетний обзор госпитализаций по общему лечению внутренних болезней в британскую больницу № 3 в Кэмпбастионе, Афганистан. JR Армейский Мед. Корпус 162 56–62. 10.1136/jramc-2014-000385 (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).
5. Конн Дж.В. (1963). Альдостеронизм у человека. Некоторые клинико-климатологические аспекты. I. JAMA 183 775–781. (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).
6. Линд Дж. (1771). Очерк о болезнях, свойственных европейцам в жарком климате. https://scholar.google. com/scholar (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).
7. Абриат А., Броссе К., Брегижон М., Саги Э., Брегижон М., Саги Э. (2014). Отчет о 182 случаях теплового удара при физической нагрузке во французских вооруженных силах. Мил. Мед. 179 309–314. 10.7205/MILMED-D-13-00315 (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).
8. Брикнелл М. (2003). « Профилактика тепловых заболеваний в Ираке » в материалах RTO Hum. Факторы Мед. Спецификация панели. Встретиться. Бостон, США HFM НАТО , Бостон, Массачусетс. (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).
9. Шикеле Э. (1947). Окружающая среда и смертельный тепловой удар; анализ 157 случаев, произошедших в армии США во время Второй мировой войны. Мил. Хирург. 100 235–256. 10.1093/milmed/100.3.235 (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).
10. Кокс А.Т., Лентен Дж., Уайт С., Бернс Д.С., Парсонс И., О'Ши М. и др. (2016a). Двухлетний обзор госпитализаций по общему лечению внутренних болезней в британскую больницу № 3 в Кэмпбастионе, Афганистан. JR Армейский Мед. Корпус 162 56–62. 10.1136/jramc-2014-000385 (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).
11. Чунг С.С., Ли Дж.К.В., Окса Дж. (2016). Термический стресс, работоспособность человека и стандарты физической занятости. Прил. Физиол. Нутр. Метаб. 41 С148–С164. 10.1139/apnm-2015-0518. (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).

12. Иэн Т. Парсонс, Майкл Дж. Стейси, Дэвид Р. Вудс Тепловая адаптация военнослужащих: снижение риска, повышение эффективности // https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6928107/ (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).

13. Тейлор НАН (2014). Тепловая адаптация человека. Компр. Физиол. 4 325–365. 10.1002/cphy.c130022 (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).

14. Исламов В.А., Дмитриев Г.Г., Бозга К.А.Цыганков Р.А. Закономерности адаптации военнослужащих к экстремальным условиям природной среды // https://elibrary.ru/download/elibrary_25610935_75073068.pdf

15. Корытков В. А. Педагогическое обеспечение профессиональной адаптации военнослужащих по призыву в частях противовоздушной обороны Вооруженных сил России. / диссертация на соискание степени к. п.н.– Новосибирск, 2013. URL: https://moluch.ru/conf/psy/archive/157/6623/ (дата обращения: 23.10.2022).

16. А.А.Реан Психология адаптации личности: анализ, теория, практика / А. А. Реан, А. А. Баранов, А. Р. Кудашев. – М.: Прайм-Еврознак, 2006. – 479 с.

17. https://www.psychologies.ru/glossary/01/adaptatsiya/ (дата обращения: 23.10.2022).

18. Глобал исиш жадал давом этмоқда ва унинг сабаби шубҳасиз — инсон // https://yuz.uz/news/global-isish-jadal-davom-etmoqda-va-uning-sababi-shubhasiz--inson (10.03.2024 й. ҳолатига кўра мурожаат қилинган).

ISSN 3030-3230

JADIDLARNING HARBIY ISLOHOTLARGA DOIR TAKLIFLARINING HUQUQIY HUJJATLARDA AKS ETISHI

Mirzajonov G‘ayrat Tayirjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada jadid mutafakkirlarning ozodlik va milliy mustaqillik haqidagi qarashlari, Turkistondagi harbiy qurilish va milliy armiya masalalariga munosabatlari, ularning davlat mustaqilligiga, harbiy qurilishni amalga oshirmay va qudratli armiyaga ega bo‘lmasdan turib erishib bo‘lmasligi haqidagi fikr-mulohazalari keng yoritilgan. Shuningdek, taraqqiyparvar jadidlarning harbiy qurilish sohasidagi islohotlarni amalga oshirishga doir takliflari siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlarida aks ettirilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadid, jadidchilik, harbiy, askar, qo‘shin, qo‘shin tuzilishi, Qurolli Kuchlar, milliy qo‘shin, milliy armiya, milliy-ozodlik harakati, dastur, siyosiy partiyalar, davlat tuzumi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va boshqa sohalarida katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, ilm-fan sohasida samarali ishlar olib borildi, shu qatorda tarix faniga ham alohida e’tibor qaratildi. Xususan, mustaqillik yillarida kommunistik mafkura ta’sirida soxtalashtirilgan o‘zbek davlatchiligi tarixini qayta o‘rganish, unga xolis baho berish imkoniyati yaratildi.

Mustaqillik tufayli buyuk jadid mutafakkirlarining ilmiy, ijodiy, g‘oyaviy, ijtimoiy-siyosiy merosini chuqur o‘rganish, mazmun-mohiyatini xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy mulkiga aylantirish, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, harbiy sohaga doir qarashlari hamda g‘oyalarini tadqiq va targ‘ib qilish, istiqlol qadriyatlariga uyg‘un milliy davlatchilik siyosatiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5598-son Farmoyishining e’lon qilinishi bejizga emas. Bu bilan jadidlardan bizga meros bo‘lib qolgan noyob asarlarini o‘rganib, jamiyatni yuksaltirishda ularning tajribasiga tayanish va g‘oyalarini bugungi kunga tatbiq qilishdan iborat [1].

Ta’kidlash joizki, ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini o‘rganish, nafaqat yurtimiz olimlari, balki qo‘shni davlatlar va yetakchi xorijiy davlatlarning tarixchi olimlari tomonidan keng o‘rganilmoqda. Buning misoli sifatida 2023-yil 11-dekabrda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o‘tkazilishi, unda ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosini xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu xalqaro konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning konferensiya ishtirokchilariga tabrigida ta’kidlaganidek, “… taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg‘or g‘oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganish, XX-asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq masalalar bugungi konferensiyaning asosiy muhokama mavzulari etib belgilangani alohida ahamiyatga ega” [2]. Ayniqsa, “Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosini tadqiq etish” [3] dolzarb vazifalardandir.

Jadid mutafakkirlarning ozodlik va milliy mustaqillik haqidagi qarashlarini ifodalab, tarixchi olim H.Ziyoyev shunday fikrlarni yozadi: “Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini tiklash his-tuyg‘ulari ham jadidlar yetakchiligida jamiyatdagi barcha tabaqalarni ozodlik kurashiga chorladi. Jadidlar sharoit taqozosiga ko‘ra, birinchi navbatda, xalqning savodini chiqarish, bilimini oshirish, milliy his-tuyg‘ularni va siyosiy ongni o‘stirish uchun kurashdilar. Boshqacharoq aytganda, ular faoliyatining dastlabki bosqichida

ma'rifatparvarlik salmoqli o'rinni egalladi. Ammo, bu ularda siyosiy g'oyalar va maqsadlar yo'q edi deyish emas, albatta. Aksincha, siyosiy qarashlar mavjud edi. 1917-yilda Rossiyada Romanovlar sulolasi ag'darilib, siyosiy kurashga imkon tug'ilishi bilanoq jadidlar, Turkiston mustaqilligi uchun siyosiy kurash boshladilar" [4, 22].

Taraqqiyparvar jadidlar davlat mustaqilligiga harbiy qurilishni amalga oshirmay, qudratli armiyaga ega bo'lmasdan turib erishish mumkin emasligini teran anglab yetgandilar. Shu boisdan ular harbiy qurilish va milliy armiya masalalariga alohida diqqat-e'tiborni qaratdilar. Jadidlar har bir mamlakat o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi uchun zamonaviy texnika bilan qurollangan, har tomonlama puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan armiyasi bo'lishi zarurligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surdilar va bu borada katta kuch-g'ayrat sarfladilar.

Taraqqiyparvar jadidlardan Abdurauf Fitrat harbiy va mudofaa masalasi yuzasidan, Buxoro amirligi davlatida sarbozlik, ya'ni askarlik xizmatini, mamlakat harbiy mudofaa ishlarini chuqur o'rganib, tahlil qilar ekan, uning ta'kidlashicha, Amir askarlari Vatanni himoya qilish sharafli burch ekanligini bilmaydilar. Vatan bizning valine'matimizdir, valine'matga xizmat qilish burchdui, bas, Vatanga xizmat burchdir [5, 195]. Fitratning mazkur fikri – "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar" [6] deb belgilab qo'yilgan Konstitutsiyamizning 64-moddasi bilan hamohang va g'oyaviy nuqtai-nazardan mushtarakdir.

Abdurauf Fitrat amirlikdagi sarbozlar faoliyatini tanqid qila turib, ularning nima sababdan jinoiy hatti-harakatlari bilan shug'ullanishga majbur bo'lishlarini aniq dalillar asosida ochib berdi. Buning ikki sababini ma'lum qiladi: birinchidan, sarbozlikka olinishidan oldin bu kishi oyning birinchi yarmida hammollik qilib, har kuni o'rtacha o'n besh tangadan, ya'ni yuz ellik tangani qo'lga kiritar va oyning qolgan yarmini farog'at bilan o'tkazar edi. Sarboz bo'lgandan keyin esa oyiga yigirma tanga oladi va boshqa ish qilolmaydi; Ikkinchidan, u avval o'g'irlik qilmas, chunki sarbozlardan qo'rqar edi. Endi u sarboz bo'lgach, uning uchun o'g'irlikdan ustun va manfaatli kasb yo'qdir [7, 121]. Bu, sarkarda va yuzboshilarning g'ayriqonuniy hatti-harakatlarining mudhish oqibatidir.

Abdurauf Fitrat harbiy qurilish va milliy armiya masalasiga alohida e'tibor qaratib, shuni ta'kidlaydiki, qo'shinning qurol-aslahasi shamshir va egri kamondan iborat bo'lmasligi kerak [8, 88]. Davlat o'z qurolli kuchlarini zamonaviy qurollar bilan ta'minlashi shart. Bu, davlat va fuqarolar xavfsizligini tashkil etishda-Vatan sarhadlarini, xalq tinchligi va farovonligini himoya qilish, ularning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbir va rejalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatni mustaqil mamlakat sifatida e'tirof etish uchun sabab bo'ladigan davlat belgilaridan biri – uning milliy armiyasi ekanligini, milliy askar tashkil etmasdan turib milliy davlat tuzib bo'lmasligini, shubhasiz chuqur anglagan.

Fitrat askarlarning tarkibi o'g'ri va qotillardan [7, 121], yetmish yashar mafluk (jabr ko'rgan) sarbozlardan [8, 88] iborat bo'lgan – Amir armiyasini tanqid qiladi. Xalq madadiga tayanadigan, yagona qo'mondonlik boshchilik qiladigan Milliy Armiyaga ega bo'lmasdan turib, Vatan osoyishtaligi va fuqaro tinchligini ta'minlab bo'lmaydi, deb uqtiradi. Mamlakat mudofaasini tashkil etish va amalga oshirishda oliy hukmdor javobgardir, deydi. Davlat mudofaasi – mamlakat hududi, fuqarolar manfaatlari himoya qilinishi, ularning tinch hayot kechirishini ta'minlashi, vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarning oldini olishi va chetdan qilinadigan harbiy hujumga qarshi har qanday sharoitda qurolli himoyalanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat bo'lmog'i kerak, deb ko'rsatgan edi Fitrat.

Rivojlangan davlatlar - mamlakat mudofaasi uchun o'z harbiy askarlar, olovli harbiy qurollari to'p, miltiq, dinamit, bomba kabi zamonaviy harbiy qurollariga va askarlarini safarbar etish uchun esa kema va bronepoyezdlarga egadirlar. Musulmon davlatlari ham o'zlarining yangi harbiy qurollariga ega bo'lishlari shart, zero bulardan tashqari mudofaa bo'lmaydi" [8, 91], - deb uqtiradi.

Mamlakat mudofaa qobiliyatining muhim tarkibiy qismi bu – davlat va fuqaro xavfsizligini mustaqil ravishda himoya qilishga qodir bo'lgan, har qanday vaziyatda dushmanga munosib zarba bera olish qudratiga ega bo'lgan uning Quroli Kuchlaridir, deb ko'rsatadi Fitrat, - davlat o'zining nomuntazam askarini tayoq, pichoq, xanjar, egri

ISSN 3030-3230

shamshir va eski kamon bilan qurollantirmasligi, ot-aravalarda yo‘lga chiqib, ular hech qanday qarshiliksiz dushmanga mag‘lub bo‘lmasligi kerak [8, 92].

Harbiy jihatdan puxta tayyorgarlikka ega bo‘lgan, tashqaridan yuz berishi mumkin bo‘lgan hujumga qarshi kuch ishlatishga tayyor holda turgan, zamonaviy qurollar bilan ta’minlangan Qurolli Kuchlar – davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Taraqqiy topgan davlatlar o‘z mudofaasi uchun, shon-shavkatini himoya qilishi, shuhratining ortishi, mulkining ta’mini va xalqining tinchligi uchun zamonaviy qurollar ishlab chiqarganlar. Musulmon mamlakatlarining Quroli Kuchlari ham, har tomonlama zamon talablariga javob beradigan harbiy qurollar bilan ta’minlashlari kerak [9, 230].

Abdurauf Fitrat harbiy ilm va mashqlarni puxta, mukammal egallagan, haqiqiy jangovarlik qobiliyatiga ega bo‘lgan askargina o‘z Vatani va xalqini himoya qila olish kuchi va qudratiga ega bo‘la oladi, deb uqtiradi. “Nasroniylarning eng kichik amirlari ham bir lak doimiy sarbozga ega bo‘lgan bir paytda, biz o‘ng ming o‘g‘rini atrofimizga to‘plab, bolalarimizning o‘yinchog‘i qilib qo‘yganmiz” [8, 97], - deya qattiq norozilik bildiradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, 1918-yilda Abdurauf Fitrat tomonidan ishlab chiqilgan Dastur loyihasida harbiy xizmatchilar va milliy armiya masalalariga juda katta ahamiyat berilgan [10, 16]. Dastur loyihasining asosiy moddalaridan o‘rin olgan harbiy masalalarning mazmuni quyidagilardan iboratligini bildirib, “... birinchi navbatda loyiha askarning sonini orttirish masalasiga to‘xtaydir. Rossiyaning bugungi hukumati bilan tuzilgan mushohadaga binoan Buxoroning askari 12 mingdan iborat bo‘lsa kerak edi, lekin amir shu mushohadadan foydalana bilmadi. Askarni tuzishda Ovrupa usullarini kirgizish kerak: “Askariy xizmat hamma uchun majburiy bo‘lishi lozim”. Askariy xizmatga olinadurgan kishilar do‘xturlar qaramog‘idan o‘tushlari kerak. Kasallar, mayiblar bundan ozod bo‘ladilar. Askariy xizmat muddati ikki yil qilinsin. Yigirma ikki yoshga yetilgan har kim askariy xizmatga majburan chaqiriladir. Bundan keyin loyiha askarlarni o‘rgatish va ta’min qilish masalasiga to‘xtaladir. Loyiha juda katta kazarmalar ishlatishni, Buxoroda qo‘mondonlar tayyorlash uchun harbiy maktablar ochishni askar uchun xazinadan ovqat, kiyim berishni, askarlarga oz bo‘lsa ham oylik maosh berishni talab etadir” [11, 110]. U askarlarning yuksak harbiy tajribaga va yetuk siyosiy tafakkurga ega bo‘lishlari o‘ta muhim, murakkab jarayon ekanligiga alohida ahamiyat beradi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning siyosiy ongi jamiyat hayotidagi voqealarning tub mohiyatini anglashi va ularning ijtimoiy turmushda sodir bo‘layotgan voqealarga faol ishtirok etishi natijasida rivojlanib boradi. Mamlakat aholisi va hududini ichki va tashqi tajovuzlardan himoya qilishlari uchun davlat o‘zining Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini muntazam ravishda oshirib borishi kerak, deb uqtiradi.

Jadidlarning dasturiy hujjatlarida siyosiy partiyalar davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishda o‘z ta’sirlarini kuchaytirishlari uchun xalq o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishlari, keng siyosiy faoliyat olib borishlari, mulkiy mustaqillikka erishishlari, katta siyosiy tajriba orttirishlari, jamiyatda o‘z mavqelariga va o‘zlarining doimiy saylovchilariga ega bo‘lishlari to‘g‘risida ilg‘or g‘oyalar ilgari surilgan edi [9, 167].

Turkiy federalistlar (Turk Adami Markaziyati) siyosiy partiyasi, ilk bor Turkistondagi rus siyosiy partiyalaridan mustaqil holda tizimlashgan siyosiy dasturni ilgari surdi va mahalliy xalq orasida muxtoriyatchilik kayfiyatini kuchaytirdi. Xalq milliy-hududiy muxtoriyat g‘oyasidan hayajonga keldi. U Turkiston jamiyatining turli qatlamlari orasida tobora qo‘llab-quvvatlana bordi, musulmonlar manfaatlarini himoya qildi. Natijada muxtoriyatchilik harakati mahalliy siyosiy hatti-harakatlar doirasidan tashqariga chiqib, milliy ozodlik harakatining siyosiy tashkillashgan ustuvor bo‘g‘iniga aylandi [12, 106-107].

Turkiston hududida ilmiy izlanishlar olib borgan xorijlik tadqiqotchilar orasida qardosh turkiy xalqlar vakili, Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun olib borgan kurashida faol ishtirok etgan - boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy “Xotiralar” asarida Jadid “Taraqqiyparvarlar” partiyasining 19 banddan iborat dasturi hujjati haqida so‘zlaydi va uning qisqa mazmunini keltiradi.

1. Milliy madaniyatga ega bo‘lib, mustaqil millat sifatida yashamoq hayotning tub asosi bo‘lishi kerak. Maqsadimiz Turkistonda mustaqil va milliy hukumat tuzishdir.

2. Ozod Turkistonda davlat shakli va idorasi respublika bo‘lib, hokimiyat manbai demokratik

asoslarda saylangan milliy parlament.

3. Markaziy hukumat a'zolari millat kengashining roziligi bilan Respublika rahbar (Prezident)i tarafidan tayinlanadi. Millat kengashi, Respublika rahbar viloyat kengashlarining saylash tartibi mustaqil Turkistonning ilk qurultoyi tomonidan belgilanadi - tasdiqlanadi.

4. Turkistonda kamchilikni tashkil etuvchi (aholisi oz) millat va elatlar ham fuqarolik huquqidan teng foydalanadilar.

5. Turkiston milliy hukumati Turkiston milliy qo'shiniga tayanadi, harbiy xizmat majburiydir.

6. Ichki tinchlikni, huquqiy tartibotni muhofaza qilish uchun viloyat idoralari, mahalliy militsiya tashkiloti vujudga keltiriladi va bu tashkilot mamlakatning milliy mudofaa tizimiga bog'liq bo'ladi.

7. Mamlakatda vijdon erkinligi to'liq bo'lur.

8. Matbuot va nashriyot erkinligi, shaxs erkinligini davlatning asosiy qonuni asosida ta'min etiladi.

9. Mamlakatning solig'i daromadga mutanosib bo'lur.

10. Yer masalasida asos yer, suv, yer osti, yer usti boyliklari va o'rmonlar davlat mulki hisoblanadi. Yer dehqonlarga xususiy mulk sifatida berilur.

11. Xususiy shaxslar yer-suv masalasida oldi-sotti qilmaydilar. Bunday muomalalar faqat davlat yo'li va davlat qo'li bilan amalga oshiriladi.

12. Turkiston ozodligi faqat iqtisodiy mustaqillik sharoitida bo'lishi mumkin. Shuning uchun Turkiston boshqa qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarni zamonaviy shaklda va yanada rivojlantirilishiga harakat qilur.

13. Turkistonda yer muammosining asosi suvdir, shuning uchun millatning barcha kuchi sug'orish va obodonlashtirish ishlarini kengaytirishga sarf etiladi.

14. Turkistonda, ayniqsa, qozoq, qirg'iz, turkman xalqlarida eng muhim masala ko'chmanchilikdan o'troq hayotga o'tmog'idir.

15. Turkistonda ishchi masalasining yechimi – bu mamlakatda milliy sanoat taraqqiyotiga, rivojlantirilishiga bog'liq.

16. Adliya masalalarida mustaqil va har kimga teng huquq. Diniy va dunyoqarashlariga qaramasdan zamonaviy qonunlar qabul qilinib ularni himoya qilishni ta'minlash.

17. Maorif tizimida umumiy bepul boshlang'ich ta'lim tatbiq etilur.

18. Turkistoinda birinchi navbatda ayniqsa, kasb-hunar maktablariga alohida ahamiyat beriladi.

19. Qadimiy sivilizatsiya o'chog'i bo'lgan Turkistonda asrlar davomida shakllangan va to'planib kelingan madaniy yodgorliklar muhofazaga olinadi va bular milliy madaniyatni yuksalish yo'lida xizmat qiladi [13, 341].

Jadidlarning dasturiy hujjatlarida, maromnoma nizomnomalarida asosiy e'tibor o'z davlat tuzilishini barpo etish, qonunlar chiqarishni amalga oshirish, mustaqil vakolatli o'lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruvi va sudi mexanizlarini ishlab chiqishga qaratildi.

Atoqli jamoat va davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev har bir mamlakat o'z xavfsizligini ta'minlashi va aholining tinch hayotini himoya qilishi uchun yetarli miqdorda Qurolli Kuchlariga ega bo'lishi lozimligi to'g'risida ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, milliy armiya mamlakatning davlat mustaqilligini ta'minlovchi, uni ichki va tashqi tajovuzlardan himoya qiluvchi vosita bo'lib, har bir mamlakat o'tish davrida o'zining milliy armiyasiga ega bo'lishi zarur [14, 418]. U shuningdek, milliy armiya tuzishda uning moddiy jihatdan ta'minlanishiga asosiy e'tiborni qaratish, askarlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, joy bilan butunlay ta'minlash va muayyan miqdorda xizmat haqi berib turish kabi masalalar ahamiyatiga ko'ra nihoyatda muhim ekanligini tushuntirib beradi. Moddiy ta'minot armiyada xizmat qilishni yengillashtirsa, shu bilan birga, askarning harbiy texnikaviy jangovar tayyorgarligini muttasil oshirib borishga imkon ham beradi, armiyaning kuch-qudrati, jipsligi va jangovar qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi, demak, mamlakat mustaqilligini ta'minlaydi [15].

Fayzulla Xo'jayevning "Buxoro Askarlariga Xitobnoma"si alohida e'tiborga loyiqdir. "Xitobnoma"da, Rusiya davlati eng zolim davlat bo'lsa ham Buxoro amirlaridan kuchli zulm qilmas edi, deb qayd qiladi. Shunga qaramay, Rusiya xalqlari, ya'ni qo'shini, ishchilari, dehqonlari va ziyolilari hammasi birgalikda, eski hukumatni tugatdilar. Musulmon xalqlari esa, jumladan, Turkiya, Eron va Afg'oniston xalqlari, askarlar bilan birga podshohlarni, beklarni va o'zlarining boshqa hokimlarni taxtdan olib tashladilar hamda uning o'rniga, davlatning hamma ishlarini nazorat qilish, mamlakatni birgalikda idora qilish xalq vakolatlari ta'sis etdilar, ayrim mamlakatlarda esa respublika e'lon qildilar [16, 156].

ISSN 3030-3230

Bu mamlakatlar orasida Buxoro davlati avvalgidek ayrim mulkdorlar, mufti va beklar hukmronligi ostida bo‘lib, fuqaro jabr-zulmdan qolib kelmoqda [16, 156], deb yozadi u. Qo‘shin va askarlar to‘g‘risida fikr bildirib, mutafakkir tushuntirib berdiki, qo‘shin degani – bu osmondan tushgan yoki yerdan chiqqin emas. Qo‘shin ham siz va biz kabi odamlar bo‘lib, ular ham o‘sha dehqonlar yoki hunarmandlardan, o‘sha mehnatkash va kambag‘al xalqdan olinadi.

Askarlar xalq bilan birga eziladilar, ular ham zolimlarning eziluvchilaridir [16, 157]. Hukmdorlar va amirlar, avval askarlarni muayyan oylik barobariga jalb qilganlar, deb ta’kidlaydi Fayzulla Xo‘jayev, so‘ngra ularni o‘zlariga ag‘darib, tarafdorlari qildilar. Oxir-oqibat askarlardan o‘zlarining birodarlarini ezish uchun qurol sifatida foydalandilar. Ammo, keyinchalik askarlar ham haqiqatni va hukumatning siyosiy rejalarining mohiyatini tushunib, dehqonlarni, hunarmandlarni, yetim va kambag‘allarni, umuman, fuqaroni jabr-zulmdan ozod qilish uchun xalq bilan birlashib, bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishganliklarini, zolim hukumatlarni yiqitib, ularning o‘rniga o‘zlarining erki va irodasini bildirib, saylovlar orqali demokratik hokimiyat tuzganliklarini u “Xitobnoma”da ko‘rsatib beradi [16, 157].

Fayzulla Xo‘jayevning fikricha, fuqaro va oddiy xalq qo‘lida harbiy qurol-aslahalar, jumladan, to‘p, pulemyot, miltiq, to‘pponcha kabilar bo‘lmaganligi tufayli, ular hukmdorlarga qarshi kurasha olmaydilar va bir joyda yig‘ilib, mustahkam bir siyosiy tashkilot tuza olmaydilar. Askarlar esa uyushganlar va fuqaroga qaraganda siyosiy ongi kengroq. Mamlakatda yuz berayotgan siyosiy voqea va hodisalarni chuqurroq anglaydilar. Agarda ularga qo‘shbegi (harbiy vazir) va boshqa mansabdor shaxslar salbiy ta’sirini o‘tkazmagan bo‘lsa, qo‘llarida qurollari bo‘lgan holda mustabid hokimiyatni tugatib, uning o‘rniga xalq manfaatlarini ifodalaydigan demokratik hokimiyatni qura oladilar [16, 157]. “Xitobnoma”da Buxoro askarlariga shunday murojaat qiladi: “Qimmatli o‘rtoqlar! Temurning shonli avlodlari! Bu kun o‘zingizning butun qahramonliklaringizni va o‘zlaringizning kuchlaringizni ko‘rsatishingiz lozim bo‘lgan kun keldi. Yolang‘och qilichlar bilan amirga qarshi, ya’ni sizni qulga o‘xshatib 130 so‘m qog‘oz pulga sotib olib, ochlikdan xarob qilgan odamga qarshi urushga chiqingiz....Zolimlarning o‘rinlarini munosib odamlarga beringlar va shu tartib bilan zolimlarning huquqlarini mazlumlar uchun tortib olinglar” [16, 158], deyiladi.

Mutafakkir Buxoro askarlarini – fuqaro va oddiy xalqni, yetim va kambag‘allarni amlok, xiroj, boj va boshqa turli noshar’iy soliqlar bilan asoratda tutgan amlokdorlar va amaldorlarning jabr-zulmini tugatishga, insoniy haq-huquqlarini qo‘lga kiritishga da’vat etadi [16, 157].

U Buxoro askarlarini o‘zlarining siyosiy maqsadlariga erishishlari uchun oralaridan to‘g‘ri niyatli va sodiq harbiy xizmatchilardan “dasta” (qism)lar va maxfiy siyosiy jamiyatlar tuzishlarini, mazkur jamiyatlardan uch yoki besh nafar harbiylarni boshliq qilib, ularning buyruqlari bilan harakat qilishlari kerakligini ta’kidlaydi [16, 159].

Fayzulla Xo‘jayev askarlarni qat’iy kurashga chorlar ekan, “Xitobnoma”da yozadi: “Qo‘rqmanglar, huquq va kuch sizning tomoningizda! Avvalgi zamonlardagidek Nikolay hozir yo‘q; uning, amirning tarafini olib, sizning qarshingizga rus askarlarini yuboradigan safdoshlari ko‘p zamondan buyon Rusiyada haydalganlar.

Toshkentda sizning qo‘mitangiz borkim, u sizni to‘la ravishda ta’minlaydi va sizlarning bunday keyingi ishlaringizni tayyorlaydi. Bu qo‘mita – inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkiston Markaziy Byurosidir. Ehtiyot bo‘linglar, hiylagar va yomon beklarning, ayrim harbiy boshliqlaringiz va amirning aldamchiligiga ishonmangiz.

Agarda sizlarga biror narsa tushunarli bo‘lmasa, maslahat so‘rab bizning Kogon Qo‘mitasiga murojaat qilinglar. Yashasin Buxoro askarlari....” [16, 157].

Shunday qilib, Fayzulla Xo‘jayevning “Buxoro Askarlariga Xitobnoma”si o‘z davrida harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlarini belgilashda, ularning siyosiy maqsad va rejalarini to‘g‘ri yo‘naltirishda hamda amalga oshirishda dasturilamal bo‘lib xizmat qildi.

Turkiston jadidlarining rahnamolaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy ham Turkistonning davlat mustaqilligiga erishish uchun Milliy Armiyani tuziy va milliy askarlarga ega bo‘lish nihoyatda zarur ekanligini ta’kidlaydi. U “Bayoni haqiqat” maqolasida yozadi: “Turkiston hukumatini ta’sis etsak, o‘zimiz majlis mashvaratimiz bo‘lsin, desak, Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o‘z qonun va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar.

Turkiston yahudiy, nasroniy va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e’tiborga

oladigan qonunlar tuzilsin. Agarda biz Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizni.... ittifoq etib, bugundan islohotga, ittifoqqa qadam qo‘ysalar ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz, mulkdor va ulamomiz birlashib din va millat, Vatan rivoji uchun xizmat etsak... O‘zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo‘lsin. Ul milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarzi maishatini o‘zimiz tayin qilurmiz” [17, 24]. Yoki uning mana bizning oldimizda eng katta ishlar turibdur, hozirgi ahvoliga qaraganda yana biz musulmonlar ruslarning fuqarosi va raiyasi bo‘lgan o‘lkadek, alardan dast va rijoga qolurmiz. Koloniya (mustamlakot) qoidasi ila bizni idora yetarlarki, bunga o‘z ixtilofimiz sabab bo‘lur [17, 24].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning fikriga ko‘ra, askar masalasi nihoyatda muhimdir. Ammo, umumiy majburiy ravishda askarlikka olinmasligi kerak. Musulmonlar bunga o‘rganmagan va hali tayyor emaslar. Askarlik xizmatining juda zarur ekanligini xalqning ruhiyatiga singdirish lozim. Toki ayrim salbiy fikrli fitnachilar fuqaroning noto‘g‘ri fikridan foydalanib, ba’zi bir fitnalarni uyushtirmasinlar hamda siyosatdan mutlaqo bexabar fikri noto‘g‘ri kishilar qo‘llariga qurol olib kutilmagan yomon hodisalarni paydo qilmasinlar. Shuning uchun taklif qilamanki, - deb yozadi Behbudiy, - to xalq o‘rganib, biroz ahvol o‘zgarguncha umumiy majburiy askarlikka olinmay, targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilib, xalqning ahvoliga qarab, ko‘ngilli tarzda askarlikka olinsa edi maqsadga muvofiq bo‘lardi [18, 505]. Ma’rifat, madaniyat va ta’lim tarbiya tarqatishni asosiy vazifasi deb bilgan jadidlar, jadid matbuotida askarlik masalalari, shu jumladan harbiy masalalar ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, Turkiston hududlari ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz bergan demokratik jarayonlar sababli Turkistonning mahalliy aholisi orasida o‘z yo‘lini taklif etgan milliy-siyosiy tashkilotlar yuzaga keldi;

ikkinchidan, jadidlar davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish uchun barcha millatning birligi va hamkorligi nihoyatda zarurligi haqidagi chuqur mushohadalari, umuman milliy birlik to‘g‘risidagi ilg‘or g‘oyalari va amaliy faoliyatlari bilan xalq ongida ularga nisbatan intilishni uyg‘ota oldilar, chor hukumatining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining tub negizi va mohiyatidan qanday maqsad va muddao borligini teran anglagan jadidlar harbiy qurilish va milliy armiya tuzish masalalarini birinchi bosqichdagi asosiy vazifa qilib belgiladilar;

uchinchidan, taraqqiyparvarlar milliy armiya davlat xavfsizligining muhim kafolati ekanligini teran anglar edilar. Shu bois ham jadidlar “Erk” partiyasi Dasturida – ularning milliy armiya tuzish to‘g‘risidagi ilg‘or g‘oyalari va uni amalga oshirish mutlaqo shart qilib qo‘yildi. Jumladan, Dasturning 5-bandida “Davlatni idora qilishni tashkil etish uchun milliy qo‘shinlar tuzilajak”ligi belgilangan [19, 111]. Jadidlar, Turkistonning davlat mustaqilligiga erishish, harbiy qurilish va Milliy Armiya tuzish, shuningdek, davlat mudofaasi, harbiy xizmatchilar va ularning huquq va majburiyatlari borasida qoldirgan boy ilmiy merosi hamda amaliy faoliyatlari hozirgi mustaqillik davrida nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi;

to‘rtinchidan, Jadid taraqqiyparvarlarning asosiy maqsadi - Turkistonning mustaqilligiga erishish, o‘zining armiyasiga ega bo‘lgan milliy hukumat tuzish, mustaqil millat sifatida hayot kechirishdan iborat bo‘lib, ushbu maqsadga erishishda Turkiston xalqlarining milliy mustaqillik uchun olib borgan kurashida faol ishtirok etgan Ahmad Zaki Validiy tomonidan ishlab chiqilgan Jadid “Taraqqiyparvarlar” partiyasining dasturi hujjatida o‘z ifodasini topdi. Ushbu dasturda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, diniy sohalar bilan bir qatorda milliy qo‘shin tuzishga oid muhim masalalar o‘z ifodasini topdi.

Аннотация: В статье широко освещены взгляды джадидских мыслителей на свободу и национальную независимость, их отношение к вопросам военного строительства и национальной армии в Туркестане, их взгляды на невозможность достижения государственной независимости без осуществления военного строительства и наличия мощной армии. Также анализируются предложения прогрессивных джадидов по осуществлению реформ в области военного строительства в программных документах политических партий.

Ключевые слова: Туркестан, джадид, джадидизм, военный, солдат, войска, структура войск, Вооруженный Силы, национальная армия, национально-освободительное движение, программа, политические партии, государственная система.

ISSN 3030-3230

Annotation. The article highlights extensively the views of Jadid thinkers on freedom and national independence, their attitude to the issues of military construction and the national army in Turkestan, their views on the impossibility of achieving state independence without carrying out military construction and having a powerful army. It also analyzes the reflection of the proposals of progressive Jadids on the implementation of reforms in the field of military construction in the program documents of political parties.

Key words: Turkestan, Jadid, Jadidism, military, soldier, troops, structure of troops, Armed Forces, national army, national liberation movement, program, political parties, state system.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5598-son Farmoyishi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. 2023-yil 11-dekabr. https://president.uz/uz/lists/view/6919.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyondalarini mukofotlash to‘g‘risida” 2020-yil 30-sentabrdgi Farmoni // Xalq so‘zi.

4. Ziyoyev H.Z. Jadidchilik harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini (XIX-asrning ikkinchi yarmi – XX-asrning boshlari) // Jadidchilik: islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar). Davriy to‘plam №1, 1999 – 218 b.

5. Fitrat A. Rahbari najot, Kitobda: Tanlangan asarlar. 5-jild / Ilmiy risolalar. T.: Ma’naviyat. 2010, 304 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 64-modda. T.:“O‘zbekiston”. 2023.

7. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti, Kitobda: Tanlangan asarlar. 1-jild / She’rlar, nasriy asarlar, dramalar. T.: Ma’naviyat. 2000, 256 b.

8. Fitrat A. Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qilg‘on munozarasi, Kitobda: Tanlangan asarlar. 1-jild / She’rlar, nasriy asarlar, dramalar. T.: Ma’naviyat. 2000, 256 b.

9. Ergasheva M. Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining davlat va huquq haqidagi qarashlari. Monografiya. – Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024. - 504 b.

10. “Buxoroda islohot loyihasi (1918 yil)”//Yosh buxoroliklar qo‘mitasi tayyorlagan, Toshkent-2005 yil, 58-b.

11. Xo‘jayev F. Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, 110 b.

12. Azamxo‘jayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. - Toshkent: “Ma’naviyat”. 2000. 168 b.

13. Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on Xotiralar: Turkistonda mustaqillik va ozodlik uchun kurashlar tarixi / “Istiqlol nuri” nashriyoti. - T.: 2014. - 612 b.

14. Xo‘jayev F. O‘zbekiston SSR Revolyusion Komitetining faoliyati to‘g‘risida / O‘zbekiston SSR Sovetlarining 1 Quriltoyida 1925 yil 13 fevralda qilingan doklad/ Uch tomlik Tanlangan Asarlar to‘plami T-1. 418 b.

15. Xo‘jayev F. Hukumat va mamlakatning joni askardir// Buxoro axbori. 1922, 22 aprel.

16. Xo‘jayev F. Buxoro askarlariga Xitobnoma. Kitobda: Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, 156 b.

17 Behbudiy M. Bayoni haqiqat // Ulug‘ Turkiston. 1917, 12 iyun Kitobda: Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. T.: “Akademiya”, 1999 yil. 24 b.

18. Behbudiy M. G‘alla, askarlik, yer va ta’liminoti harbiya / Mehnatkashlar tovushi. 1918, 2 avgust 515.

19. Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on Bo‘linganni bo‘ri yer / Turkiston xalqlarini milliy mustaqillik uchun kurashi tarixidan Xotiralar. T.: Adolat. 1997, 111 b.

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПО ПРОТИВОДЕЙСТВИЮ ПРОТЕСТНЫМ АКЦИЯМ

КАРАБАЕВ С.Ш.,
Заместитель начальника управления по боевой и специальной подготовке центрального аппарата Национальной гвардии Республики Узбекистан

Аннотация: В статье рассказывалось о широком использовании современных методов, форм и тактик проведения акций протеста, политико-технологических новшествах, которые повышают уровень охвата протестов, способствуют мобилизации и координации различных действий. Кроме того, есть примеры того, что недобросовестные люди активно используют мессенджеры (telegram-каналы, telegram-чаты) для координации своих действий и привлечения общественности, обходя блокировку Интернета с помощью различных инструментов, а также для передачи информации о местонахождении правоохранительных органов.

Ключивие слова: Протест, общественность, лидеры, современные методы, политические и технологические инновации, блокировка Интернета, мессенджера, телеграм-канал, телеграм-чат.

Анализ протестов, происходящих за последние годы, показывает, что методы, формы и тактика проведения протестов значительно изменились. Протестующие используют различные методы и средства для дезориентации правоохранительных органов, а также для организации и направления протестных действий.

За последние годы по миру прошли несколько волн массовых народных выступлений. Так, например, во Франции («желтые жилеты»), Венесуэле (протесты против Николаса Мадуро), Сербии (протесты против карантина и 5G), Гонконге (протесты против усиления влияния Китая), США (Black Lives Matter), Чили (экономические проблемы), Боливии (свержение Эво Моралеса), России (Хабаровск), Белоруссии (против президентских выборов) и.т.д.

При изучении всех вышеуказанных протестов были выявлены и классифицированы следующие проблемы по противодействию:

1) Выявления лидеров.

2) Определения личности протестующих.

3) Эффективное использования мобильных приложений.

4) Использования самодельных взрывчатых веществ и оружия.

5) Моральное давление на правоохранительные органы.

6) Модернизированная тактика действий.

В любом протесте, на первый план выходит вовлечение в протест как можно большей части населения, что снижает персональные риски тех, кто стоял в первых рядах и начинал это движение. Эта стратегия многие столетия оставалась выигрышной, протестующие в любых уголках мира пытались сделать протест массовым. Но в Гонконгских протестах есть большие отличия от протестов прошлого, у движения против местного правительства ***не было явных лидеров,*** толпа на первый взгляд самоорганизовывалась и не управлялась извне. Во всяком случае, во множестве публикаций указывалось, что это происходило именно так, но это утопия – всегда есть кукловод, который руководит толпой, в данном случае он был надежно ***скрыт за современными технологиями***, и, в отличие от демонстраций прошлого, ему не было нужды быть в первых рядах или кого-то посылать на баррикады. Теперь протестом можно управлять дистанционно, и это случилось впервые в новейшей истории [1].

Протестующие понимали, что полицейские под прикрытием действуют в их рядах, поэтому они размещали камеры около полицейских участков и пытались определить таких агентов. Например, как победа преподносилось раскрытие нескольких человек, что вернулись в полицейский участок в ночи в одежде протестующих. Но раскрытие отдельных агентов никак не влияла на общую картину, так

ISSN 3030-3230

как протест массовый, то раскрытие всех полицейских невозможно в принципе.

Кроме того, для **затруднения определения зачинщиков** толпы демонстранты в противогазе и оранжевых шлемах одевали черную одежду. Помимо масок и черных футболок, одним из самых популярных товаров в Гонконге за время протестов стали SIM-карты, привезенные из-за рубежа, выбирали SIM-карты стран, где при покупке не так важны паспортные данные, а дата-роуминг с Гонконгом стоила недорого. По оценкам местных операторов, в Гонконге летом 2019 г. SIM-карт стало больше примерно на 15-20 тысяч, и все они били в роуминге. Также протестующие проводили ликбез о том, что недостаточно сменить SIM-карту, нужен новый, чистый телефон. Активистов и организаторов можно было узнать по тому, что они использовали роутеры, раздающие бесплатный интернет, также отправляющие пуш-сообщения с той или иной информацией[2].

Помимо этого, в Гонконгских протестах **не смотря блокирования интернета мобилизация и управления происходила через интернет мессенджеров.** Например, у Telegram-каналов, по статистике, гораздо выше процент просмотра сообщений, чем у классических соцсетей, в которых он может быть, в зависимости от сети, от 15 до 70%. Вовлеченность же пользователей Telegram-каналов достигает 80%. При этом оппонент получает сообщение прямо на экран блокировки, напрямую, ему не нужно входить в приложение, вводить логин и пароль. Это позволяла доносить сообщение своей целевой аудитории максимально эффективно. Еще одной причиной популярности Telegram-каналов стали инструменты, которые позволяли обходить блокировки. Порой мессенджер виснили, подтормаживали, но все же работали, несмотря на ограничения[3].

Также причиной ратушей аудитория, являлись сами протесты. Например, во время протестов в Иране 2017 г., население которого около 80 млн, аудитория пользователей достигала 40 млн. В Гонконге аудитория достигала 1,7 млн, то есть около 23% населения города.

Китайских силовикам удалось вычислить номера телефонов, состоящих в протестных группах «Telegram-каналов». После этого создатели мессенджера внесли изменения в политику конфиденциальности.

По заявлению правоохранительных органов Гонконга после блокирования интернета протестующие адаптировали технологию AirDrop от Apple, чтобы рассылать на все устройства вокруг информацию о протестах. Это позволила достаточно просто и эффективно, задействовать сотовую сеть при этом нет надобности, информация передается от одного устройства многим. Кроме этого, приложение «HKmap Live» использовалось в противоправных целях, а именно помогало демонстрантам избежать встречи с правоохранительными органами.

В полиции также отметили, что поведение протестующих стало на шаг ближе к терроризму. По словам силовиков, на территории Китайского университета протестанты изготавливали и складировали вооружения, такие, как самодельные бомбы**,** бутыли с зажигательной смесью, луки, стрелы и катапульты**.** Эта тенденция начала распространялась и на другие университеты города [4].

Впервые использование бомб было замечено 14 октября 2019 года; бомба сработала дистанционно с мобильного телефона, когда полицейская машина проезжала примерно в 2 метрах, но в результате взрыва никто не пострадал. Полиция провела рейды по лабораториям или тайникам взрывчатых веществ, изъяла материалы, используемые для изготовления бомб, арестовала нескольких подозреваемых, участвовавших в замыслах взрывных устройств, и обезвредила спрятанные бомбы на местах [5].

Протестующие также разработали единый язык жестов для облегчения связи и формирования цепей для перевозки грузов. По мере того, как протесты продолжали нарастать, а полиция начала использовать более высокие уровни оружия для борьбы с беспорядками, активисты модернизировали свои импровизированные механизмы, заменив доски для серфинга в качестве щитов. На них также были средства защиты, включая термостойкие перчатки и респираторы. Во время демонстраций протестующие также играли разные роли. Мирные демонстранты скандировали лозунги, передавали припасы и вызывались в качестве медиков, в то время как передовые возглавляли атаку, тушили слезоточивый газ водой или нейтрализовали их, используя такие предметы, как дорожные конусы и кухонные принадлеж-

ности.

Специалисты обратили внимание, на тот факт, что в столкновении с полицией протестующие использовали десятки мощных лазеров чтобы отвлечь их, распыляли краску на камеры наблюдения и раскрывали зонтики, чтобы защитить и скрыть личность группы в действии и избежать распознавания лиц. Когда протестующие уезжали через метро или общественный транспорт, они часто делали кучу дополнительной смены одежды для других активистов, а также оставляли деньги на покупку одноразовых билетов от избежание отслеживания с помощью карт «Octopus» (проездные карты) [6].

Как утверждают эксперты похожею тактику, как и в Гонконге применяли в протестах Чили. Вовремя очередного разгона акции протеста, протестующие стали применять мощные лазерные указки против правительственных дронов и камер наблюдения.

В целом, протесты в Гонконге не являлись спонтанными. По предположениям специалистов, они были тщательно спланированы и подготовлены со стороны зарубежных инструкторов. В результате новая тактика, применимая участниками протестов в Гонконге, затруднила действия правоохранительных органов при пересечении беспорядков.

Между тем во время протестов во Франции зародилось самое известное спонтанное протестное движение без выраженного лидера. Которое усложняла переговоры сторон чтобы урегулировать ситуацию. В дни протестов «желтых жилетов» по Франции проходило сотни акций. У полицейских были ограниченные ресурсы, они начинали нервничать, что не способствовала мирному проведению демонстраций. Также полицейских не предупреждали, чтобы они имели возможность оценить, сколько сил нужно было задействовать.

Как отмечали в местном СМИ, Кризис «желтых жилетов» лишил полицию на много месяцев выходных, служебная нагрузка и моральное давление многократно возросло**.** Как сообщил профсоюз Национальной полиции, из-за еженедельных демонстраций «желтых жилетов» сотрудники правоохранительных органов находились в состоянии моральной и физической усталости.

Полицейские также подвергались давлению со стороны средств массовой информации и публикаций в соцсетях**.** Глава МВД Франции Жеральд Дарманен сообщал что следует запретить средствам массовой информации распространять фотографии и видео с участием полицейских, на которых их лица не были бы размыты, сославшись на быстрое распространение в интернете фотографий и видео, запечатлевших задержания людей в ходе протестов «Желтых жилетов».

О тяжелой обстановке в полиции говорила и резко возросшее число самоубийств. С начала года зарегистрировано почти 60 случаев среди полицейских. Виной всему, считают в профсоюзе, — плохие условия работы. К примеру, в Париже полицейский набросился с ножом на своих коллег и зарезал четверых. Мотивы нападения неизвестны.

Еще одна особенность протестов «нового типа»: движение «желтых жилетов» открыто поддержали несколько лидеров основных политических партий и политических движений: от левых (Жан-Люк Меланшон и Оливье Безансон) и центристских (Жан Лассаль) до правых (Лоран Вокье и Марин Ле Пен) [7].

В Белоруссии ответ на жесткие действия властей белорусы вышли на протестные акции под общим названием «Марш соседей». Проводились они в новом формате: координация осуществлялась в районных онлайн-чатах, жителям предлагалось выходить во дворы, на площади, к местным магазинам и торговым центрам. В ряде мест митингующим рекомендовали собраться в колонны и «прогуляться» по районам, избегая при этом центра и крупных проспектов, чтобы минимизировать число задержаний. Новая тактика локального протеста оказалась не очень удобной для силовиков.

Как отмечают эксперты **«Локальный протест»** имеет свои преимущества – не надо идти или ехать через весь город к месту сбора, можно присоединиться к нему, просто выйдя из дома. Обозреватели насчитали порядка **60** отдельных акций. Наиболее многочисленными из них оказались протестные мероприятия в микрорайоне Домбровка и Уручье. Силовики разгоняли митингующих, однако через некоторое время те собирались снова - уже в других местах [8].

В целом же необходимо признать, что прошедшие протесты за последние годк показали, как с каждым протестам меняют методы и тактику действия протестующие. Это в свою очередь затрудняет действия провахранительных органов при пересечении протестов.

ISSN 3030-3230

Annotatsiya. Maqolada norozilik namoyishlarining zamonaviy usullari, shakllari va taktikasi, norozilik namoyishlari qamrovi darajasini oshiradigan, turli harakatlarga safarbar etish va muvofiqlashtirishni osonlashtiradigan siyosiy-texnologik inovatsiyalardan keng foydalanilayotganligi yoritilgan. Bundan tashqari nomoyishchilarning internetning bloklanishini turli vositalar yordamida chetlab o'tib, o'z xarakatlarini muvofiqlashtirish va ommani jalb etish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning joylashuv joyi haqida ma'lumotlarni uzatish uchun messenjerlardan (telegram kanallari, telegram chatlar) faol foydalanayotganliklari misollar bilan ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Norozilik namoyishi, omma, liderlar, zamonaviy usullar, siyosiy-texnologik inovatsiyalar, internetning bloklanishi, messenjer, telegram kanal, telegram chat.

Annotation. The article covered the widespread use of modern methods, forms and tactics of protests, political-technological inovations that increase the level of coverage of protests, facilitate mobilization and coordination to various actions. In addition, there are examples of the fact that dishonest people actively use messengers (telegram channels, telegram chats) to coordinate their actions and attract the public, bypassing the blocking of the internet using various tools, and to transmit information about the location of law enforcement agencies.

Key words: Protest, Public, Leaders, modern methods, political and technological innovations, blocking of the internet, messenger, telegram channel, telegram chat.

Использованная литература:

1. Особенности гонконгских протестов. 19 август ь 2019г. https://grtribune.org/osobennosti-gonkongskih-protestov/

2. Эльдар Муртазин. Технологии в гонконгском протесте – детали того, как организован протест. 20 августа 2019 г. https://mobile-review.com/articles/2019/hk-protest.shtml

3. Феномен Telegram-революции: кто координирует протестные движения. Статья. 1 декабря 2020. https://actualcomment.ru/fenomen-telegram-revolyutsii-kto-koordiniruet-protestnye-dvizheniya-2012012044.html

4. Артём Воронин. Протесты в Москве и Гонконге: похожали тактика полиции?. 14 августа 2019. https://www.bbc.com/russian/features-49318799

5. Тактика и методы, связанные с протестами в Гонконге 2019–2020 годов - Tactics and methods surrounding the 2019–2020 Hong Kong protests. https://ru.abcdef.wiki/wiki/Tactics_and_methods_surrounding_the_2019%E2%80%9320_Hong_Kong_protests

6. Протесты в Гонконге (2019—2020) https://ru.wikipedia.org/wiki/

7. Франция: движение «жёлтых жилетов» – год спустя. Научно-аналитический вестник ИЕ РАН. 2019. № 6 (12). С. 132–137. https://www.perspektivy.info/oykumena/europe/francija_dvizhenije_zholtyh_zhiletov__god_spusta_2020-01-20.htm

8. Протесты в Беларуси: десятки тысяч около резиденции Лукашенко, сотни задержанных. 13 сентября 2020 г. https://www.bbc.com/russian/news-54138492

O‘ZBEKISTONING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIGIDA YANGI DAVRNING BOSHLANISHI MASALALARI

Mirzayev Gulom Rizoqulovich ,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedra boshlig‘i o‘rinbosari,
tarix fanlari doktori, dotsent

Nuriddinov Erkin Zuxriddinovich,
Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O‘zbekistonning yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorligi masalalari haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga mos yangicha ruhda rivojlantirish, mustahkamlash va takomillashtirish masalalari qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil etilgan. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratila boshlaganligi O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan qator tashabbuslarda o‘z aksini topa boshlaganligi tarixiy-qiyosiy tahlil etilgan. Jumladan, O‘zbekiston rahbarining Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining o‘zaro maslaxatlashuvlari bo‘yicha uchrashuvlarni muntazam tashkil qilish taklifi ilgari surilgan edi. Ushbu tashabbus barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi natijasida O‘zbekistoning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida yangi davr boshlanganligi izohlab berilgan. Yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni rivojlantirishga doir xulosalar berilgan va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, yaqin qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch, hamkorlik, mintaqa mamlakatlari, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi, yangicha ruh, qiyosiy-tarixiy tahlil, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, iqtisodiy, madaniy, ishonch inqirozi.

Ma’lumki, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi bu, xalqaro munosabatlar nazariyasidagi atama bo‘lib, Yalta-Potsdam tizimini SSSR parchalanishi va ikki qutbli qarama-qarshilikning tugashi bilan almashtirgan xalqaro munosabatlar tizimini anglatadi. Hozirgi vaqtda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi hali ham kontseptualizatsiya jarayonida, bu bizga yagona nazariy yondashuv mavjudligi haqida gapirishga imkon bermaydi. Mana shunday murakkab davrda O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarni mustahkamlash borasida olib borayotgan siyosati izchil rivojlantirilib borilishini taqozo etmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “O‘zbekiston o‘zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashning qat’iy tarafdoridir. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo‘yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz” [1.].

Mintaqada yig‘ilib qolgan muammolarni, dolzarb masalalar ustida avval o‘tirib, hech bir majburiyatsiz, hujjatlarsiz yoki tashkilotlar ishtirokisiz o‘zaro fikr almashib yechim topib kelinmoqda. Dastavval davlatlararo ishonchni mustahkamlash, so‘ngra amaliy ishlarga o‘tishga erishildi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi esa mana shunday maydon yaratib berildi. Natijada, Markaziy Osiyodagi rahbarlar ochiq-oydin fikr almashib, murakkab masalalarga hamjihatlikda yechim topishadi [17.]. Qisqa vaqt ichida O‘zbekiston zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga kirib bordi va tashqi siyosatida, xususan qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. “Avvalo, mintaqamizdagi davlatlar bilan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik

ISSN 3030-3230

munosabatlari yo‘lga qo‘yildi. Chegaralar ochildi, odamlar qavmi qarindoshlari bilan aloqalarini tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshladi” [27.].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Muammoning o‘rganilganlik darajasini tahlil etar ekanmiz, mazkur masalaga bag‘ishlab mahalliy va xorijiy tarixshunoslikda ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. O‘zbekistonlik olimlardan R.Alimov, E.Nuriddinov, S.Safoyev, M.Raximov va boshqalar, xorijlik mualliflardan A.Kazansev, A.Imangaziyev kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini keltirib o‘tish mumkin [5.].

Tahlil usullari. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, content analysis, event analysis, qiyosiy-tarixiy tahlil, kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik kabi imiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. 2017-yil mart oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga tashrifi davomida imzolangan hujjatlar ikki davlat hamkorligini bugungi kun talabi darajasida rivojlantirishni taqozo etdi. 2021-yil 16-17-sentyabr kunlari Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim Jomart To‘qayevning davlat tashrifi strategik hamkorlikning izchil rivojlanib borayotganligini mantiqiy davomidir.

2016-yil dekabrdagi Samarqand uchrashuvida Qirg‘iziston va O‘zbekiston prezidentlari qirg‘iz-o‘zbek chegarasining delimitatsiya jarayonini faollashtirish topshirig‘ini berishgandi. Ishchi guruhi faoliyati faollashdi va doimiy asosda yo‘lga qo‘yilib, bir qator uchrashuvlar o‘tkazildi.

2017-yil 5-6 sentabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti Qirg‘iziston Respublikasiga davlat tashrifini amalga oshirdi. Tashrif yakuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi hamda Qirg‘iziston Respublikasining chegaraoldi viloyatlari o‘rtasida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish to‘g‘risida o‘zaro anglashuv memorandumi imzolandi [18.]. Ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Prezidentining ushbu tashrifi so‘nggi 17 yil ichida birinchi bor Qirg‘izistonga amalga oshirgan davlat tashrifi edi [18.]. 2017-yil sentabr oyiga kelib umumiy chegaraning 1 ming 170 kilometr aniqlandi. Yana 217 kilometr bo‘yicha ish davom ettirilmoqda”. Shu bilan birga, Qirg‘iziston rezidenti devoni tashqi siyosat bo‘limi rahbarining ta’kidlashicha, davlatichidagi barcha jarayonlar yakunlangan.

Shavkat Mirziyoyevning tashrifi doirasida rasmiy shaxslar uchrashuvlaridan tashqari, ikki davlat ishbilarmonlari, tegishli vazirlik va idoralar, Toshkent hamda Bishkek hokimiyatlari vakillarining uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston Respublikalari Prezidentlari 2017-yil 5-sentabr kuni “Davlat chegaralari to‘g‘risida”gi hujjatni imzolaganida, o‘zbek-qirg‘iz chegarasining 85 foizi aniqlab bo‘lingan edi.

Shavkat Mirziyoyevning fikricha, mazkur uchrashuvda “tariximiz va kelajakni tiklash”ga erishildi.

O‘zbekiston Prezidenti suvdan foydalanish va GES qurilishi masalasiga ham alohida to‘xtaldi. “... Biz birgalikda Qambar ota GESini barpo etamiz, moliyaviy va boshqa masalalarda yordam beramiz. U bizga zarur va kerak”, - deb qo‘shimcha qilgan Mirziyoyev [21.].

2017-yil 5-sentabr kuni imzolangan Chegaradosh mintaqalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha 2017-2019-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma tadbirlar rejasi, Parlamentlararo hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum va boshqa hujjatlar ikki davlat qonunchilik organlari o‘rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘ldi [21.].

2017-yil 14-dekabrda Qirg‘iz Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi amalga oshirildi. Oliy darajadagi uchrashuv va muzokaralarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi davlatlararo aloqalarning bugungi holati va yanada rivojlantirish istiqbollari, chegaraoldi hamkorlik masalalari, ayrim mintaqaviy va xalqaro muammolar muhokama qilindi. Tor va keng doiradagi muzokaralaridan so‘ng bir qancha ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Qirg‘iziston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi o‘rtasida 2018-yilda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar rejasi;

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi va Qirg‘iziston Respublikasi hukumati qoshidagi Yoshlar, jismoniy tarbiya va sport davlat agentligi o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandumlari imzolangan [22.].

O‘zbekiston va Tojikiston hamkorligining bugungi holatini tahlil etar ekanmiz, Prezident Shavkat Mirziyoyevning hokimyat tepasiga kelishi arafasida mintaqa davlatlari hamkorligi masalasida bildirilgan “Qo‘shnimizning yutug‘i – bu bizning ham yutug‘imiz. Ularning tinch va

farovon hayoti – butun mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni saqlashning garovi deb bilamiz" [2, 8.] degan fikrlari Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligini yangi bosqichga ko'tarishda konseptual asos vazifasini o'tamoqda.

Tojikistonlik siyosatshunos Sherali Rizoyonning fikricha, Markaziy Osiyoni mintaqa sifatida rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilar ekan, Markaziy Osiyo davlatlarining milliy manfaatlariga zid kelmaydigan umummintaqaviy manfaatlarga xizmat qiluvchi konstruktiv ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish va targ'ib etish zarur. Mintaqaviy manfaatning o'ziga xos umumiy jihatlari va tuzilmalarini aniqlash yuzasidan qo'shma, yanada chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarur [9, 101.].

2018-yil 9-10-mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Tojikiston Respublikasida bo'ldi. Tojikistonlik ekspert Qosimsho Iskandarovning fikriga ko'ra,Tojikiston va O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro munosabatlar davlat rahbarlarining siyosiy irodasiga bog'liq. Shavkat Mirziyoyevning hokimyat tepasiga kelishi bilan ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar tez o'zgardi. Tojik-o'zbek munosabatlarining keskin rivojlanishi nafaqat ikki davlat, balki mintaqadagi barcha mamlakatlar o'rtasidagi ko'plab muammolarni hal etdi. Mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishi uchun siyosiy muhit yaxshilandi [7.].

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Tojikiston fuqarolarining o'zaro safarlari to'g'risidagi bitim (2018-yil)ning imzolanishi va nazorat-o'tkazish punkti ochilishi ikki mamlakat o'rtasida fuqarolarning vizasiz bordi-keldisini amalga oshirish imkonini berdi. O'zbekiston tomonidan boshlangan tashqi siyosatdagi bunday o'zgarish, ayniqsa transchegaraviy daryolarning suv-energetika resurslaridan kompleks foydalanishga oid kelishuvlar O'zbekiston Prezidentining mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xayrixoh ekanligidan dalolat beradi.

Tojikiston O'zbekistonning mintaqaviy siyosatini qo'llab-quvvatlamoqda. Xorijiy ekspertlar fikricha, bu boradagi O'zbekiston–Tojikiston munosabatlarining konstruktiv xarakterga ega bo'lishi Markaziy Osiyoda suv xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy sa'y-harakatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan 2022-yil 2-3-iyun kunlari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'lishi ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

Davlat rahbarlari muzokaralarida asosiy e'tibor ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash, siyosiy, parlamentlararo, savdo-iqtisodiy, transport-logistika, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikning kun tartibini tubdan kengaytirishga qaratildi. Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va biznes forumning muvaffaqiyatli natijalari – 1 milliard dollarlik yangi bitim va shartnomalar imzolangani davlatlararo iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [14.].

Ta'kidlash joizki, hududlararo hamkorlik, transport kommunikatsiyasi, parlamentlararo va madaniy-gumanitar aloqalar borasida ham salmoqli natijalar qo'lga kiritildi. Ikki davlat poytaxtlari Toshkent va Dushanbe shaharlari, Surxondaryo va Xatlon viloyatlari hamda Toshkent, Farg'ona, Samarqand va So'g'd viloyatlari o'rtasida samarali aloqalar yo'lga qo'yilgan. Jizzax va So'g'd viloyatlari o'rtasida hamkorlik bo'yicha "yo'l xarita"lari qabul qilingan.

O'zbekiston va Tojikiston investitsiya kompaniyasi salohiyatini faol ishga solish orqali hududlararo va sanoat kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirish hamisha dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ikki mamlakatning madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlash to'g'risida kelishuvlarga erishildi. Fan, ta'lim, san'at, kino va turizm sohalaridagi hamkorlik doimo davlat rahbarlari diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ma'naviyatini yuksaltirish madaniy-gumanitar hamkorlikning ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Shuningdek, ikki mamlakat rahbarlari tomonidan "Abadiy do'stlikni mustahkamlash va ittifoqchilik to'g'risida"gi deklaratsiyaning (2022-yil 2-iyun) imzolanganligi tarixiy ahamiyat kasb etadi [16.].

Jumladan, sanoat kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va kengaytirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

Madaniyat vazirliklari o'rtasida 2022-2023 yillarga mo'ljallangan madaniyat va san'at sohalaridagi hamkorlik to'g'risida bitim;

O'zbekistonning Jizzax viloyati va Tojikistonning So'g'd viloyati o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

Atrof-muhitni muhofaza qilish va suvdan oqilona foydalanish sohalarida hamkorlik to'g'risida memorandum;

ISSN 3030-3230

Ipakchilik tarmog‘ida hamkorlik to‘g‘risida memorandumlar shular sirasiga kiradi [14.].

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston va Tojikiston yangi tranzit yo‘laklarini shakllantirish va zamonaviy logistika infratuzilmasini yaratish, havo, temir yo‘l transporti va avtobuslar qatnovini ko‘paytirish, birgalikda agroklasterlar va zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va jahon mamlakatlari bozorlariga chiqish, energetika va suvdan oqilona foydalanish borasida samarali hamkorlik o‘rnatish, parlamentlararo muloqot va xalq diplomatiyasini kengaytirish, hududlararo aloqalarni rivojlantirish va madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlashlari joizdir.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi munosabatlar yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarilib izchil davom ettirilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “bunday hamkorlik rishtalari ham yurtimizda, ham mintaqamizda tinchlik va taraqqiyotni mustahkamlashga xizmat qiladi” [2, 271.]. O‘zbekiston va Turkmaniston munosabatlari yuqori darajadagi ikki tomonlama hamkorlik bilan izohlanadi. Oliy darajada qabul qilingan bitimlar, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va gumanitar hamkorlikka oid 200 dan ortiq hujjatlar turli sohalarda ikki tomonlama o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi hamkorlikning muhim jihatlari va yo‘nalishlariga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Ya’ni, O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga strategik darajaga ko‘tarildi. Xususan, 2017-yil 1-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risida shartnomani (Ashxobod, 2017-yil 6-mart) ratifikatsiya qilish haqida”gi Qonuni qabul qilinganligi fikrimiz tasdig‘idir.

Mazkur shartnoma do‘stona munosabatlarning mantiqiy davomi sifatida ikki mamlakat xalqlari hamkorligining yangi bosqichga ko‘tarilishi, pozitsiyalarni o‘zaro kelishish asnosida strategik sheriklikni mustahkamlanishi, o‘rta va uzoq muddatli iqtisodiy hamkorlik dasturlari ishlab chiqilishi, tadbirkorlar o‘rtasida hamkorlik izchil rivojlanishi, o‘zaro tovar aylanmasi, mahsulot va xizmatlar yetkazib berish hajmi oshishi, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, yangi tahdid va xurujlarga qarshi birgalikda kurashish uchun muhim huquqiy asoslarni belgilab bergani bilan ahamiyatga ega.

Ikki davlat rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvlari va muzokaralarida ko‘tarilgan muhim masalalar o‘zbek va turkman xalqlarining hayotida o‘zining amaliy ifodasini topmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining (2018-yil 24-avgust, 2019-yil 10-oktabr, 2021-yil 29-aprel, 2021-yil 5-6-avgust) Turkmanistonga amaliy tashriflari davomida O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko‘p qirrali hamkorlik va mintaqaviy sheriklikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Turkmaniston Prezidentining 2018-yil 23-24-aprel kunlari O‘zbekistonga davlat tashrifi ham do‘stlik munosabatlari va strategik sheriklikni rivojlantirishda muhim voqea bo‘ldi. Tashrif davomida Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuxamedovning Qo‘shma bayonoti imzolandi.

Bundan tashqari, tashrif davomida ikki davlat rahbarlari o‘rtasida 17 ta hukumatlararo va idoralararo hujjatlar, shuningdek, umumiy qiymati 250 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lgan savdo shartnomalari va bitimlar paketi imzolandi. Ushbu hamkorlik ikki mamlakat xalqlari hayotida o‘z ifodasini topishi maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-oktabrdagi “Turkmaniston Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha imzolangan shartnomalar va bitimlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston va Turkmaniston parlamentlari o‘rtasida hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda. 2020-yilning 10-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkmaniston Mejlisi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriqabul qilindi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkmaniston Mejlisi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruhi tomonidan faol amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda savdo-iqtisodiy sohadagi o‘zaro hamkorlik shartnomaviy-huquqiy jihatdan yanada mustahkamlanganligini alohida ta’kidlash joiz. Shu asosda ikki tomonlama imtiyozlar va savdo sohasida ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tartiblar joriy etildi. Aytish kerakki, Turkmaniston erkin savdo

rejimini yaratgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi bitimlar imzolangan 10 ta davlat sirasiga kiradi [23.].

O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 5-6 avgust kunlari Turkmanistonga amalga oshirgan tashrifida ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha kelishib olindi. 2021-yil oktabrda Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedovning O‘zbekistonga tashrifi doirasida O‘zbekiston va Turkmanistonning o‘zaro do‘stona va strategik hamkorligiga oid bir qator hujjatlar imzolanganligi bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan 2022-yil 14-15-iyul kunlari Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning mamlakatimizga amalga oshirgan davlat tashrifini [13.] ikki qardosh mamlakat strategik sheriklik munosabatlarida yangi sahifa ochishga intilgan tashrif sifatida baholash mumkin. Uchrashuv chog‘ida davlat rahbarlari O‘zbekiston–Turkmaniston hamkorligini istiqbollarini muhokama qildilar. Alohida e’tiborni savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, o‘zaro savdoni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirish, transport logistika imkoniyatlaridan foydalanishga qaratdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Markaziy Osiyoning mamlakat tashqi siyosatini asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanishi yaqin qo‘shnilar bilan do‘stlik, o‘zaro manfaat va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga asoslangan munosabatlarni izchil rivojlantirishda yangi davrni boshlab berdi.

Ta’kidlash joizki, “Bu-har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqaning barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo - biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir” [1.].

Aynan, ushbu muammo doirasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bir qator vazifalarning yechimini topishda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratila boshlaganligi davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan qator tashabbuslarda o‘z aksini topa boshladi. Jumladan, O‘zbekiston rahbari 2017-yil 10-11-noyabr kunlari BMT shafeligida Samarqand shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining o‘zaro maslahatlashuvlar bo‘yicha uchrashuvlarni muntazam tashkil qilish taklifini ilgari surgan edi. Ushbu tashabbus barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Ta’kidlash joizki, konferensiya Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun platforma vazifasini bajardi. Konferensiyada nutq so‘zlagan Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy integratsiya masalasi haqida so‘z yuritib jumladan shunday dedi: “Davlatlarimiz aynan yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o‘z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi. Ishonchim komil, bundan barcha – Markaziy Osiyo davlatlari ham, boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko‘radi” [4, 265.].

Mazkur Maslahat uchrashuvi mazmun-mohiyati haqida Sh.Mirziyoyev fikr yuritib quyidagicha ta’kidlaydi: “Bizning bu boradagi yondashuvlarimiz bugungi kunda mintaqada umumiy muammolarni hal etishning yo‘llarini birgalikda izlab topishga real zarurat mavjud ekanini anglashdan kelib chiqqan yondashuvdir” [4, 273.].

Haqiqatan ham ushbu uchrashuvni tashkil etish yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro hamkorligi doirasida yig‘ilib qolgan muammolarni bosqichma-bosqich hal etishda muhim platforma vazifasini o‘tamoqda. Chunki, mintaqa davlatlari iqtisodiyoti asrlar mobaynida turli omillar ta’siri ostida bir-birini to‘ldirib turadigan yagona hududiy kompleks holida shakllanib kelgan va SSSR parchalangunga qadar ushbu holat saqlanib qolgan. Shu bilan birga, 1992-2016-yillar mobaynida beshta davlatning iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilib, salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsa-da, chegaralarda sun’iy to‘siqlar paydo bo‘lishi natijasida o‘zaro hamkorlikni sust holda rivojlanganligining guvohi bo‘lamiz.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida mintaqada keng doiradagi transchegaraviy tahdidlarga qarshi kurash sohasidagi manfaatlari ham bir-biriga yaqin va o‘xshashdir. Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqa davlatlari bilan hamkorligining rivojlanishi nafaqat ushbu davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti

ISSN 3030-3230

barqarorligi va xavfsizligiga balki, mintaqalararo integratsiyalashuvning institutsional tizimini mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

2018-yil 15-mart kuni Qozog‘istonda Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi va uchrashuv ko‘plab ekspertlar tomonidan ijobiy baholandi. Masalan, qirg‘izistonlik,ekspert Arslanbek Omurzakovning fikricha, Markaziy Osiyo mamlakatlari 27 yillik mustaqillik davrida bir-biridan juda uzoqlashib ketdi va ularni ajratuvchi omillar ham ko‘paydi, biroq so‘nggi yillarda (2017-yil nazarda tutilmoqda) qayta muloqot qilish imkoni paydo bo‘ldi. 2018-yilda “Navro‘z” bayrami munosabati bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari uzoq yillar mobaynida ilk marotaba “vositachilarsiz”, “bir davrada” uchrashishdi. Bu bir-biriga bo‘lgan ishonch tuyg‘usini mustahkamlaydigan juda yaxshi tendensiyadir [24].

Binobarin, Markaziy Osiyo mamlakatlari Maslahat uchrashuvida Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar samarasi o‘laroq, bir qator ijobiy natijalar qo‘lga kiritilganligi e’tirof etish kerak. Jumladan, bir necha yillardan buyon muammoli masala sifatida qarab kelingan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududi haqida shartnoma imzolandi (2017-yil 10-noyabr). O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘z chegaralarining 85 foizi yuzasidan kelishuvga erishdi [10.]. Transport sohasida Tojikiston bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri havo, temir yo‘l va avtomobil qatnovi tiklandi. Amudaryo orqali Turkmanobod – Farob temir yo‘li hamda avtomobil yo‘li ko‘priklari ochilishi(2017-yil 7-mart) butun Markaziy Osiyo mintaqasi hayotida “transport-kommunikatsiya va geostrategik ahamiyati” [3, 363.]ga ko‘ra noyob bo‘lgan muhim voqea sifatida baholandi.

Xususan, “Turkmanobod – Farob” avtomobil va temir yo‘l ko‘priklari Markaziy Osiyo mamlakatlari tranzit salohiyatini yuksaltirishi Turkmaniston orqali Transkavkaz transport yo‘lagi bilan Janubiy va Markaziy Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga tranzit va yuk tashish hajmlarini bir necha marotaba ko‘paytirishga xizmat qilishi bilan xarakterlanadi.

Shuningdek, mintaqa davlatlari hamkorligini qaytadan mustahkamlash borasida O‘zbekiston rahbariyati tomonidan amalga oshirilgan sa’y harakatlar natijasida O‘zbekistonning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan tovar ayirboshlash hajmi, 2017-yil yakunlariga ko‘ra, qariyb 3 milliard dollarni tashkil etdi, ya’ni 20 foizga ortdi. Bu borada tovar yetkazib berish yana bir barobarga ko‘paydi [4, 273.].

Hozirgi paytga kelib haqli ravishda O‘zbekiston Respublikasi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligida yangi bosqichga qadam qo‘yilmoqda. Masalan, 2018-yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 50 foiz o‘sib, 3 milliard dollardan oshgan. O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan o‘zaro tovar ayirboshlashi 2018-yilda 481 million dollardan, Tojikiston bilan esa 389 million dollardan oshgan [12.], Turkmaniston bilan o‘zaro iqtisodiy hamkorlik 302 million dollarni tashkil etgan [11.].

2019-yil 29-noyabr kuni Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog‘istonning Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg‘iziston Prezidenti Sooronboy Jeenbekov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovlar ishtirok etdi.

Mazkur uchrashuvda savdo to‘siqlarini bartaraf etish, sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va mintaqaning tranzit imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi. Tomonlar hududlar darajasida faol almashinuvlar va muloqotni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ilm-fan, ta’lim, turizm, madaniyat va sport sohalarida qo‘shma tadbirlarni muntazam o‘tkazishga kelishib oldilar. Shuningdek, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash uchun ko‘p tomonlama hamkorlik masalalariga jiddiy e’tibor qaratildi [25.].

Shu o‘rinda mintaqa mamlakatlari o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lgan va rivojlanayotgan davlatlar hisoblanib, insonparvarlik, ijtimoiy adolat, mintaqada xavfsizlik, tinchlik va osoyishtalik muhitini yaratish kabi tamoyillar asosida o‘zlarining tashqi siyosiy faoliyatini hamkorlikda rivojlantirib borishda Maslahat uchrashuvlari muhim bo‘g‘in vazifasini o‘tayotganligini alohida ta’kidlash joiz.

2021-yil 6-avgust kuni Turkmanboshi shahri (Turkmaniston) yaqinidagi “Avaza” milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Turkmaniston Prezidenti raislik qilgan sammitda O‘zbekiston, Qozog‘iston Qirg‘iziston

va Tojikiston Respublikalari prezidentlari, shuningdek, BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markaz rahbari ishtirok etib mintaqaning xalqaro munosabatlarda ishtiroki va mintaqaviy imkoniyatlari muhokama qilindi. Markaziy Osiyo ulkan geostrategik va geoiqtisodiy ahamiyatga ega mintaqa bo‘lib, bu yerda 74 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ularning tarixi va madaniyati, mamlakatlarning iqtisodiyoti va infratuzilmasi bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketganligi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga doir yangi-yangi loyihalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekiston mintaqa mamlakatlari bilan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik tamoyillariga tayangan holda faol va pragmatik siyosat olib bormoqda. Jumladan, keyingi yillarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-logistika hamda madaniy-gumanitar sohalarda ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Tarixan qisqa muddat ichida Markaziy Osiyoda prinsipial jihatdan mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi.

Avazada tashkil etilgan navbatdagi uchinchi uchrashuvda Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida umumiy siyosiy iroda va birgalikdagi sa’y-harakatlar natijasida bugun mintaqa yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanib borayotganini alohida ta’kidladi. Yangi siyosiy muhitni shakllantirishda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvlarining o‘rni beqiyosligi Oliy darajadagi muntazam uchrashuvlar mintaqaning betakror salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qilishi haqida fikr bildirdi.

Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirishda hamkorlikning yangi “o‘sish nuqtalarini”, uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan yangi rivojlanish “drayver”larini aniqlash, mintaqa ichidagi savdoni kengaytirish zarurligi, to‘laqonli erkin savdo rejimiga o‘tish maqsadida mavjud to‘siqlarni bartaraf etish muhim ekani qayd etildi. Sanoat kooperatsiyasi, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish hisobiga qo‘shilgan qiymatning uzun zanjirlarini yaratish mumkinligiga alohida e’tibor qaratildi.

Albatta, bu borada mintaqa mamlakatlari tadbirkorlari va hududlari o‘rtasidagi bevosita aloqalarni rag‘batlantirish, investitsiya va iqtisodiy forumlarni muntazam o‘tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan bir qator takliflar, xususan, savdo-iqtisodiy hamkorlikning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi bitimni qabul qilish; mintaqa mamlakatlarining umumiy strategik manfaatlariga mos keluvchi Markaziy Osiyoning transport-tranzit salohiyatini samarali ishga solish orqali keng rivojlangan va integratsiyalashgan transport tizimini Yevroosiyo qit’asining muhim tranzit “xab”iga aylantirish; mavjud transport yo‘laklari va infratuzilmasini, shu jumladan, Kaspiy dengizi portlari, yirik transchegaraviy logistika markazlarini imkon qadar to‘liq quvvat bilan ishlashini ta’minlash, ekologik masalalarning birgalikda yechimini topish kabi takliflar mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va mustahkamlashga qaratilgan.

Mazkur takliflar mintaqa mamlakatlarining oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda ularning sifatini nazorat qilish, shu jumladan, jahon bozoriga yetkazish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar va qo‘shma dasturlarni belgilab olishga xizmat qilmoqda.

Mintaqa xalqlarini yaqinlashtirishga xizmat qiladigan yana bir omil bo‘lgan turizm sohasida xizmatlar doirasini qamrab oladigan “Bir sayohat – butun mintaqa” qo‘shma dasturini amaliy ro‘yobga chiqarish taklifi ilgari surildi.

Maslahat uchrashuvi doirasida Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqotining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tib, unda ayollarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish masalalari ko‘rib chiqildi. Anjuman yakunida Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari forumi deklaratsiyasi qabul qilindi. Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvining navbatdagi yig‘ilishi doirasida o‘tkazilgan ushbu tadbirlar, shuningdek, yetakchi ayollar muloqoti va mintaqa Iqtisodiy forumi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miziyoyev tashabbusi bilan tashkil topgan sammitning yangi bosqichga chiqqanidan dalolat beradi [8.].

Oliy Majlis Senati Raisi T.Narbayeva Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqotining navbatdagi majlisida mazkur forum mintaqa mamlakatlarining yutuqlari, gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha kelgusidagi rejalari haqida axborot almashish va umumiy manfaatlarimizga javob beradigan hamkorlikning barcha sohalarida xotin-qizlar o‘rtasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilish uchun yaxshi imkoniyat ekanini ta’kidladi [26.].

ISSN 3030-3230

Shuningdek, Senat raisi muloqotning barcha ishtirokchilari tomonidan yaratilayotgan poydevor davlat boshqaruvi, preventiv diplomatiya, atrof-muhit muhofazasi, tadbirkorlik va biznes, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, san'at va umuman, gender tenglikni ta'minlash sohalarida Markaziy Osiyo xotin-qizlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qilishi haqida to'xtalib o'tdi.

Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida 2022-yil 20-21-iyul kunlari Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to'rtinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ta'kidlash joizki, ushbu formatdagi yig'ilishlar natijasida mintaqada suv-energetika munosabatlari, chegaralarni belgilash masalalari faol hal etilmoqda, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yanada mustahkamlanib, qo'shma savdo uylari, chegara savdo zonalari tashkil etilmoqda, davlatlar o'rtasida savdo-ishlab chiqarish kooperatsiyasi rivojlantirilib, odamlar o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar kengaymoqda.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining to'rtinchi maslahat uchrashuvi mintaqa mamlakatlari o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligiga to'g'ri keldi. Mazkur uchrashuvda mintaqaviy xavfsizlikka oid xavf va tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish bo'yicha o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari, Markaziy Osiyo davlatlarining faol madaniy-gumanitar almashinuvini davom ettirish masalalari muhokama qilindi.

Xususan, Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekiston Prezidentlari tomonidan XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Shu o'rinda, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlari ushbu hujjatni o'z mamlakatlarida ichki davlat tartib-taomillari yakunlanganidan so'ng imzolashi qayd etib o'tildi. Xususan, davlat rahbarlari Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasi, "Markaziy Osiyo uchun "Yashil" kun tartibi" mintaqaviy dasturi va 2022-2024-yillarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlashga qaror qilishdi. Sammit nihoyasida yakuniy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Markaziy Osiyoning barcha davlatlari rahbarlari Cho'lponota Maslahat uchrashuvining Qo'shma bayonotini qabul qildi.

Xulosa. Hamkorlikning o'tgan davri tarixi O'zbekistonning Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston bilan hamkorligi turli obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida bir xilda kechmaganligini ko'rsatib berdi.

Mamlakatlar o'rtasidagi ilm-fan va ta'lim sohasidagi munosabatlar madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlanishiga katta hissa qo'shib kelayotganligini guvohi bo'ldik. Markaziy Osiyo mamlakatlari olimlari bilan hamkorlikda sanoat, qishloq xo'jaligi va energetika sohasi bo'yicha yangi loyihalar ustida ish olib bormoqda hamda yetakchi ilmiy markazlarda tajriba almashish va tadqiqotlar olib borish imkoniyatidan unumli foydalanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi mustaqillik davrida yangicha ruhda shakllandi. Biroq, O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorligi masalalarini tadqiq etish natijasida, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar izchil va bosqichma-bosqich rivojlanib borganligiga qaramasdan, o'z yechimini topmagan ayrim masalalar ham borligi aniqlandi. Shu bois, tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligini yanada rivojlantirish, mustahkamlash va yangi bosqichga olib chiqish maqsadiga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surildi:

1. Markaziy Osiyo mamlakatlari chegarabo'yi hududlarda qo'shma iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqish va izchil amalga oshirish, o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman munosabatlari transchegaraviy daryo va anklav hududlar masalasida hamjihatlikni saqlab turuvchi chegaradosh hududlarda erkin savdo-iqtisodiy zonalar va madaniy markazlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Mintaqada migratsiya, sayyohlik va viza tartiblarini yengillashtirish nafaqat insonlarni balki kapital, tovarlarning erkin harakatlanishini ta'minlash, Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari aholisi uchun bir-birlarining tele va radio dasturlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiluvchi tele va radio markazlarni joriy etish joiz deb bilamiz.

3. Mintaqaning yetakchi olimlari va ekspertlarining izchil uchrashuvlari va doimiy aloqalarini ta'minlash uchun sharoit yaratuvchi "Aql markazlari" tahliliy-Axborot markazi tuzish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda barqaror hamkorlikning ta'minlanishi jarayonida

O‘zbekiston Respublikasining faol va konstruktiv faoliyati mintaqada yashovchi turli millat va elatlarning ming yillar mobaynida shakllangan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va madaniy hamkorligini mustahkamlaydi hamda mintaqaviy xavfsizlikning ta’minlanishini belgilovchi mexanizmning qaror topishida muhim rol o‘ynaydi.

Аннотация. В данной статье говорится о вопросах тесного соседства и сотрудничества Узбекистана на основе взаимного доверия в системе современных международных отношений. Со сравнительно-исторической точки зрения анализируются вопросы развития, укрепления и совершенствования сотрудничества Узбекистана со странами Центральной Азии в новом духе согласно системе современных международных отношений. Историко-сравнительный анализ того, что Узбекистан стал уделять особое внимание вопросам сотрудничества со странами Центральной Азии, нашел отражение в ряде инициатив, выдвинутых Узбекистаном. В частности, было выдвинуто предложение главы Узбекистана регулярно организовывать встречи по взаимным консультациям глав стран Центральной Азии. В результате этой инициативы, получившей поддержку всех стран и международных организаций, выяснилось, что началась новая эпоха в сотрудничестве Узбекистана со странами Центральной Азии. Были сделаны выводы по развитию сотрудничества на основе добрососедства и взаимного доверия, выдвинуты предложения.

Ключевые слова: Узбекистан, Центральная Азия, тесное соседство, взаимное доверие, сотрудничество, страны региона, современная система международных отношений, новый дух, сравнительно-исторический анализ, Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан, экономический, культурный, кризис доверия.

Annotation. This article talks about the issues of Uzbekistan’s close neighborhood and cooperation based on mutual trust in the system of modern international relations. Issues of development, strengthening and improvement of Uzbekistan’s cooperation with the countries of Central Asia in a new spirit according to the system of modern international relations are analyzed from a comparative and historical point of view. A historical and comparative analysis of the fact that Uzbekistan began to pay special attention to the issues of cooperation with the countries of Central Asia was reflected in a number of initiatives put forward by Uzbekistan. In particular, the proposal of the head of Uzbekistan to regularly organize meetings on mutual consultations of the heads of Central Asian countries was put forward. As a result of this initiative being supported by all countries and international organizations, it was explained that a new era has begun in the cooperation of Uzbekistan with the countries of Central Asia. Conclusions on the development of cooperation based on close neighborliness and mutual trust were given and suggestions were put forward.

Key words: Uzbekistan, Central Asia, close neighborhood, mutual trust, cooperation, regional countries, modern system of international relations, new spirit, comparative-historical analysis, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, economic, cultural, a crisis of confidence.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72–сессиясидаги нутқи. // Халқ сўзи. – 2017. – 20 сентябрь.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2–жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.
5. Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. Т. «Шарк» 2005 г. С.36-41; Нуриддинов Э.З. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны

ISSN 3030-3230

внешполитической деятельности Республики Узбекистан /Монография/ - Ташкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021, – 398 с.; Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. Тошкент: 2005.; Рахимов М.А. Международное сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии. –Т.: Yangi nashr, 2011.– 232 с.; Казанцев А.А. «Большая игра» с известными правилами: мировая политика и Центральная Азия. Монография. М.: «МГИМО-Университет», 2008. – 381 с.; Имангазиев А.К. Роль и место стран Центральной Азии в мировой политике (на примере отношений с Россией, КНР и США). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Москва – 2008. – 24 с.

6. Иқтисодий шарҳ. № 8 (8). Тошкент: 2022. – Б.26–31.
7. Косимшо Искандаров (Таджикистан): следует обеспечить условия для коммуникации ведущих экспертов Центральной Азии // http://ceasia.ru/forum/724–kosimshoiskandarovtajikistan.html.
8. Марказий Осиё давлатлари жипс бўлиб, минтақанинг барқарор тараққиёти ва фаровонлигига интилмоқда. // https://uza.uz/uz/posts/markaziy–osiyo–davlatlari–zhips–bolib–mintaqaning–barqaror–taraqqiyoti–va–farovonligiga–intilmoqda_290858 (8.08.2021.).
9. Омонов М. Халқ дипломатияси ва Марказий Осиёда замонавий ҳамкорлик // монография // Тошкент: “Lesson Press” нашриёти, 2022. – Б.101.
10. Халқ сўзи. 2019 йил 16 март.
11. Халқ сўзи. 2019 йил 29 ноябрь.
12. Халқ сўзи. 2019 йил 30 ноябрь.
13. Халқ сўзи, 2022 йил 15 июль.
14. Ўзбекистон – Тожикистон: мақсадлари муштарак, давр синовидан ўтган ишончли стратегик ҳамкорлар. // Янги Ўзбекистон. – 2022. – 3 июнь.
15. Ўзбекистон – Тожикистон: мақсадлари муштарак, давр синовидан ўтган ишончли стратегик ҳамкорлар. // Янги Ўзбекистон. – 2022. – 2–3 июн сонлари.
16. Ҳакимов О. Ўзбекистон – Тожикистон: умумий манфаатларни ҳимоя қилиш бўйича сиёсий ва дипломатик қадамларни давом эттириш зарур. // Янги Ўзбекистон. – 2022. – 2 июнь.
17. http://kun.uz/news/2017/09/29/savkat–mirzieev–markazij–osie–rabarlari–urtasida–maslaatlasuvlar–utkazis–tasabbusi–bilan–cikdi (02.10.2017.)
18. http://xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/11049–zbekiston–va–ir–iziston–zaro–manfaatli–amkorlikni–musta–kamlash–j–lida (05.09.2017.)
19. http://kun.uz/news/2017/09/05/17–jil–icida–birinci–marta–mirzieevning–biskekka–tasrifi–tafsilotlari 05.09.2017.
20. http://kun.uz/news/2017/09/06/mirzieev–uzbekiston–kambarota–gesni–kirgiziston–bilan–birga–kuradi
21. http://kun.uz/news/2017/09/06/mirzieev–kirgiziston–zukorgi–kenesi–raisini–uzbekistonga–taklif–kildi (06.09.2017.).
22. http://kun.uz/news/2017/12/13/uzbekiston–va–kirgiziston–urtasida–kator–uzzatlar–imzolandi (14.12.2017.).
23. https://yuz.uz/news/ozbekiston––turkmaniston–dostona–va–ahil–qoshnichilik–munosabatlari–rivojlanmoqda (15.12.2022.)
24. https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3830/ (04.05.2019).
25. https://kun.uz/news/2019/11/30/markaziy–osiyo–davlatlari–rahbarlari–toshkentdagi–uchrashuvda–nimalarga–kelishib–olishdi
26. https://yuz.uz/news/ozbekiston–hamkorlik–mexanizmini–yangi–sifatli–maslahatlashuvlar–platformasiga–aylantirish–uchun–barcha–say–harakatlarini–ishga–solmoqchi (7.08.2021.).
27. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 1 сентябрь сони.

SIBIR DARYOLARI OQIMINING BIR QISMINI MARKAZIY OSIYOGA KO‘CHIRISHNING TARIXIY VA RETROSPEKTIV TAHLILI “SIBIR DARYOLARINING BURILISHI”

Alimova Guzal Alisherovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Iqtisodiy fanlar kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Kazakov Akmal Alisherovich,
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi xuzuridagi
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. **Maqola Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish kontekstida “Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahliliga bag‘ishlangan. BMT tomonidan XXI asrda muhim deb bashorat qilingan chuchuk suv taqsimoti muammolari va ularning mintaqa davlatlarining siyosiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Sibir daryolari, jumladan, Irtish va Ob daryolari Qozog‘iston, Tojikiston va O‘zbekiston kabi davlatlar uchun suv ta’minoti manbai bo‘lishi kerak edi, biroq loyiha ekologik va huquqiy to‘siqlarga duch keldi. Maqolada, shuningdek, Markaziy Osiyo ekotizimlari, qishloq xo‘jaligi va energetikasi uchun daryo oqimining o‘zgarishi mumkin bo‘lgan oqibatlari tahlil qilinadi. Suv ta’minoti muammosini hal etishda ham iqtisodiy, ham ekologik jihatlarni hisobga olgan holda kompleks yondashuv zarurligi ta’kidlanadi.**

Kalit so‘zlar: Suv resurslari, Markaziy Osiyo, ekologiya, Sibir daryolari, loyiha, siyosiy barqarorlik, qishloq xo‘jaligi, energetika, taqsimot, tarixiy tahlil.

Suv resurslarini taqsimlash muammosi xalqaro munosabatlar tizimining muhim elementidir. BMT prognozlariga ko‘ra, kelajakda Yerda chuchuk suvning keskin tanqisligi yuzaga keladi. Agar bundan oldin asosiy muammo uglevodorodlar taqchilligi ortib borayotgan bo‘lsa, olimlar XXI-asrning asosiy muammosi sifatida suv resurslarining keskin tanqisligini prognoz qilishmoqda.

Suv resurslari siyosiy barqarorlikni ta’minlash, shuningdek, ko‘plab mamlakatlar va alohida mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Suvning ifloslanishi muammosi iste’molning ko‘payishi bilan birga toza ichimlik suvidan foydalanishni cheklaydi.

Markaziy Osiyo suv resurslariga boy mintaqadir, ammo ular juda notekis taqsimlangan. Mintaqaning asosiy suv yo‘llari transchegaraviy bo‘lib, ularning 86% suv oqimining yuqori qismida joylashgan mamlakatlar hududiga tegishlidir. Daryolarning yuqori oqimida joylashgan davlatlar – Qirg‘iziston va Tojikiston suv resurslarining katta zaxiralariga ega.

Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillikka erishishgandan so‘ng transchegaraviy (kesib o‘tuvchi) chuchuk suv resurslarini – asosan Amudaryo va Sirdaryo daryolarini samarali va tinch boshqarishni ta’minlash Markaziy Osiyo davlatlari uchun eng dolzarb muammolardan biriga aylandi.[4]

Sobiq ittifoq tarkibidagi davrda Markaziy Osiyo davlatlari suv resurslari Amudaryo va Sirdaryo daryolarini bo‘ylab o‘rnatilgan suv omborlari va gidroelektrostansiyalar tizimi orqali boshqarilgan. Landshaft va iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, yuqori oqimdagi respublikalarda suv omborlari qurilgan va quyi oqimdagi hududlarda sug‘orish uchun foydalanilgan.

Ammo Sovet Ittifoqi parchalanganidan so‘ng, geosiyosiy o‘zgarishlar va bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan Markaziy Osiyo daryolarida sovet xo‘jaligini qurish asosi endi dolzarb emasligi ma’lum bo‘ldi.

Natijada, suvdan foydalanish bo‘yicha yuqori (gidroelektrik) va quyi oqim (sug‘orish) davlatlari o‘rtasida keskinlik kuchayishi xavfi yuzaga keldi. Oziq-ovqat va energetika xavfsizligi masalalari Sovet davridan meros bo‘lib qolgan ekologik muammolarga e’tiborning yetishmasligi tufayli murakkablashdi, o‘shanda tabiiy resurslardan keng

ISSN 3030-3230

foydalanish atrof-muhitni muhofaza qilishdan shubhasiz ustuvor ahamiyatga ega edi.

Suv resurslari bilan ta'minlash muammosini hal qilish uchun Sovet davrida turli xil yo'llarni o'rganilib, ko'plab loyihalar ishlab chiqilgan. Ana shunday loyihalardan biri "Sibir daryolarining burilishi" loyihasidir.

1984-yil 23-oktabrda Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi (KPSS) Markaziy Komitetining Plenumida Sibir daryolarini janubga burish dasturi qabul qilindi. Loyihada yuzga yaqin tashkilot ishlagan, jumladan, 50 ga yaqin loyiha-



1-rasm. Loyihani amalga oshirish bosqichlari

qidiruv va 100 ta ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat olib borgan.

Irtish, Ob, Tobol va boshqa daryolar oqimini chuchuk suvga muhtoj bo'lgan Qozog'iston, Tojikiston, O'zbekiston va Turkmanistonga qayta taqsimlash maqsadi ilga surilgan. Birinchi marta Sibir daryolarini aylantirish g'oyasini kiyevlik muhandis Yakov Demchenko taklif qildi. 1868-yilda u o'z taklifini Imperator rus geografiya jamiyatiga kiritdi. Biroq, uning fikri qo'llab-quvvatlanmadi. Mutaxassislar 1920-yillarda uni yana faol muhokama qila boshladilar, turli sxemalar, suv olish punktlari, hajmlar va uzatish yo'llarini taklif qilishdi. Hukumat komissiyasi takliflarni ko'rib chiqib, Sibir suvini Orol dengiziga o'tkazish variantlaridan birini ma'qulladi, biroq keyinchalik loyihaning ekologik xavfsizligiga shubha tug'ilganligi sababli ish to'xtatildi.

1968-yilda yuqori rahbariyat Davlat reja qo'mitasi, Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) Fanlar akademiyasi va boshqa tashkilotlarga shimoliy daryo oqimlarini qayta taqsimlash rejasini ishlab chiqishni topshirdi. Shundan so'ng, 1976-yilda taklif qilingan to'rtta loyihadan yakuniy loyiha tasdiqlandi va Ob, Irtish oqimini qayta taqsimlash bo'yicha ishlarni boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Suv uzunligi 2,5 ming km, kengligi 200 m va chuqurligi 16 m bo'lgan kanal orqali O'rta Osiyoga borishi kerak edi.

SSSR Fanlar akademiyasi va "Soyuzgiprovodxoz" loyiha instituti tomonidan yuzdan ortiq turli tashkilotlar ko'magida olib borilgan ushbu keng ko'lamli tadqiqot ishlari natijasida Sib-Orol magistral kanali variantlarini ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlar to'plandi. yiliga 27,2 km^3 hajmda suv o'tkazishni ta'minlash rejalashtirildi.

Loyihaning umumiy smeta qiymati qariyb 32,8 milliard rubl va qurilish muddati 15 yil, sarf-xarajatlarni qoplashning tahminiy muddati 6-7 yil.

Mavjud texnik salohiyat nuqtai nazaridan bu loyihani amalga oshirish mumkin edi, chunki loyihalashtirilgan kanal Qoraqum kanalidan atigi ikki baravar uzun edi.

Loyihani ishlab chiqish juda qiyin sharoitlarda, manfaatlar to'qnashuvi va ma'lum qarorlarning qonuniyligiga shubhalar tufayli sirpanish bilan sodir bo'ldi. Aftidan, mamlakat janubida (nafaqat O'rta Osiyoda, balki Rossiya va Qozog'istonda ham) suv resurslari nihoyatda zarur bo'lgan. [3]

SSSR Fanlar akademiyasining besh bo'limining ekspert xulosalari tufayli Loyihani 1984-yilga kelib muddatlar 2000-yilga ko'chirildi. Bir guruh akademik olimlar Markaziy Qo'mitaga "Shimoliy daryolar oqimining bir qismini ko'chirishning halokatli oqibatlari to'g'risida" maktub yozdilar. Akademiklar mamlakat rahbariyatiga yo'llagan murojaatida loyihani to'xtatishni talab qilgan.

Bunga javoban KPSS Markaziy Komiteti Bosh kotibi Mixail Gorbachev nomidan melioratsiya

samaradorligini oshirish muammolari bo‘yicha ekspert komissiyasi tuzildi. Natijada, 1986-yil 14-vgustda KPSS Markaziy Qo‘mitasining “Shimoliy va Sibir daryolari oqimining bir qismini o‘tkazish bo‘yicha ishlarni to‘xtatish to‘g‘risida”gi qarori va unga muvofiq bosqichma-bosqich taklif qilingan loyiha e’lon qilindi. Suvni Ob va Irtishdan G‘arbiy Sibir, Ural, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston iqtisodiy rayonlariga 2550 kilometr uzunlikdagi kanal qurish orqali o‘tkazish to‘xtab qoldi. [2]

Ushbu loyihaning afzalligi sifatida Ob vodiysining Shimoliy hududlaridan suv toshqini, istiqbolli neft zaxiralariga boy bo‘lgan hududlarida suv toshqinlarini oldini maqsadida katta miqdordagi suv resurslarini Markaziy Osiyoga yo‘naltirish zarurligi ta’kidlangan edi. Ushbu loyiha ham qo‘llab-quvvatlanmadi. U qimmatligi va ekologik oqibatlari tufayli tanqid qilindi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy va retrospektiv tahlillardan kelib chiqib, Sibir daryolaridan



2-rasm. “Sibir daryolarining burilishi” loyihasi ustida faoliyat olib borgan tashkilot va muassasalar

2000-yillarda Moskva meri Yuriy Lujkov Sibir daryolari oqimining bir qismini Markaziy Osiyoga o‘tkazish loyihasini qayta tiklashni taklif qildi. U, xususan, Xanti-Mansiyskdan Qozog‘iston va Markaziy Osiyoga kanal qurish va Ob suvlarining umumiy hajmining 6-7 foizidan Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmaniston qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqaruvchilariga sotish uchun foydalanishni taklif qildi. Ushbu loyiha qo‘llab-quvvatlanmadi. Ekologlarning fikriga ko‘ra, Sibir daryolari oqimining burilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarga qishloq xo‘jaligi va o‘rmon erlarini, suv omborlarini, aholi punktlarini va yo‘llarni suv bosishi kiradi. Mutaxassislarning fikricha, bunday loyiha amalga oshirilsa, Ob havzasidagi qimmatbaho baliq turlari nobud bo‘ladi, shuningdek, abadiy muzlik rejimi oldindan aytib bo‘lmaydigan darajada o‘zgaradi va Shimoliy Muz okeani suvlarining sho‘rligi ortadi. [1]

Ushbu loyihani qayta tiklashga urinish Yu.M. Lujkov Moskva meri bo‘lganida, sabzavot va mevalarni yetkazib berish evaziga suvni barter ta’minoti asosida mintaqamizni suv bilan ta’minlash maqsadi ilgari surilishi rejalashtirilgan. Markaziy Osiyoga burush loyihasini O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siriga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

Birinchidan - suvni Sibir daryolaridan O‘rta Osiyo mintaqalariga o‘tkazish g‘oyasi ushbu mintaqada, jumladan O‘zbekistonda, suv resurslari yetishmasligi muammosini hal qilish zaruratidan kelib chiqqan. Daryo tizimlariga boy Sibir Markaziy Osiyoning qishloq xo‘jaligi, sanoati va aholisi uchun potensial suv yetkazib beruvchi hisoblanadi.

Ikkinchidan - qishloq xo‘jaligini rivojlantirish: Sibirdan olingan suv qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish uchun ishlatilishi mumkin, bu mintaqada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytiradi. Bu oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy rivojlanishni yaxshilashga yordam beradi.

Uchinchidan - energiya salohiyati: suv uzatish davrida gidroelektrostansiyalar qurilishi Markaziy Osiyoni qo‘shimcha energiya bilan ta’minlashi mumkin. Bu infratuzilmani rivojlantirish va energetika sohasiga investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.

To‘rtinchidan - transport va aloqa: suv resurslarining ko‘payishi suv transportining

ISSN 3030-3230

rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin, bu yesa logistika aloqasini va umuman mintaqa iqtisodiyotini yaxshilaydi.

Beshinchidan - ekologik jihatlar: loyihani to‘g‘ri boshqarish bilan atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni minimallashtirish va hatto ikkala mintaqada ekotizimlarni yaxshilashga hissa qo‘shish mumkin.

Oltinchidan – aholining doimiy o‘sishi va shunga mos ravishda uning shahar qismining ko‘payishi, bu tabiiy ravishda kommunal va maishiy ichimlik ehtiyojlari uchun suvga bo‘lgan ehtiyojning oshishiga olib keladi. O‘zbekiston aholisi soni 2030 yilga borib 40 mln kishidan oshishi kutilyapti.

Yettinchidan - Afg‘onistonda suvga bo‘lgan talabning o‘sishi, rejalashtirilgan barcha hajmlardan 800 million m3 ga oshgan va kelajakda 2030 yilgacha uni yiliga yana 3-4 km3 ga oshirish niyatida.

Sakkizinchidan - suv ta’minotining yomonlashishi, ayniqsa Amudaryo havzasida nazorat qilib bo‘lmaydigan ziddiyatli vaziyat yuzaga kelishi ehtimoli.

Аннотация. Статья посвящена историческому и ретроспективному анализу проекта “Поворот сибирских рек” в контексте управления водными ресурсами Центральной Азии. Рассматриваются проблемы распределения пресной воды, предсказываемые ООН как критические в XXI веке, и их влияние на политическую стабильность и экономическое развитие стран региона. Сибирские реки, включая Иртыш и Обь, должны были стать источником водоснабжения для таких стран, как Казахстан, Таджикистан и Узбекистан, однако проект столкнулся с экологическими и правовыми препятствиями. В статье также анализируются последствия возможного поворота рек для экосистем, сельского хозяйства и энергетики Центральной Азии. Подчеркивается необходимость комплексного подхода к решению проблемы водоснабжения, учитывающего как экономические, так и экологические аспекты.

Ключевые слова: водные ресурсы, Центральная Азия, экология, сибирские реки, проект, политическая стабильность, сельское хозяйство, энергетика, распределение, исторический анализ.

Annotation. The article is devoted to the historical and retrospective analysis of the “Siberian River Diversion” project in the context of water resources management in Central Asia. The problems of fresh water distribution predicted by the UN as critical in the 21st century and their impact on political stability and economic development of the countries in the region are considered. The Siberian rivers, including the Irtysh and Ob, were supposed to become a source of water supply for countries such as Kazakhstan, Tajikistan and Uzbekistan, but the project faced environmental and legal obstacles. The article also analyzes the consequences of a possible river diversion for ecosystems, agriculture and energy in Central Asia. The need for an integrated approach to solving the water supply problem, taking into account both economic and environmental aspects, is emphasized.

Key words: Water resources, Central Asia, ecology, Siberian rivers, project, political stability, agriculture, energy, distribution, historical analysis.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. The Middle Route Project / Construction and Administration Bureau of South-to-North Water Diversion Middle Route Project
2. Жаҳон сув кенгаши а’зоси, Давлатлараро мувофиқлаштирувчи сув комиссияси илмий ахборот маркази директори В. А. Духовнийни интервьюсидан https://sreda.uz/rubriki/voda/povorot-chasti-sibirskih-rek
3. Марказий Осиёда сув-энергетика комплексига йўналтирилган инвестициялар // Иқтисодий шарҳ. Илмий журнал №2,2022. В сухом остатке: как Узбекистан борется с водным кризисом. Президент Мирзиёев объявил о переходе к чрезвычайным мерам// газета “Известия” 10 декабря 2023, https://iz.ru/1615844/igor-karmazin/v-sukhom-ostatke-kak-uzbekistan-boretsia-s-vodnym-krizisom
4. Салиев М. Обзор сектора водоснабжения и санитарии узбекистана Министр жилищно-коммунального обслуживания Республики Узбекистан. mjko.uz›newsite/ru/about/o-nas
5. https://www.UzStat. HOLAT.pdf
6. https://review.uz/oz/v8o

AN'ANADAN TARAQQIYOT SARI: O'ZBEKISTONDA SHAXSIY IMMUNITETNING YANGI TA'RIFI

Sultonov Abdulla Azamatovich,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi kafedra boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqola Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka oid umume'tirof etilgan prinsiplarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, xalqaro majburiyatlarni bajarish hamda shaxsiy daxlsizlik kafolatlarini kengaytirish bo'yicha hamkorlikni faollashtirish bo'yicha tizimli ishlar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: implementatsiya, milliy qonunchilik, gender tenglik, migrantlar huquqlari, Xabeas korpus, aybsizlik prezumpsiyasi, Cotton Campaign, GSP+, indeks.

Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka oid umume'tirof etilgan prinsiplarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, xalqaro majburiyatlarni bajarish hamda shaxsiy daxlsizlik kafolatlarini kengaytirish bo'yicha hamkorlikni faollashtirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mazkur islohotlar, eng avvalo, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi, nufuzli xalqaro tashkilotlarning tavsiya va takliflarini inobatga olib, **sohani institutsional va huquqiy jihatdan tartibga solishga** qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ta'kidlash o'rinliki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan "Inson **qadri uchun"** degan tamoyil asosida mamlakatimizda inson huquq va erkinlarini ishonchli himoya qilish borasidagi ishlar mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi "Inson **huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini** tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida **qator strategik vazifalar** belgilab berildi [1]. Xususan:

birinchidan, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining ustuvor yo'nalishlari, umume'tirof etilgan xalqaro standartlar hamda O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlari, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda **qonunchilikni takomillashtirish** zarurligi belgilandi;

ikkinchidan, 2030-yil davriga qadar O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, **milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish** lozimligi qayd etildi;

uchinchidan, O'zbekistonning **inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar,** ya'ni, qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifati, hukumat faoliyati samaradorligi, so'z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash, biznesni olib borish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqa ko'rsatkichlar **bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakatlar qatoriga kiritish** choralari ko'rish dolzarb vazifa sifatida ko'rsatildi;

to'rtinchidan, **inson huquqlari buzilishlariga barham berish maqsadida** sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolatlarini mustahkamlash, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar faoliyati uchun keng sharoitlarni yaratish, inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini monitoring qilish va baholashning milliy tizimini yanada rivojlantirish, **aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga** alohida e'tiborni qaratishga urg'u berildi;

beshinchidan, jinoyatchilikning, ayniqsa odam savdosi, korrupsiya, qiynoqqa solish, uyushgan va transmilliy jinoyatchilikning oldini olish va bu illatlarga qarshi kurashish, shuningdek, **ushlab turilganlar, qamoqqa**

ISSN 3030-3230

olinganlar va mahkumlarni saqlash joylari tizimida odil sudlovga va inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlash sud-huquq tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatildi;

oltinchidan, aholining imkoniyati cheklangan, kam ta'minlangan guruhlar huquqlarini BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining **«hech kimni orqada qoldirmaslik»** tamoyiliga muvofiq himoya qilishni ta'minlash, davlat va jamiyatning alohida himoyasiga muhtoj bo'lgan shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ularga xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish orqali **ijtimoiy davlatchilik an'analarini hayotga tatbiq etish** tashabbusi ilgari surildi;

yettinchidan, din, so'z va fikr erkinligi, ma'lumot olish, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, **gender tenglikni ta'minlash, barchaning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan teng foydalanishi,** keksa odamlarning ijtimoiy integratsiyasi, bolalar, yoshlar, ayollar, **nogironligi bo'lgan shaxslar va migrantlar huquqlarini himoya qilishga** yo'naltirilgan amaliy choralarni yanada jadallashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida qayd etildi;

sakkizinchidan, oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, **oilada zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishni huquqiy,** ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jihatlardan **qo'llab-quvvatlash darajasini oshirish** eng dolzarb masalalardan biriga aylandi;

to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasini **BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga saylanishiga** erishish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi mustahkamlandi;

o'ninchidan, **inson huquqlari sohasida** axborot-ma'rifiy ishlar hamda **ta'lim-tarbiyaning sifati** hamda manzilligini yaxshilash maqsadlari belgilandi.

E'tirof etish joizki, so'nggi **7 yilda** mamlakatimizda inson huquqlari ta'minlashga doir keng qamrovli islohotlar natijasida, ushbu sohadagi davlat siyosatining samaradorligi ortib, jamiyatda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanmoqda, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanmoqda.

Ushbu xulosalarimizni inson huquq va erkinlarini ta'minlash sohasida erishilgan quyidagi amaliy natijalar ham tasdiqlaydi:

birinchisi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilik hamda huquqni qo'llash amaliyotiga bosqichma-bosqich implementatsiya qilish ishlari tizimlilik kasb etib bormoqda;

Ayni milliy qonunchiligimizda O'zbekiston ratifikatsiya qilgan **80 dan** ortiq xalqaro hujjatlar normalari, shu jumladan BMTning **7 ta** asosiy shartnomasi, **4 ta** fakultativ protokollari qoidalari aks etgan bo'lib, huquq tizimi doirasida inson huquqlarini himoya qilishga doir **12 ta** Konstitutsiyaviy qonun, **18 ta** kodeks va **700 dan** ortiq qonun hujjatlari amalda joriy etilgan.

ikkinchisi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada **O'zbekiston "huquqiy davlat"** tamoyiliga muvofiq, inson huquq va erkinliklari borasidagi normalar **3 baravarga** ko'paydi va **50 dan** ortiq moddani tashkil etdi. **Inson sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi** mustahkamlandi. **Inson va davlat organlari o'rtasidagi yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi,** huquqiy ta'sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi belgilandi [2];

Jinoyat-protsessual qonunchilikda insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi. Jumladan, shaxsni sudning qarorisiz **48 soatdan** ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi, huquq va erkinliklarni cheklash bilan bog'liq harakatlarga faqat sud qarori asosida yo'l qo'yilishi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning **"sukut saqlash"** huquqi mustahkamlandi, **"Xabeas korpus",** "Aybsizlik **prezumpsiyasi"** kabi qoidalar yanada kengaytirildi [3]. **Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish** tartibi takomillashtirildi [4], **"Yuridik yordam" axborot tizimi** ishga tushirilib, **advokatura institutining maqomi** ortib bormoqda [5]. Sud-huquq tizimidagi islohotlar natijasida **2017-2023 yillarda sudlar tomonidan oqlangan shaxslar soni 5956 nafarni** tashkil etdi.

uchinchisi, mamlakatda gender tenglikka erishish, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar sonini kamaytirish, bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish, so'z erkinligini ta'minlash borasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi.

Mazkur islohotlarning samarasi o'laroq **«Cotton Campaign»** tomonidan o'zbek paxtasiga

nisbatan boykot bekor qilindi, O‘zbekistonga Yevropa Ittifoqi tomonidan **«GSP+»** benefitsiari maqomi berildi. Eng ahamiyatlisi, **2023-yilda** yurtimizga tashrif buyurgan BMTning inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari **Folker Turk** O‘zbekistonning gender tengligini targ‘ib qilish, sud organlari mustaqilligi va qonun ustuvorligini ta’minlashdagi yutuqlarini yuqori baholadi [6];

to‘rtinchidan, jamiyatda **xotin-qizlarning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish** hissini yanada oshirish, ularga nisbatan sodir etiladigan **tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini oldini olish** hamda ijtimoiy huquqlarini ta’minlash bo‘yicha tom ma’nodagi yangi “o‘zbek **milliy modeli”ga** shakllantirildi;

Mazkur model doirasida, **2024 yilda 40 mingdan** ortiq ayolga himoya orderi berildi, oilaviy muammolarga va zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan **1 450 nafar** ayol reabilitatsiya va adaptatsiya markazlariga joylashtirildi. **Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun javobgarlik** choralari mustahkamlandi. **Oliy ta’lim muassasalarida o‘qish istagidagi ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga** qo‘shimcha davlat granti asosida ajratilgan **2000 ta** tavsiyanomani olish uchun **elektron platforma** orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi [7].

beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi nufuzi ortib, **siyosiy-huquqiy reyting** hamda **indekslardagi mavqei tobora yaxshilanib bormoqda;**

Jumladan, mamlakatimizda huquq ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida olib borilgan islohotlar natijasida **“World Justice Project”** tashkiloti tomonidan tuziladigan **Huquq ustuvorligi indeksida** O‘zbekiston so‘nggi uch yilda o‘z ko‘rsatkichlarini **14** pog‘onaga yaxshilab, 2023-yilda **142 ta** mamlakat orasida **78-o‘rinni** egalladi. Ma’lumki, ushbu indeksni belgilovchi **8 ta** indikator orasida “Asosiy huquqlarni himoya qilish”, “Tartib va xavfsizlik”, “Huquqni muhofaza qilish”, “Fuqarolik va jinoiy odil sudlov” kabi mezonlar muhim ahamiyatga egadir [8].

Bundan tashqari, **Transparency International tashkilotining korrupsiyani qabul qilish indeksida** mamlakatimiz **180 ta** davlat orasida 2024 yilda **121-o‘rinni** egallab, so‘nggi **7 yilda** mazkur Indeksdagi mavqeimiz **36 pog‘onaga** yaxshilandi [9].

oltinchidan, jamiyatdagi alohida huquq subyektlarining huquq va erkinliklari, shuningdek qonuniy manfaatlari kafolatlarini kuchaytiruvchi **institutsional tizim yanada rivojlantirildi;**

Xususan, **Inson huquqlari bo‘yicha Ombudsman, Bolalar Ombudsmani, Biznes-ombudsman** singari institutlar faoliyatining takomillash-tirilishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni ijro etilishi yuzasidan **jamoatchilik nazorati mexanizmlarining** joriy etilganligi fikrimizni to‘la asoslaydi.

Shu o‘rinda, 2023-yilda Inson huquqlari bo‘yicha Ombudsman nomiga kelib tushgan murojaatlarning **3586 tasi** ijtimoiy huquqlar, **1646 tasi** siyosiy huquq va erkinlar, **1991 tasi** shaxsiy huquq va erkinliklar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning aksariyati ijobiy hal etilgan. Bundan tashqari, **2024-yilning** avgust-sentabr oylarida bolalar Ombudsmanining sa’yi-harakatlari bilan Rossiya Federatsiyasida qarovsiz qolib ketgan jami **45 nafar** bola yurtimizga qaytarilgan [10].

yettinchidan, O‘zbekiston Respublikasining **BMTning inson huquqlari bo‘yicha kengashi bilan hamkorligi** hamda xalqaro tadbirlarda faolligi ortib bormoqda;

Shu asosda O‘zbekiston prezidenti **Shavkat Mirziyoyev 2021-yil** 22-fevraldagi **46-sessiyasida** ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo davlat vakili sifatida **nutq so‘zladi.** O‘zbekiston tarixida birinchi marta **Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz direktori,** akademik Akmal Saidov **2025—2028 yillarga mo‘ljallangan BMT Inson huquqlari qo‘mitasiga a’zo sifatida saylandi** [11].

Qolaversa, Samarqand BMTning Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro tadbirlari muntazam o‘tkaziladigan shaharga aylanib bormoqda. Jumladan, **2024 yil** 13 iyun kuni o‘tkazilgan **Inson huquqlari bo‘yicha to‘rtinchi forumda** inson huquqlari bo‘yicha nufuzli tashkilotlarning yuqori darajali vakillari hamda **200 nafardan** ortiq xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirok etdi.

sakkizinchidan, jinoyat-ijroiya qonunchiligiga jazoni ijro etish tizimi bilan bog‘liq xalqaro huquq normalarida belgilangan qoidalar ham joriy etildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat - ijroiya qonunchiligiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 17-dekabrdagi

ISSN 3030-3230

rezolutsiyasi bilan qabul qilingan **"Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari"** *(Nelson Mandela qoidalari)milliy* qonunchiligimizga tatbiq qilindi[12].

Shu tariqa inson huquq va erkinlarini ta'minlash sohasida erishilgan ko'plab ijobiy natijalarni sanab o'tishimiz mumkin. Bu bir tomondan, mazkur sohadagi islohotlar uzviylik kasb etayotganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan ayrim masalalar bo'yicha ishlar amalga oshirish jarayonida ekanligini anglatadi.

Aynan shunday jarayonlardan biri "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-46-son qaroriga muvofiq amalga oshirilayotgan O'zbekistonda 2020 – 2024 yillarda inson huquqlari sohasida ta'lim berish orqali yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan **Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining** to'rtinchi bosqichidir [13].

Ushbu dasturni amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" quyidagi **7 ta** asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

birinchi yo'nalish – yoshlarning inson huquqlari sohasidagi xabardorligini oshirish;

ikkinchi yo'nalish – davlat xizmatchilari uchun inson huquqlari, gender tengligi sohasida ta'lim tizimini takomillashtirish;

uchinchi yo'nalish – inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash;

to'rtinchi yo'nalish – aholining izolatsiyadagi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari o'rtasida inson huquqlari sohasida o'qitish tizimining samaradorligini oshirish;

beshinchi yo'nalish – inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish;

oltinchi yo'nalish – zamonaviy texnologiyalar, badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiyani mustahkamlash tizimining samaradorligini oshirish;

yettinchi yo'nalish – inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

2022-yilning 5-6 dekabr kunlari inson huquqlari bo'yicha ta'limni rivojlantirish masalalarini muhokama qilish maqsadida Samarqand shahrida tashkil etilgan "Inson **huquqlari sohasida ta'lim" Global forumi** ham ushbu dastur doirasidadir. Jami **120 dan** ortiq xalqaro ekspert va **2 mingdan** ortiq milliy tashkilotlar vakillari ishtirok etgan forumda – Markaziy **Osiyoda Inson huquqlari sohasida ta'limni rivojlantirish bo'yicha Samarqand harakatlar rejasi** qabul qilindi [14].

Mohiyatan, ushbu bosqich tadbirlari yoshlarni tenglik, inson huquqlariga amal qilish va kamsitmaslik ruhida tarbiyalash hamda inkluziv, tinch va osoyishta jamiyatni yaratishga yo'naltirilgan. Shu boisdan, ushbu ta'lim har bir fuqaroning inson huquqlariga nisbatan hurmatini rag'batlantirish va unga har tomonlama rioya etilishini ta'minlashda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan ko'rinadiki, Yangi O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, shaxsiy daxlsizlik kafolatlarini mustahkamlash choralarini ko'rish asnosida shaxsiy immunitet instituti tobora rivojlanib bormoqda.

O'z navbatida, yuqorida qayd etilganlar immunitet instituti yuridik tabiatiga ko'ra huquq tizimidagi barcha sohalariga daxldor ekanligini anglatadi. Odatda, immunitet huquqi deganda aksariyat holatlarda maxsus xizmat vazifalarni bajaradigan shaxslarning alohida huquqiy maqomi, ya'ni ularni kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashishdan tiyilish, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish jarayonida amal qiladigan himoya choralari, shuningdek daxlsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan huquqiy kafolatlar tushuniladi. Masalan, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda (223-modda) deputatlar, senatorlar, sudyalar va prokurorlar ushlash chog'ida immunitet huquqidan foydalanuvchi shaxslarga toifasiga kiritilgan. Shu bois, ularni ushlab turish hamda ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelish mumkin emas.

Biroq, "immunitet" so'zining lotincha "*immunitas*" atamasidan kelib chiqqani hamda mazmuniga ko'ra — biror *narsadan xalos, ozod bo'lish, qutulish* [15] ma'nolarini anglatishi inobatga olinganda, shaxsiy huquq va erkinliklarni tartibga soladigan barcha huquq tarmoqlarida qo'llasa bo'ladi. Qolaversa, ushbu institutning kelib chiqishiga asos bo'lgan Rim qonunlarida immunitet — shaxsni soliqlar, davlat bojlaridan

ozod qilish, aniq shaxsga yoki toifaga yoxud jamiyatning bir qismiga berilgan maxsus huquq sifatida belgilangan. Shu bois, milliy huquq tizimida shaxsiy immunitet kafolatlarini yanada kuchaytirish istiqbollarida inson huquq va erkinliklari, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga aloqador barcha institutlarni qamrab olish lozim bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, xalqaro huquq normalari va xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribalari asosida O'zbekistonda shaxsiy immunitetni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi **taklif va tavsiyalarni** huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir:

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1-moddasidagi prinsiplarni hayotga to'la tatbiq etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Huquqiy davlat" konsepsiyasi hamda 2025-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining "Huquqiy davlat" tamoyilini tatbiq etishning Davlat dasturini qabul qilish;

1-modda "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, **huquqiy,** ijtimoiy va dunyoviy davlat"

inson huquqlarini ta'minlashning tashkiliy-institutsional va huquqiy mexanizmlarini kuchaytirishga oid islohotlarni izchillik bilan davom ettirish;

inson huquqlarini himoya qiladigan qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikka oid sud amaliyotida uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Oliy Sud Plenumi qarorini ishlab chiqish;

yangi tahrirda qabul qilinadigan Jinoyat-protsessual kodeksini "Immunitet yoki imtiyozga ega shaxslarga nisbatan ish yuritish" nomli yangi bob bilan to'ldirish;

inson huquqlarini monitoring qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish,

huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun inson huquqlari, qiynoqqa qarshi kurashish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etish.

Muxtasar qilib aytganda, inson huquq va erkinliklari, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirishga doir islohotlarni izchillik bilan davom ettirish mamlakatimizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni barpo etishga, xalqaro huquqning umume' hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan **"Inson qadri uchun"** ezgu g'oyasini amalda to'liq tatbiq etishga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье широко освещена системная работа по укреплению законодательной и организационно-правовой базы защиты прав человека в новом Узбекистане, имплементации общепризнанных принципов свободы и неприкосновенности личности в национальное законодательство, выполнению международных обязательств и активизации сотрудничества по расширению гарантий неприкосновенности личности.

Ключевые слова: имплементация, национальное законодательство, гендерное равенство, права мигрантов, Хабеас корпус, презумпция невиновности, хлопковая кампания, GSP+, индекс.

Annotation. The article covers a wide range of systematic works on strengthening the legislative and organizational and legal framework for the protection of human rights in New Uzbekistan, implementation of generally accepted principles on freedom and personal immunity into national legislation, implementation of international obligations and activation of cooperation on the expansion of guarantees of personal immunity.

Key words: implementation, national legislation, gender equality, migrant rights, Xabeas Corpus, presumption of innocence, Cotton Campaign, GSP+, index.

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 июндаги “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6012-сон Фармони. [elektron manba]/.—URL://https://lex.uz/docs/4872355. (мурожаат вақти: 12.12.2024 й.)

2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 2023 йил 30 апрель куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган. // [электрон манба] — URL://https://lex.uz/uz/docs/6445145 (мурожаат вақти: 26.12.2024)..

3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал Кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган, 2013-ХИИ-сонли Қонуни билан тасдиқланган. [электрон манба] — URL://https://lex.uz/docs/111460 (мурожаат вақти: 11.12.2024).

4. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 16 июндаги “Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатиш тўғрисида”ги ЎРҚ-848-сон Қонуни. [elektron manba] — URL://https://lex.uz/docs/6502543 (murojaat vaqti: 19.11.2024).

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 21 ноябрдаги “Давлат ҳисобидан юридик ёрдам кўрсатадиган адвокатларни жалб этиш ва уларга ҳақ тўлаш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 774-сон қарори. [elektron manba] — URL:// https://lex.uz/docs/ 7228726 (murojaat vaqti: 09.12.2024).

6. BMT Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari Volker Turk O‘zbekistonga rasmiy tashrifini yakunladi. [elektron manba] — URL://https://uzbekistan.un.org /uz/223263-bmt-inson-huquqlari-bo%CA%BByicha-oliy-komissari-volker-turk-o%CA%BBzbekistonga-rasmiy-tashrifini.

7. https://xotin-qizlar.uz.

8. Ўзбекистон ҳуқуқ устуворлиги индексида 78-ўринни эгаллади. [elektron manba] — URL://https://yuz.uz/ news/ozbekiston-huquq-ustuvorligi-indeksida-78-orinni-egalladi.

9. O‘zbekiston Korrupsiyani qabul qilish indeksida 121-o‘rinni egalladi. [elektron manba] — URL://https://yuz.uz /https://www.transparency.org/ en/cpi/2024.

10. Россияда қаровсиз қолиб кетган 4 нафар бола Ўзбекистонга қайтарилди. [elektron manba] — URL: https://yuz.uz/news/rossiyada-qarovsiz-qolib-ketgan-4-nafar-bola-ozbekistonga-qaytarildi.

11. Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази матбуот хизматининг 2024 йилдаги фаолияти бўйича ҳисобот. [elektron manba] — URL: http://nhrc.uz/uz/news/m14690.

12. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия Кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 1 сентябрда қабул қилинган [электрон манба] — URL:// https://lex.uz/docs/-163629 (мурожаат вақти: 3.12.2024).

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 07 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги Миллий таълим дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-46-сон қарори. [elektron manba] — URL: https://lex.uz/uz/docs/6378537.

14. А.Х. Саидов. Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги сифатли таълимдан – инсон ҳуқуқлари маданиятини юксалтириш сари. [elektron manba] — URL: https://parliament.gov.uz/oz/news/inson-huquqlari-sohasidagi-sifatli-talimdan-inson-huquqlari-madaniyatini-yuksaltirish-sari.

15. https://uz.wikipedia.org/wiki/Immunitet.

HARBIY XIZMATCHILAR MEDIAMADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING ZARURIYATI

Akramova Shaxnoza Abrorovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar
bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor

Shirayeva E’tibor Rustamovna ,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Axborot xizmati boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy dunyodagi ahamiyati va dolzarbligini ko‘rib chiqqan holda falsafiy hamda pedagogik jihatlariga alohida e’tibor qaratildi. Zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot muassasalari kelajak avlodda mediamadaniyatni shakllantirishda vatanpavarlik ruhida tarbiyalash masalasiga o‘ziga xos innovatsion yondoshmoqda. Xususan, harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari ommaviy axborot vositalari asosida mediata’limning tizimli vazifalariga kiritilmoqda.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, vatanparvarlik tarbiyasi, harbiy xizmatchilar, mediata’lim, mediamadaniyat.

Globallashuv sharoitida mamlakatlararo xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi, milliy va global xavfsizlikka qarshi tahdidlar ortib borayotgani, ayrim mintaqalarda qurolli to‘qnashuvlar davom etayotgani, tahlikali vaziyat saqlanib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda zamonaviy urushlarning shakli, uslubi va vositalari o‘zgarib borish tendentsiyalari, inson ongi va qalbini egallashga qaratilgan har qanday axborot xurujlari tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan strategiyalarni modernitsiyalashtirishni talab etmoqda. Chunonchi, yuksak professional, harbiy qasamyodi va vatanparvarlik burchiga sadoqatli bo‘lgan irodasi metin va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning hayotiy va professional ko‘nikmalarini ilm-ma’rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakat hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, geopolitik jarayonlarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolar hanuzgacha saqlanib qolmoqda.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoev tomonidan joriy yilda Xavfsizlik kengashining Qurolli Kuchlar va harbiy-ma’muriy sektorlarning 2023-yildagi faoliyati yakunlari va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilish so‘zlagan nutqida globallashuv jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o‘ta murakkab sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani alohida ta’kidlab, “Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur”[1], – deya yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida mediamakonda olib borilayotgan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ishlarni kuchaytirish kabi dolzarb vazifalarini qo‘ydi.

Bu esa harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini singdirish, ularda harbiy xizmatdan faxrlanish va har qanday sharoitda Harbiy qasamyodiga sodiq qolish, o‘z Vatanida tinchlik degan buyuk ne’matni asrab-avaylash kabi tuyg‘ularni kuchaytirish dolzarb ahamiyatga

ISSN 3030-3230

ega hisoblanadi.

Vatanparvarlik – axloqiy va siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg‘u bo‘lib, uning asosiy mazmuni – Vatanga cheksiz muhabbat va uning manfaatlarini har qanday shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishga doim tayyor turishdir. Garchi, vatanparvarlik tushunchasi bir necha asrlardan beri mavjud bo‘lsada, unda hech bir ma’no jiddiy o‘zgarishlariga uchramagan, deb bemalol ayta olamiz. Chunki vatanparvarlik – asrlar va ming yilliklar davomida mustahkamlanib kelgan eng chuqur va ezgu insoniy tuyg‘ulardan biridir. U o‘z Vataniga, o‘z xalqiga sadoqat va muhabbat, ularning o‘tmishi va buguni bilan faxrlanish, Vatani himoya qilishga doimo shay turish, uning ravnaqi yo‘lida bor kuch-g‘ayratini ayamay mehnat qilishni anglatadi. Pedagogik ensiklopediya lug‘atida “vatanparvarlik” tushunchasiga shunday ta’rif berilgan: uning mohiyati - “Vatanga, ona zaminga, o‘z madaniyatiga muhabbatdir. Vatanparvarlikning bu tabiiy asoslari uning burch va fazilat sifatidagi axloqiy ahamiyati bilan uyg‘unlashadi” [2].

Vatanparvarlik – har bir shaxsning eng muhim ma’naviy boyligi, uning axloqiy qiyofasini belgilab beruvchi yuksak tuyg‘u. U shaxsning taraqqiyot darajasini belgilaydi va Vatan ravnaqi yo‘lida faol o‘zini namoyon etishda, uning kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishda aks etadi. Vatanparvarlik – bu shunchaki chiroyli so‘zlar emas, balki amaliy harakatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak tuyg‘u.

Vatanparvarlik o‘z Vatanining yutuqlari va madaniyati bilan faxrlanishni, uning o‘ziga xos xususiyatlari va madaniy boyliklarini asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish istagini va millatning boshqa a’zolari bilan o‘zini bir tan, bir jon deb bilishni, o‘z manfaatlarini mamlakat manfaatlariga bo‘ysundirishga tayyorlikni, Vatan va o‘z xalqi manfaatlarini har qanday tahdiddan himoya qilishga intilishni anglatadi.[3] Har bir shaxs o‘z yurtiga mansub bo‘lib, uning taqdiriga befarq emas. Vatanparvarlik tuyg‘usi insonni xalqining tarixi, madaniyati, an’analarini o‘rganishga, ona Vatanining go‘zalligini ko‘ra bilishga undaydi.

Asrlar davomida davlatlarning mavjudligi vatanparvarlikning tarixiy asosini tashkil etadi. Bu ona yurtga, tilga, an’analarga mehr-muhabbatni shakllantiradi. Millatlar va milliy davlatlar shakllanayotgan bir paytda, vatanparvarlik xalqning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini aks ettiruvchi ijtimoiy ongning ajralmas qismiga aylanadi.

Faylasuflarning fikriga ko‘ra, vatanparvarlik jamiyat va davlat asosining o‘ziga xos poydevori, uning mavjudligining tayanchi, barcha ijtimoiy va davlat tizimining samarali faoliyat yuritishining muhim shartlaridan biridir [4]. Jamiyatda qaror topgan hayot qadriyatlari va me’yorlarini o‘zlashtirish obyektiv, ongli jarayondir. Vatanparvarlik qonga singib qolmagan, u tug‘ma emas, balki ijtimoiy xususiyatdir va shuning uchun meros bo‘lib o‘tmaydi, balki shakllanadi, tarbiyalanadi.

Davrlar mobaynida qadriyatlar tizimining o‘zgarishi jamiyat kayfiyatining o‘zgarishiga muvofiq kelmadi. Globallashuv davrida kosmopolitizm g‘oyalari keng targ‘ib qilinayotganligi natijasida vatanparvarlik tushunchasi asta-sekin yosh avlodni tarbiyalashning zaruriy elementidan ortiqcha, eskirgan unsurga aylantirishga urunishlar sezilmoqda [5]. Yoshlarda vatanparvarlikni rivojlantirishga tobora rasmiyatchilik bilan yondashila boshlanmoqda, bu esa ularda vatanparvar bo‘lish istagini so‘ndirib, bunday shaxsiy fazilatni zaruriyatiga shubha uyg‘otilmoqda. An’anaviy tarbiya tizimining qadrsizlanishi, vatanparvarlik va jamoaviylik qadriyatlarini o‘zlashtirmagan yosh avlodning o‘ta individualizm va xudbinlik qadriyatlari asosida shakllanishiga olib kelmoqda.

Olimlarning ta’kidlashicha, inson shaxs sifatida jamiyatdan, millatdan, Vatandan uzilgach, u muqarrar ravishda jamoatchilik va fuqarolik mazmunidan mahrum bo‘lgan g‘arazli qadriyatlar tuzog‘iga tushib qoladi. Bu shaxsning xudbinligi rivojlanishining asosidir. Agar jamiyat shaxs muammolariga befarq bo‘lsa, unda himoyasiz shaxsning javob reaktsiyasi jamiyatga nisbatan tajovuzkorlik, turli ko‘rinishlardagi g‘ayriijtimoiy xulq-atvor: jinoyatchilik, terrorizm, giyohvandlik va shu kabilarda namoyon bo‘ladi [6]. Yangi O‘zbekistonda har bir fuqaro bir tomondan an’anaviy qadriyatlarga asoslangan jamiyatda yashashga intiladi, shu bilan birga zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni ham istaydi.

Dunyoda ikki qadriyat tizimi - sotsialistik tizimga antiteza sifatida kelgan liberal qadriyatlar tizimi va asrlar davomida shakllangan an’anaviy qadriyatlar tizimi to‘qnashib ketdi. Natijada, qarama-qarshi qadriyatlarga bir vaqtning o‘zida intilishda namoyon bo‘ladigan, qadriyat ongining ikkilanishi kuzatiladigan odamlar soni sezilarli darajada oshdi’ [7]. Afsuski, hozirgi zamonda moddiy qadriyatlar ma’naviy qadriyatlardan ustun kelib qolmoqdaligi sezilarli ravishda namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda yosh inson ongiga OAV va Internet tarmog‘idan nimalar targ‘ib qilinmoqda? Qanday yo‘l bilan topilishidan qat’i nazar ko‘proq pul topish va evaziga qimmatbaho mashina, yaxshi kiyim sotib olish, dam olish kunlari esa ko‘ngilxushlik va tungi klublar... Bunday vaziyatda chindan ham vatanparvarlik, milliy qadriyatlar tushunchalari o‘z-o‘zidan so‘nggi o‘rinlarga tushib boradi. Eng achinarlisi, zamonaviy yoshlar jamiyatida deyarli bunday yashash mumkin emasligi, bunday qarashlar kelajak uchun xavfli ekani haqida chuqur mulohaza qilishiga to‘sqinlik qiluvchi axborot xurujlari ham talaygina.

MDH pedagoglari, sotsiologlari, faylasuflarining aytishlaricha, yoshlar vatanparvarlikni tushuncha sifatida, qadriyat sifatida biladi va qabul qiladi, lekin uni amalda qo‘llash, unga amal qilish borasida ko‘plab muammolarga duch keladi [8]. Nega? Chunki zamonaviy jamiyatda vatanparvarlikning yorqin va munosib namunalari yetarlicha emas. Agar bunday zamondosh insonlar mavjud bo‘lsa ham, ular haqida yoshlarga eslatish, ularni targ‘ib qilishning zamonaviy mexanizmlari takomillashtirilmagan. Natijada yoshlar ongida “Moddiy boylik - eng oliy ne’mat” degan xavfli tushuncha shakllanib bormoqda. O‘zbek xalqi ongida Vatan himoyachisi, yaxshilik, adolat timsoli ertak qahramonlari umumlashtirilgan va real qiyofalarda; fidoyi inson hayot tarzi, jangchi irodasi, jasur va fidoyi ota va mehribon ayol obrazi mustahkam shakllangan. Lekin, ushbu timsollarning zamonaviy fuqarolar hayotida qanday aks etishi, vatanparvarlik tarbiyasini modernizatsiyalash zarurati tobora namoyon bo‘lib bormoqda.

Bizning Qurolli Kuchlarimiz doimiy ravishda yoshlar bilan to‘ldirib borilmoqda. Bu yoshlar qisqa muddat ichida zamonaviy jangovar texnika va qurol-aslahalarni o‘zlashtirishi va ulardan mohirona foydalanishni o‘rganishlari kerak. Qurolli Kuchlardagi yosh askarning muvaffaqiyatlari ko‘p jihatdan harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tizimining maqsadga yo‘naltirilgan ishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimi bajaradigan vazifalar uning tuzilishini belgilab beradi. Tashkiliy jihatdan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimining tarkibiy qismlari axloqiy-ruhiy, tarixiy, vatanparvarlik, harbiy-texnik va jismoniy tayyorgarlik bo‘lib hisoblanadi.

Quyida harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmun-mohiyati 1-rasmda ifodalangan.



1-rasm. Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmun-mohiyati

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari strategik yo‘nalishlarini belgilab olishda harbiy xizmatni yuksak axloqli ofitserlar bilan ta’minlanishiga alohida urg‘u beriladi. Harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatining murakkab xarakteri uning jangovar salohiyati, Umumharbiy nizomlarni chuqur bilishi, jangovar tadbirlarini amalga oshirish ko‘nikmasi va malakasiga egaligi, mamlakat xavfsizligiga rahna soluvchi shaxslar xatti harakatlarini oldindan sezishga qodirligi, kasbiy mas’uliyati bilan izohlanadi. Shuni hisobga olgan holda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo‘yicha islohotlar” 5.2-ustuvor yo‘nalishining 97-maqsadida “qo‘shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy jang va harbiy mojarolar hamda xorijiy armiyalarning ilg‘or tajribasini o‘rganish asosida qo‘shinlarning jangovar shayligi va mahoratini rivojlantirish, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayonlariga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish”[9] vazifalari belgilandi.

Harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda o‘ziga xos alohida e’tiborni talab qiluvchi axloqiy-ruhiy

ISSN 3030-3230

va jangovar sifatlarga xarakterli quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: vatanparvarlik, Jangovar bayroqqa va Davlat bayrog‘iga sodiqlik, harbiy o‘rtoqlik va jamoaviylik, komandirga nisbatan hurmat va jangda uni himoyalash, insonparvarlik; intizom va yuksak jangovar san’at madaniyati va h.k.

Hozirgi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda internet iste’molchilari soni tobora ortib bormoqda. So‘nggi yillar mobaynida internet global tarmoqqa aylanib ulgurdi. Buning natijasida dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyat yuzaga keldi, balki jahon hamjamiyatida globallashuv jarayonlari tezlashib ketdi.

Yagona axborot makonida harbiy xizmatchilardan mediaaxborotni qabul qila olish va medialashgan muloqotni amalga oshira bilishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda mediamadaniyatlilik harbiy xizmatchining muhim sifatlaridan biridir, uni shakllantirish esa – harbiy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida “media” atamasi paydo bo‘ldi. “Media” atamasi lotin tilidan (media, medium so‘zidan) olinib, qo‘llanma, vositachi ma’nolarini anglatadi [10].

Media – bu jamiyatda to‘g‘ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo‘lib, insonlar bilan vaqtincha o‘zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg‘ituvchi makondir. “Media” atamasi – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo‘llangan [11].

Mediamadaniyat – turli media asarlarni tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisi [12].

Mediamadaniyat – harbiy xizmatchi madaniyati uchun zarur qism bo‘lib, ommaviy media turlari, ular orqali tarqatilayotgan axborotlar bilan tanishish, ularni tanlash, saralash, tahlil qilish va baholash asosida tegishli sohalar bo‘yicha nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish, puxta egallash, ushbu bilimlarni harbiy xizmat, kundalik, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy (amaliy) faoliyatda mahorat bilan qo‘llay olish qobiliyatlarining yig‘indisi. Mohiyatiga ko‘ra harbiy xizmatchilar tomonidan mediamadaniyatning o‘zlashtirilishi bir necha bosqichda evolyusion rivojlanishga asoslanadi.

Harbiy xizmatchilarda mediamadaniyatni shakllanish jarayonining umumiy mohiyati: mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediamahorat va mediakompetentlikda o‘zining to‘liq ifodasini topadi. Mediata’lim harbiy xizmatchilarda mediamadaniyatni va savodxonlikni shakllantirib, ma‘‘naviy estetik va intellektual jihatdan ularning nutqini, muloqot qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda internet tarmog‘i yordamida turli sahifalardan, jumladan, Youtube, Mytube, Facebook, Telegram, Instagram, WhatsApp, Twitter kabi axborot uzatish vositalaridan olinayotgan turli xil ko‘rinishdagi axborotlarni yopish va taqiqlash, uzatilayotgan turli syujetlarni chegaralashning imkoniyati kamroq bo‘lganligi sababli, katta sahnada — mediata’lim tushunchasining paydo bo‘lishi, uning kelajakda ta’lim sohasida rivojlanishi imkoniyatlarini yanada orttirib yuboradi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y, bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovni qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak”[13] degan fikrlari har birimizga katta ma’suliyat yuklaydi. Bu muammo albatta-ki, harbiy xizmatchilarni chetlab o‘tadi degani emas. Zero, hozirgi kunda mamlakat tinchligi va xavfsizligiga rahna solayotgan, milliy mentalitetga, tarbiyaga zid bo‘lgan, jamiyatni o‘z xavf-xatarlari bilan tashvishga solayotgan asosiy muammo bu informatsiyaviy tahdidlar muammosidir. Ushbu muammo davlatning tinchlik va xavfsizligiga, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga, aholi hayotiga o‘zining shiddatli salbiy ta’sirlari bilan katta tahlika solmoqda.

Harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mediamadaniyatni shakllantirishda OAV, Internet tarmoqlaridagi mediamahsulotlarni iste’mol qilish bilan birga axborotlarni ishlab chiqarish, tarqatish va qabul qilish, axborotni tanqidiy tahlil qilish, ijtimoiy axloqiy me’yorlarga rioya qilish va media

resurslardan samarali foydalanishni o‘rgatishdan iborat.

Mediamadaniyatga ega bo‘lgan harbiy xizmatchi:

- soxta ma’lumotlarga qarshi kurashni o‘rganadi;
- mediavositalar orqali axloqiy me’yorlarni saqlashga ko‘maklashadi;
- axborotning to‘g‘ri va xolis bo‘lishini ta’minlash uchun media sohasidagi manipulyatsiyalarga qarshi kurasha oladi.

Harbiy xizmatchilarda mediamadaniyatni rivojlantirishda oliy harbiy ta’lim muassasalari alohida rol o‘ynaydi. Ta’lim muassasalari o‘quv dasturlarida mediasavodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus kurslar, mahorat darslari va seminarlar tashkil etish orqali harbiy xizmatchilarni axborotga tanqidiy yondashishga o‘rgatadi. Bu jarayonda harbiy xizmatchilar ijtimoiy tarmoqlar va axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ham katta ahamiyatga ega.

Harbiy hizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga mediata’limning juda katta yordam beradi. Bu jarayonda mediata’limning asosiy vazifalari:

- harbiy xizmatchilarni zamonaviy axborot sharoitida hayotga tayyorlash;
- turli ma’lumotlarni qabul qilishga, uni tushunish va tushuntirishga, ruhiyatga ta’sirini anglashga, texnik vositalar orqali noverbal kommunikatsiya asosida aloqa usullariga ega bo‘lishga o‘rgatish;
- har qanday shakldagi mediamahsulotlarni mafkuraviy tomondan filtrlashga o‘rgatish va xavfsizlikka tahdid qiluvchi jihatlarini prognozlay olishiga o‘rgatishdir.

Xulosa o‘rnida, harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mediamadaniyat jamiyatda axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va uni oqilona tarqatishdagi muhim ahamiyatga egadir. U har bir harbiy xizmatchiga axborot oqimida davlat va jamiyat xavfsizligi pozitsiyasi yo‘lini topishda, shuningdek, shaxsiy xavfsizligini ta’minlashda va ijtimoiy tarmoqlarda muloqotda bo‘lishda zarur ko‘nikmalarni beradi. Shuning uchun harbiy xizmatchilarda mediamadaniyatni rivojlantirish, axborot savodxonligini oshirish va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish orqali harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini ta’minlaydi.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделено философским и педагогическим аспектам патриотического воспитания, рассматривая его значение и актуальность в современном мире. Современные педагогические научно-исследовательские учреждения придерживаются своеобразного инновационного подхода к вопросу патриотического воспитания в формировании медиакультуры у подрастающего поколения. В частности, вопросы военно-патриотического воспитания военнослужащих включаются в системные задачи медиаобразования на основе средств массовой информации.

Ключевые слова: патриотизм, патриотическое воспитание, военнослужащие, медиаобразование, медиакультура.

Annotation. In this article, special attention was paid to the philosophical and pedagogical aspects of patriotic education, considering the importance and relevance of it in the modern world. Modern pedagogical research institutions take a unique innovative approach to the issue of upbringing in the spirit of patriotism in the formation of mediamadanism in the future generation. In particular, the issues of educating military personnel in the spirit of military patriotism are being included in the systemic tasks of media education on the basis of the media.

Key words: patriotism, patriotic education, military personnel, mediation, mediamadaniyat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Prezidenti Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini o‘tkazdi. 12.01.2024 // Elektron resurs: https://president.uz/uz/lists/view/6967 Murojaat etilgan sana: 4-aprel 2024-yil.

ISSN 3030-3230

2. Safarova R. PEDAGOGIKA entsiklopediya. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 321b.

3. Хасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Хайдаров М.Э., Хасанбаева О.У. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент: Фан, 2006. – 238 б.

4. Александер Дж. Смыслы социальной жизни: культурсоциология. М.: Праксис. 2013. 640 с.

5. Нуссбаум М. Патриотизм и космополитизм // Логос. 2006. №2. С. 110-119.

6. Müller, J.W. Constitutional patriotism. Princeton and Oxford : Princeton University Press. (2007) 177 p.

7. Taylor, Ch. (2002) Why Democracy needs Patriotism // Nussbaum, M. C. For love of country? Massachusetts: Beacon Press. 153 p. P. 119–121

8. Студенникова С.Л. Патриотическое воспитание молодежи — залог успешного развития государства и общества // Ученые записки Орловского государственного университета. 2019 №3. С. 278–283.

9. “O’zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2023 yil 11 sentyabr PF-158-son Elektron resurs: https://lex.uz/ru/docs/6600413 Murojaat etilgan sana: 15 aprel 2024 yil.

10. Worsnop, C.M. (2004). Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center for Excellence in Media Literacy, 60p.

11. Уматалиев З. Медиахавфсизлик ёшларимиз келажагининг пойдевори сифатида. — Илмий-педагогик ва ўқув-методик нашрлар орқали информациявий таҳдидларга қарши курашиш: профилактика, технология, механизм‖ республика илмий-амалий конференция тўплами. – Т.: 2017. 223 б.

12. Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларининг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси (Информатика ва ахборот технологиялари ўқув фани мисолида): п.ф.б.ф.д (PhD) диссер.... Тошкент, 2018. – Б. 36-37.

13. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. 488 б.

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING ZARURATI

Xomidov Eldor Olimovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi boshlig'ining o'rinbosari,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada, oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini zarurligi, sohaga oid olimlarning fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlikka oid daromadlari tahlil qilingan. Oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatidagi qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlar va amaliyotdagi tashkiliy muammolar to'g'risida fikr yuritilgan.
Kalit so'zlar: oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati, budjetdan tashqari daromad, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, innovatsion tadbirkorlik.

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar barcha sohalar singari ta'lim sohasiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlarning tub mohiyati mamlakatimiz yoshlarining bunyodkorlik qobiliyati va salohiyatini oshirish, ularni kelajakdagi hayotiy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishda imkoniyatlarini kengaytirish, fan, ta'lim hamda ishlab chiqarishni bir-biri bilan integratsiyasini yanada mustahkamlashdan iborat. Mazkur maqsadlarning asosiy sharti sifatida oliy o'quv yurtlarining o'qitish metodologiyasi, ta'limning ilg'or uslublarini tezkorlik bilan joriy etish va rivojlanish yo'nalishlarini mustaqil belgilashi va o'zlarining ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish huquqlariga ega bo'lishiga bog'liq. Chunki, dunyoning eng sara xorijiy universitetlarini muvaffaqiyati va raqobatbardoshligining asosiy sharti ham ularning tadbirkor universitet sifatida faoliyat yuritishida.

Oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatining dolzarbligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining ikkinchi bobi b) bandining 2-qismida innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish[1] mumkinligi belgilangan.

Shu boisdan, oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarni, tahsil olayotgan talabalarni davlat va xususiy sektorni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, o'sib borayotgan aholini ish bilan ta'minlash muammolarini ilmiy asoslar asosida yechishga ham undaydi. Shu sababli universitetlar mamlakat iqtisodini yangi innovatsion g'oyalar asosida drayverini harakatga keltiruvchi, rivojlantiruvchi kuch sanaladi.

Mohamed Imam Salemning fikricha, innovatsion tadbirkorlikka yaqinlashish, demografik tendensiyalar, bilimga asoslangan iqtisodiyotga bo'lgan ehtiyoj oliy ta'lim tadbirkorligiga bo'lgan zaruratni oshirdi. Oliy ta'lim tadbirkorligi yangi ish o'rinlari yaratish, jamiyatdagi qashshoqlik muammolarini hal qilish yo'llarini taqdim etadi[2].

Globallashuv jarayonlarining jadallik bilan rivojlanib borishi, kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan murakkablik va noaniqliklar bilan kurashishda, ekologik barqarorlikni saqlab qolish, ijtimoiy o'zgarishlar va bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tishda oliy ta'lim tadbirkorligi muhim rol o'ynaydi[3].

Professor P.D.Hannonning fikrlari hozirgi zamon oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorligining muhimligini ko'rsatadi. U oliy ta'limdagi tadbirkorlik innovatsiyalarni qo'llab – quvvatlashning asosiy omili ekanligini va oldindan aytib bo'lmaydigan juda notinch davrda muvaffaqiyatga erishish uchun muhimligini ta'kidlaydi[4].

Aslida P.D.Hannoning fikrlarini rad etmagan holda ushbu hodisaga biz boshqacha yondashishni ma'qul deb topdik. Ya'ni, tadbirkorlar innovatsiyalarga intilib kelishgan. Chunki, har qanday tadbirkorni mahsuloti (u tomonidan ishlab chiqarilgan ma'nosida) bozorda talabgir bo'lmasa, raqobatbardosh bo'lmasa, sifat jihatidan ortda qolsa ko'zlagan muvaffaqiyatiga erishishi nihoyatda qiyin kechadi. Shu sababli, tadbirkorlik subyektlari o'zlarining mahsulotlarini doimiy tarzda yangilangan, sifatli, takomillashtirilgan holda bozorga olib chiqishga va bozordan chiqib

ISSN 3030-3230

ketmasliklari uchun intilishadi. Bu esa g‘oya egalarini maydonga kelishiga zamin yaratadi. Bu intellekt egalari albatta oliy ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritishadi. Shu sababdan jamiyat va davlat tadbirkorlikni rivojlantirishda OTTlariga ehtiyoj sezib bormoqda.

Oliy ta’lim tashkilotlari tadbirkorlik faoliyatining yana bir zarurati shundan iboratki mamlakatimiz yoshlari hamda talabalarni faol tadbirkorlar sifatida o‘qitish va tadbirkorlik faoliyatiga oid bilimlarni o‘zlashtirishni talab qilish bilan bog‘liq. Bunda bir tomondan tadbirkorlik faoliyati talabalarga innovatsion g‘oyalarni vujudga kelishi, o‘z istiqbollarini innovatsion g‘oyalar asosida rivojlantirish imkoniyatlariga olib kelsa, ikkinchi tomondan, universitet professor-o‘qituvchilari va talabalari tomonidan yangi g‘oyalar asosida o‘z bilimlarini iqtisodiy qiymatga aylantirilishiga olib keladi.

Bu borada Respublikamizda barcha universitetlarda mazkur jarayon bir maromda olib borilmayotgan bo‘lsa-da, ammo bazi oliy ta’lim tashkilotlarida (keyingi o‘rinlarda OTT) ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Masalan, 2022-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universitetida davlat grantlari asosida 13 (o‘n uchta) ta loyiha doirasida 6726,4 million so‘mlik ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa, xo‘jalik shartnomalari doirasida 3592,7 million so‘mlik ishlar bajarilgan. Yuqoridagi bajarilgan ishlar hajmi universitetdagi 404 nafar professor-o‘qituvchi xodimlar zimmasiga to‘g‘ri kelgan.

2021-yilda esa mazkur institut tadbirkorlik faoliyati ortidan 4 milliard 79,921 million[5] so‘mlik budjetdan tashqari mablag‘larni ishlab topgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarini bosqichma – bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori oliy ta’lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati uchun muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Qarorga muvofiq, o‘zini – o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan OTMlarga qo‘shimcha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, iqtisodiyot tarmoqlari mutaxassislarining malakasini oshirish va boshqa pullik ta’lim xizmatlarni joriy etish, oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish qo‘shimcha vazifa etib belgilandi[6].

Mazkur qarorning ahamiyatli tomoni oliy ta’lim tashkilotlari oldiga muntazam ravishda daromad keltiruvchi manbalarni hamda ichki va tashqi bozorlarda ilmiy tadqiqot natijalari iste’molchilarini izlab topish, shuningdek, iste’molchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda buyurtma asosida innovatsion tadqiqot ishlarini olib borish ko‘zda tutilgan.

Universitetdan bilimlarni xususiy sohaga o‘tkazish innovatsiyalar va iqtisodiy o‘sishni yaratish uchun eng muhim manbalardan biri sanaladi. Shunga ko‘ra, butun dunyoda hukumatlar o‘z universitetlaridagi intellektual bilimlarini oliy ta’lim tashkilotlaridan xususiy ishlab chiqarish va sanoatga o‘tkazishda faolroq bo‘lishga undashgan. Albatta, yangi tadbirkorlikni boshlashda bilimlarni bozorga yo‘naltirish va natijada makro darajada texnologiyalarni rivojlantirishning eng ajoyib usullaridan biri sanalgan. Shunday qilib, universitet va hukumat siyosatidagi so‘nggi o‘zgarishlar universitetlarning ilmiy xodimlari orasida kuchli tadbirkorlik ruhini o‘rnatishga qaratilgan[7].

Hozirgi kunga qadar ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari natijalarini tijoratlashtirishning asosiy buyurtmachisi davlat hisoblanadi. Lekin, davlat ro‘yxatidan o‘tgan tadbirkorlik subyektlari, oliy ta’lim tashkilotlari va xususiy notijorat tashkilotlar ham yildan yilga iste’molchi sifatida ortib bormoqda.

Oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati yildan – yilga ortib, iste’molchilarining ham doirasi kengaymoqda. Shunga qaramay ko‘pgina xorijiy huquqshunos, iqtisodchi va siyosatchi olimlar o‘rtasida bahsli bo‘lgan masalalar borki, ular OTTlarini vazifasi ta’lim-tarbiya berish, kadrlarni amaliyotga tayyorlash, ularga bilim berish deb hisoblashadi. Bundan tashqari, oliy ta’lim tashkilotlarini boshqaruvchi ko‘pchilik rahbarlar universitetning tadbirkorlik faoliyati deganda pullik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, talabalarni shartnoma asosida o‘qitish yoki universitetning bo‘sh turgan bino – inshootlarini ijaraga berish deb tushunishadi. Aslida gap professor-o‘qituvchilar va talabalarning intellektual faoliyatini iqtisodiy qiymatga aylantirish orqali tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish to‘g‘risida bormoqda. Chunki, OTTlaridagi tadbirkorlik faoliyati intellektual faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon professor – o‘qituvchilar va talabalarni aqliy faoliyati natijasida vujudga kelgan g‘oyalarni tijoratlashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

OTTlari tadbirkorlik faoliyatining

dolzarbligini ijtimoiy hayotning o‘zi taqozo etib turgan bo‘lsa-da, milliy qonunchiligimiz hamda amaliyotda ayrim bo‘shliqlar va muammolar mavjud. Jumladan:

Birinchidan, ta’lim tashkilotlarining tashkiliy - huquqiy shakli bu faoliyat turiga mos kelmaydi;

Ikkinchidan, qonunchiligimizda oliy ta’lim tashkilotlarining iqtisodiy faoliyati, budjetdan tashqari daromadi, xo‘jalik faoliyatining huquqiy ta’rifi mavjud emas;

Uchinchidan, oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan yaratilgan intellektual faoliyat natijalarini muhofazaga olish bilan bog‘liq ziddiyatlarning mavjudligi;

To‘rtinchidan, universitetlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilishdagi boshqaruv aloqalarining mavjud emasligi.

Dunyoda universitetlarning tadbirkorlik faoliyatiga oid turlicha yondashuvlar mavjud. Buyuk Britaniyaning OTTlarida tahsil olgan bitiruvchilarni tadbirkorlik faoliyatini baholovchi Milliy kengash (NCGE)ning tahliliy baholashiga ko‘ra 100 ta eng yaxshi rivojlangan, o‘suvchi, texnologiyalarga asoslangan tadbirkorlik subyektlarining 80% dan ortig‘i universitetda tadbirkorlik ko‘nikmalarini egallagan bitiruvchilar tomonidan boshqarilib kelinayotganligi aniqlangan[8].

Ammo, xuddi shunday baholash bo‘yicha AQSHning Kauffman jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijasiga ko‘ra 89% tadbirkorlik subyektlarini universitetda tadbirkorlik dasturiga ega bo‘lmagan bitiruvchilar tomonidan boshqarilishi aniqlangan.

Fikrimizcha, ikkala rivojlangan mintaqalarning OTTlari bitiruvchilarining turli xil ko‘nikmalarga ega mutaxassislari tomonidan texnologik rivojlangan firmalarni tashkil etishi va boshqarish ko‘nikmasi bo‘yicha muvaffaqiyatga erishishi universitet boshqaruvidagi ishlarni tashkillashtirish bilan bog‘liq. Chunki, Yevropa universitetlarida talabalar o‘zlarining mutaxassisliklari doirasida tadbirkorlik fanini o‘qishadi va ularda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish muhitiga e’tibor qaratiladi. Bu esa, OTTlarida tadbirkor universiteti tushunchasini ommalashuviga olib kelmoqda.

AQSHda OTTlarining talaba va professor-o‘qituvchilari tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqot ishlanmalarni bevosita tijoratlashtirish natijasida tadbirkorlik universiteti tushunchasi vujudga kelgan.

Mamlakatimizda esa bu tushunchalar hali ommalashmagan bo‘lsada huquqiy asosi yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 62-moddasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega[9] ekanligi ko‘rsatilgan. Fikrimizcha, ushbu normaning mustahkamlanishi OTTlarining tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini to‘liq huquqiy jihatdan o‘zida aks ettirmasada qisman huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun OTTlarining tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solish, olingan daromadlarni taqsimlash tartibi, buyurtma asosida amalga oshiriladigan tadqiqot ishlari bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga oid oliy ta’lim tashkilotlarining namunaviy nizomini ishlab chiqish lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan muammolarni milliy qonunchiligimizda qayta ko‘rib chiqib uni davr talabiga moslashtirmasak, OTTlarining xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritishini, ma’muriy boshqaruvdan tortib to o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot jarayonini tashkil etishgacha akademik erkinlikka erishishi ta’minlanmasa, bizning oliy ta’lim tizimimiz jamiyatning progressiv rivojlanish drayveri, yangi kashfiyotlar manbai va raqobatbardosh iqtisodiyot yaratish asriy orzularimizni arzonligicha saqlanib qolishiga olib kelishi mumkin.

Аннотация. В статье рассматривается необходимость предпринимательской деятельности в высших учебных заведениях и мнения ученых в этой области. Кроме того, был проанализирован предпринимательский доход высших учебных заведений, действующих в нашей стране. В статье рассматриваются имеющиеся пробелы в законодательстве и организационные проблемы на практике в предпринимательской деятельности высших учебных заведений.

Ключевые слова: предпринимательская деятельность высших учебных заведений, внебюджетные доходы, коммерциализация результатов научных исследований, инновационное предпринимательство.

ISSN 3030-3230

Annotation. The article examines the necessity of entrepreneurial activity of higher education institutions, the opinions of scientists in the field. In addition, the entrepreneurial income of higher education institutions operating in our country is analyzed. The gaps in the legislation and organizational problems in practice in the entrepreneurial activity of higher education institutions are considered.

Keywords: entrepreneurial activity of higher education institutions, extrabudgetary income, commercialization of scientific research results, innovative entrepreneurship.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармонига 1-илова. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 04.07.2023 й., 06/23/107/0441-сон.

2. Higher Education As A Pathway To Entrepreneurship. Mohamed Imam Salem, King Saud University, Kingdom of Saudi Arabia. International Business & Economics Research Journal – March/April 2014. Volume 13, Number 2

3. Gibb, A., Haskins, G., & Robertson, I. (2013). Leading the entrepreneurial university: Meeting the entrepreneurial development needs of higher education institutions. Universities in Change, 9-45. New York: Springer.

4. Paul D. Hannon. Why is the Entrepreneurial University Important? Journal of Innovation Management JIM 1, 2 (2013) 10-17. ISSN 2183-0606. http://www.open-jim.org

5. https://tiiame.uz/

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Олий таълим муассасаларини босқичма – босқич ўзини ўзи молиялаштириш тизимига ўтказиш тўғрисида"ги Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.12.2019 й., 09/19/967/4107-сон

7. lndividual and Structural lnfluences оп the Entrepreneurial Activities of Academics. Teita Bijedic, Frank Maa, Christian Schroder and Arndt Werner. Working Paper08/16. ISSN 2193-1879 (lnternet) Bonn, Dezember 2016

8. http://creativecommons.org/licenses/by/3.0

9. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o'lchamda bosh harfda, o'rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o'zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so'zdan iborat kalit so'zlar yoziladi. Bir qatordan so'ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo'lim va punktlarga bo'linishi mumkin. Bo'limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so'nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro'yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxatida quyidagilar ko'rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma'ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo'lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko'rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko'rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: info@mgjxu.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo'rg'oni, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo'limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman ko'chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Qo'lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay'atining fikri muallif fikridan o'zgacha bo'lishi mumkin. Qo'lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 12,25. Adadi 10 nusxa.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 03.04.2025 y. Buyurtma № 483.

© O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025 y.

O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universitetining



















t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti

jamoatxavfsizligi_universiteti

@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120



@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120



t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti



jamoatxavfsizligi_universiteti

9 773030 323005

TAHRIRIYAT MANZILI:
100211, Toshkent viloyati, Chorsu qo'rg'oni.
Tel: (71) 230-32-71
Faks: (71) 230-32-50
E-mail: info@mgjxu.uz